

ZULXUMOR ASHUROVA

O'ZBEK TILINING SOHADA QO'LLANILISHI

O'QUV QO'LLANMA



SAMARQAND 2021

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

ZULXUMOR ASHUROVA

**O'ZBEK TILINING SOHADA
QO'LLANILISHI**

Z.Ashurova. O'zbek tilining sohada qo'llanilishi. O'quv qo'llanma.-
Samarqand: SamISI nashri. 2021.-120 bet.

Mazkur o'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalari bakalavriat bosqichi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, kelgusida soha mutaxassislarini davlat tashkilotlarida, ta'lim muassasalarida o'zbek tilida ish yuritish faoliyatini shakllantirishi nazarda tutilgan.

Mas'ul muharrir:

Adilova Soliya Adilovna SamISI katta o'qituvchisi, f.f.n

Taqrizchilar:

D.Boboxonova NamDU dotsenti f.f.n

R.Mustafaqulov TerDU dotsenti

SO'Z BOSHI

Mamlakatimizda o'zbek tilining nufuzini yanada yuksaltirishda 1989 yilning 21-oktabrda "Davlat tili haqida"gi Qonunning qabul qilinishi katta ahamiyat kasb etdi. Hozirgi kunda respublikamiz bo'ylab o'z faoliyatini olib borayotgan barcha viloyat, shahar va tuman hokimliklari, vazirlik va idoralarning davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bugungi globallashuv jarayonida, axborot texnologiyalari taraqqiyoti davrida tilning sofligini saqlab qolish, uni milliy boylik sifatida asrab-avaylab, kelgusi avlodlarga yetkazish masalasi juda muhim jarayondir.

Oliy ta'lim muassasalarida "O'zbek tilining sohada qo'llanilishi" fanining qo'yilishi bakalavr bosqichi talabalarining ushbu fan bo'yicha egallashlari shart bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarning zaruriy me'yorlariga aoslanadi.

Samarqand iqtisoudiyot va servis instituti axborot resurs markazi

1-MAVZU: O'ZBEK TILINI SOHADA QO'LLANILISHI FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Mashg'ulot rejasি:

- 1.Tilning jamiyatda tutgan o'rni
- 2.Til va tafakkur ularning o'zaro munosabati
3. "Davlat tili" tushunchasi
4. O'zbek tili va davlat qonunlari

Tayanch so'z va iboralar: til, davlat tili, rasmiy, ish hujjatlari, tafakkur, ijtimoiy munosabat, milliy til, rasmiy til.

Ilm-fan, san'at va madaniyat, ma'naviyat hamda ma'rifat haqida gap ketganda dunyo ma'rifatparvarlik maktabining taraqqiyotida tilning, ya'ni milliy tilning o'mi va roli alohida o'rin tutishini ta'kidlash zarur. Chunki har qanday ixtiro yoki kashfiyot til bois ajdodlardan-avlodlarga meros bo'lib yashab kelmoqda. Shu bois har bir til o'z egasi uchun nihoyatda qadrli va aziz hisoblanadi.

Bugungi kunda Yurtboshimiz tomonidan olib borilayotgan ulkan o'zgarishlarning zamirida ham milliylik deya ataluvchi azaliy qadriyatlar yetibdi. Bu degani har qanday milliylik tilda aks etadi demakdir.

YUNESKO taskhiloti ekspertlari 1953- yilda "davlat tili" va "rasmiy til" tushunchalarini farqlashni taklif etgan. Unga ko'ra:

Davlat tili — siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda ma'lum bir davlatda integratsiya (birlashtiruvchi) vazifasini amalga oshiradigan, shuningdek ushbu davlatning ramzi sanaladigan tildir.

Rasmiy til — davlat boshqaruvi, qonunchilik, sud jarayoni tilidir.

Ushbu ikki ta'rif tushuntirish-tavsiya sifatida qabul qilinadi, barcha mamlakatlar uchun majburiy emas.

O'zbekiston – ko'p millatlik davlat. Respublikada 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi.

Tafakkur arabcha so'z bo'lib, fikr yuritish, o'ylash, fikrlash kabi ma'nolarni ifodalaydi. Tafakkur orqali ob'ektiv borliqni taniy boshlaymiz. Bu borada mutafakkir A.Navoiy shunday yozadi.

Ki har ishni qildi odamzod,

Tafakkur birla qildi oni bunyod.

Tafakkur fikrning ko'pligi hisoblanar ekan, til mana shu fikrlarning voqe bo'lishidir, ya'ni fikr (tafakkur) ning ro'yobga chiqishida til siyosiy vosita bo'lib

xizmat qiladi. Til va tafakkur uzviy bog'liq . Tilsiz tafakkur va tafakkursiz til mavjud bo'la olmaydi.

Til va nutq.

O'zbek tilining izohli lug'atida "til"ga shunday ta'rif berilgan. "Kishilar o'rtasida, jamiyatda o'zaro fikr almashishning muhim vositasi, tilshunoslikning asosiya o'rganilish ob'yekti. Biz o'z fikrimizni tilsiz turli vositalar bilan (qo'l, bosh, yuz, ko'z harakati bilan) ham bir qism ifodalahimiz mumkin. Biroq til va uni ro'yobga chiqaruvchi nutqimizsiz ko'zlangan maqsadga to'liq erisha olmaymiz.

Inson ongi biror bir vogelik aks ettirar ekan, u so'zlar orqali (nutq vositalari bilan) ham bir qism ifodalahimiz mumkin. Biroq, til va uni ro'yobga chiqaruvchi nutqimizsiz ko'zlangan maqsadga to'liq erisha olmaymiz.

Inson ongi biror bir vogelik aks ettirar ekan, u so'zlar orqali (nutq vositalari bilan) yuzaga chiqaradi. Odamzodning bolalaidan to umrining oxirigacha oladigan ilmiy va hayotiy ta'limi so'z va til vositasida amalga oshadi. Tafakkur, til va uning yuzaga chiqaruvchi (og'zaki, yozma shaklida) vosita so'z bo'lar ekan (nutq), bu borada A.Navoyning quyidagi isralarini eslatib o'tish maqsadga muvofiq:

Insonni so'z ayladi judo hay vondin,

Bilki, guhari sharif yo'qdir ondin.

Til va nutq o'ziga xos xususiyatlarni bilan ajralib turadi:

1.Til-aloqa quroli. Nutq ana shu aloqa jarayonini amalga oshiruvchi vosita, aloqa shaklidir.

2. Tilning umri uni yaratgan xalqning uzoq tarixga ega. Nutqning umri alohida bir shaxs umri bilan teng.

3. Til muayyan bir tilde so'z millatning barcha vakili maktab tarzida talaffuz etishi me'yoriy hol sanaydi.

4. Til nisbatan turg'un, barqaror bo'lsa, nutq doim harakatda bo'lib, o'zgaruvchan bo'ladi.

NUTQ KUNDALIK HAYOTDA KISHILAR ORASIDAGI O'ZARO ALOQA EHTIYOJNI QONDIRUVCHI VOSITADIR

"O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi Qonuniga (yangi tahrir) muvofiq, O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

Fuqarolar millatlararo muomala tilini o‘z xohishlariga ko‘ra tanlash huquqiga egadirlar.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha millat va elat tillariga hurmat ko‘rsatiladi va ularning rivoji uchun sharoitlar yaratadi. Ommaviy axborot vositalari O‘zbekistonda istiqomat qiluvchi millat va elatlarning bir necha tillarida efirga uzatiladi va chop etiladi.

Shuningdek, ish yuritish va kundalik foydalanishda tillarni tanlash va ishlatish bilan bog‘liq muammolar mayjud emas. “Davlat tili to‘g‘risida” gi Qonunga binoan korxonalarda ish yuritish va boshqa hujjatlar, notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi, zurur hollarda rus tilida yoki boshqa tillarda amalga oshirilishi ham mumkin. O‘zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta‘minlanadi.

Davlat tili hamda zamonaviy O‘zbekiston hududida keng tarqalgan va huquqiy maqomiga o‘zgartirishlar kiritilgan rus tili bilan bir qatorda hududlarda boshqa tillardan ham foydalanib kelinadi.

Chetdan kirib kelayotgan har qanday xorijiy til ta‘siri ona tili va milliy madaniyatga soya solishi mumkin. Misol uchun, Shvesiyada ingliz tilidan faol foydalanish natijasida turli soha faoliyatida shved tilidan foydalanilmay qo‘yildi. Shved tili davlat tili sifatida yo‘qolib bormoqda. Mustamlakachilik tarixiga ega bo‘lgan ko‘plab mamlakatlarda eski mustamlaka tillari ijtimoiy hayot tili hisoblanadi, ona tili esa faqatgina uyda foydalanish va norasmiy kundalik aloqada qo‘llaniladi.

Bundan tashqari, ko‘p millatli O‘zbekistonda yuridik jihatdan ma’lum bir tilga davlat tiliga teng bo‘lgan maxsus maqom berilishi jamiyatda qandaydir darajada keskinlik, uning bo‘linishi va etnik qarama-qarshiliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Boshqa tillarni bilmaslikni yetarlicha baholamaslik zararli va progressiv rivojlanish jarayonini sekinlashishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, biz bugungi kunda zamonaviy o‘zbek tili, shu jumladan adabiy til qanday o‘zgarayotganiga guvoh bo‘lyapmiz. O‘zbek tiliga chet tillardan boshqa so‘zlearning kirib kelishi, kelib chiqishi va shakllanishi chuqur ildizga ega o‘zbek tilining tarixiy ahamiyati yo‘qolib borayotganini ko‘rish mumkin.

Davlatlar oldiga yo‘nalishlar va zamonaviy global jarayonlarga qo‘shilish vazifasini qo‘yayotgan mintaqalashuv va globallashuv davrida an‘anaviy qadriyatlар hamda milliy va madaniy o‘ziga xoslikni saqlab qolish kabi muhim jihatlarning jamlanmasi insoniyat rivojinining asosiy omili hisoblanadi.

Til insonning birlamchi ehtiyoji, anglash, bilih, so‘zlash, aloqa-munosabat vositasi, mansub-xoslik omili bo‘lgani bois hamisha jamiyat ravnaqining asosiy mezonlaridan bo‘lib kelgan. Jumladan, o‘zbek tili o‘zbek millatining uzoq tarixiy

ildizlariga, o‘z siyosiy-huquqiy asoslariga ega muqaddas qadriyati, ulkan ma’naviy yutug‘idir. Bugungi taraqqiyotiga qadar shonli va sharafli yo‘llarni bosib, keskin va shiddatli to‘fonlarni yengib kelayotgan milliy tilimiz davlat maqomida yanada ulug‘vor va ustuvorligini namoyon qilmoqda.

Turli darajadagi ijtimoiy munosabatlar, xalqaro aloqalar, fan-texnika taraqqiyoti, globallashish jarayonlari milliy til qiyofasiga ham muayyan darajada o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda, ichki va tashqi tahdidlar xavfini oshirmoqda. Shulardan biri yaqin kunlar oralig‘ida munosabat-munozara maydonini egallab, keng jamoatchilikning tanqidu e’tiroziga uchrayotgan “rus tilini ikkinchi rasmiy davlat tili sifatida e’lon qilish” tashabbusini ilgari surgan ayrim “ziyolilar”ga ham tegishlidir.

Mamlakatda o‘zbek tili rasmiy davlat maqomiga ega yagona til sifatida Konstitutsiya va qonunlar orqali huquqiy mustahkamlab qo‘yilganligiga ham e’tibor qaratmasdan, ikkinchi tilni rasman tan olish jamiyatni ikkiga bo‘lish, millat ajratishga olib kelishini, turli ko‘rinishdagi noroziliklar sodir bo‘lishini inobatga ham olmasdan bunday ko‘r-ko‘rona taklifni ilgari surish talab qilinayotgan ikkinchi tilni, shu til vakillarini o‘z milliy tili, milliy qadriyatlari, milliy hamiyatidan ustun qo‘yish, ustuvor ko‘rishni anglatadi. Amaldagi davlat tiliga nisbatan bepisandlik, hurmatsizlikni ko‘rsatadi. Ushbu o‘rinsiz va asossiz vayronkor g‘oyani bugun barcha millatsevar, vatanparvar jamoatchilik, ma‘rifat ahli keskin qoralab, o‘z milliy tiliga, o‘zbek tilining asriy va azaliy maqom-martabasiga muhabbat-ehtiromini ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoq sahifalari orqali turli ko‘rinishlarda namoyish qilmoqda. Albatta, o‘zligini qadrlagan, o‘z millatiga daxldorligini his qilgan, milliy g‘urur va iftixorini yuqori tutgan har bir fuqaro bunday yo‘l tutishi tabiiy. Ushbu muammo sabab, bugun jamiyatning amaldagi rasmiy davlat tili bo‘lgan o‘zbek tiliga munosabati yana bir elakdan o‘tmoida, sinovlarda toblanmoqda va qat‘iy lashmoqda.

Tajribalardan ayonki, ko‘p til bilish – rivojlanishning ilg‘or qonuniyati, muvaffaqiyat garovi. Ammo o‘z milliy tilingni unutish, o‘zga tillar bilan chog‘ishtirish, qorishtirish evaziga emas! O‘zga tillarni o‘rganish orqali taraqqiyotga erishishni yoqlab chiqqan ma‘rifatparvar jadidlar ham bu borada ehtiyyotkor va mas‘uliyatli bo‘lishgan. Xususan, Abdulla Avloniy o‘z qayg‘usini “Milliy tilni yo‘qotmak millat ruhini yo‘qotmakdur. Hayhot! Biz turkistonlilar milliy tilni saqlamak bir tarafda tursun, kundan-kun unutmak va yo‘qotmakdadurmiz. Tilimizning yarmiga arab, forsiy ulangani kamlik qilub, bir chetiga rus tilini ham yopishdurmakdadurmiz... Zig‘ir yog‘i solub moshkichiri kabi qilub, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur”, - degan o‘tli fikrlarida ta’sirchan oshkor qilgan. Bu fikrlar ayni kunda yana ham dolzarblashmoqda.

Milliy tilga e'tibor va ehtirom millatsevarlik, vatanparvarlik, oliyjanoblikning yorqin ifodasi. Milliy til – milliy urf-odat, qadriyatlarni, milliy ma'naviy meros-manbalarni bilish, o'zlashtirish, yetkazib berish, targ'ib etishda, o'zlikni anglash, anglatishda birlamchi vosita. O'z milliy tiliga muhabbat yo'q, o'zga tillarga ehtiromi yuksak insonni millat vakili, vatanparvar shaxs deb atash mumkinmi? Til millatga, jamiyatga, Vatanga daxldor oliv tushuncha. Shu boisdan bu borada ehtiyotkor bo'lish, ajdodlardan meros buyuk ne'mat ildiziga bolta urmaslik talab qilinadi.

Masalaga munosib yechim izlab olib borilgan tahliliy kuzatishlar o'zbek tilining davlat tili maqomidagi rutbasini yanada mustahkamlash, qonuniy asoslarni kengaytirish, qat'iylashtirish zarurati mavjudligini ko'rsatadi. Nafaqat ayni shu kunlarda, balki o'tgan yillar davomida ham millatsevar tilshunoslar, ma'rifat ziyoililarini o'zbek tilining rasmiy talablarini kuchaytirish, milliy martabasini oshirish, barcha soha vakillarining adabiy til me'yorlariga amal qilishiga erishish kabi dolzarb muammolar hamisha o'yantirib, munozaraga chorlab kelgan. Shu asoslarga tayanib, quyidagi vazifalarни kechiktirmasdan hal qilib borish talab etiladi:

- Davlat tili to'g'risidagi qonunni tahririyo ko'rib chiqish va unda milliy rasmiy tilga munosabatni, adabiy me'yor talablarini kuchaytirish;

- davlat tili barqarorligiga to'siq bo'luvchi o'zbek alifbosini bilan bog'liq ikkilanish muammolariga qonuniy chek qo'yish, yozuv birligi, aholining savodxonlik darajasini oshirishga erishish;

- O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasiga tayanib, o'zbek tilining rasmiy maqomini mustahkamlash;

- milliy qadriyatlarning asosiy timsoli bo'lgan o'zbek tilining rasmiy va milliy maqomini targ'ibu tashviq etuvchi ma'naviy-ma'rifiy ishlari ko'lamin kengaytirish, bu borada maqsadli, manzilli va tizimli tadbirlar tashkil qilish;

- milliy ma'naviy merosga muhabbat va ehtirom, avvalo, oiladan boshlanishi, oila qadriyatlar beshigi ekanligini e'tiborga tutgan holda farzand tarbiyasida ona tilini puxta egallash, milliy tilni, qadriyatlarni avaylash, ijtimoiy daxldorlik, vatanparvarlikni shakllantirish usullari tavsiya qilingan metodik qo'llanmalar yaratish;

- ta'lim bosqichlari, tashkilot, muassasa va korxonalarda o'zbek tiliga davlat maqomi berilgan kun arafasidagi bayramdan tashqari jarayonlarda ham davlat tilining rasmiy talablari bilan tanishtiruvchi, mohiyatini tushuntiruvchi, milliy til ruhiyatini yuksaltiruvchi ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot-tashviqot tadbirlarini muntazam yo'lga qo'yish;

- mamlakatning har bir fuqarosida rasmiy davlat tiliga nisbatan hurmat va ehtirom tuyg'ulari barqarorligini ta'minlash ishlarini tizimli olib borish.

O‘z-o‘zini nazorat qilish, muhokama uchun savol va topshiriqlar

1-topshiriq. “Soha” so‘ziga sinkveyn tuzing.

“SINKVEYN” (5 qator) texnikasi

Maqsad – kategoriyaga tavsif berish

1-qator – tushuncha - ot

2-qator – 2 so‘zdan iborat sifat

3-qator – 3 so‘zdan iborat fč’l

4-qator – 4 so‘zdan iborat munosabat

5-qator – 1 so‘zdan iborat sinonim

Topshiriq. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi shuningdek, ommaviy axborot vositalarida o‘zbek tilining targ‘ib qilinishiga doir reportaj tayyorlang.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1.Til va tafakkurning o‘zaro munosabati haqida ma'lumot bering

2.Til va tafakkurning rivojini ta'minlovchi holat nima?

3.Til va nutq, ularning farqi haqida nima deya olasiz?

4.Nutqning to‘g‘riliqi, va aniqligi nutq madaniyati uchun qanday ahamiyatga ega?

5.Nutqning ravonligi, soddaligiga qanday erishiladi?

6.Nutqning mantiqiyligi va ta’sirchanligi deganda nimani tushunasiz?

7.Og‘zaki va yozma nutq shakllariga xos xususiyatlar nimadan iborat?

8.Til va nutq va so‘zalashuv odobi haqida maqol, himatli so‘z ayting.

2-BOB: O'ZBEK ADABIY TILI ME'YORLARI

Mashg'ulot rejası

1. Adabiy til haqida ma'lumot
2. Xalq shevalari
3. Adabiy tilning xalq shevalaridan farqi

Tayanch so'z va iboralar: nutq, me'yor, dialektik me'yor, so'zlashuv nutqi me'yori, argolar, adabiy til me'yori, leksik-semantic me'yor, talaffuz me'yor, yozuv me'yor, fonetik me'yor, aksentologik me'yor, grammatik me'yor, so'z yasash me'yori, imloviy me'yor, uslubiy me'yor, punktuatsion me'yor.

Nutq - bu til deb ataluvchi, o'ta muhim vazifani bajaruvchi noyob quroldan foydalanuvchi jarayondir. Nutq harakatagi til bo'lib, nutq a'zolarining harakati jarayonida paydo bo'ladi va so'z birikmalar, erkin birikmalar, so'z tartibi va gaplardan tashkil topgan.

Qo'llangan til birligi to'g'ri yoki noto'g'ri deyilganda, albatta, ma'lum bir o'Ichov (mezon)ga asoslanganligi tayin. Mana shu o'Ichov (mezon) tilshunoslikda adabiy til me'yori deb yuritiladi.

Xususiy me'yorlar quyidagilar:

1. Dialektik me'yor.
2. So'zlashuv nutqi me'yori.
3. Argolar, jargonlar me'yori.
4. Adabiy til me'yori (adabiy me'yor).

Me'yor – tilning yashash shaklidir. Adabiy me'yor adabiy til bilan birga tuziladi, badiiy adabiyotning, xalq madaniyati taraqqiyoti bilan rivojlanib o'z qonun qoidalarini mustahkamlab boradi. Jamiyat a'zolarini uyuştirishda, katta vazifalarga otlantirishda adabiy til, uning me'yorlari jamiyat uchun nihoyatda zarur.

O'zbek adabiy tili me'yorlari ilmiy asarlarda quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Leksik-semantic me'yorlar.
2. Talaffuz (arfoepik) me'yor.
3. Yozuv (arfografik) me'yor.
4. Fonetik me'yor.
5. Aksentologik (urg'uni to'g'ri qo'yish) me'yori.
6. Grammatik (morphologik, sintaktik) me'yor.

7. So'z yasash me'yorlari.

8. Imloviy me'yor.

9. Uslubiy me'yor.

10. Punktuatsion me'yor.

Inson nutqiy faoliyatga adabiy til madaniyati qoidalarini mukammal bilgan holda mustaqil shug'ullanishi, ayniqsa, badiiy adabiyotlarni, gazeta va jurnallarni o'qishi, radio va televideniyani tinglashi orqali erishadi va tinimsiz shug'ullanishi natijasida nutqiy malakaga ega bo'ladi. Insonning nutqiy faoliyati uch ko'rinishda bo'ladi. Bular: so'zlash, o'qish, eshitish.

Jamiyatda yashayotgan har bir shaxs alohida nutq egasi sanaladi. Lekin ularning hammasi uchun umumiy bo'lgan nutqiy qurol – yagona shu jamiyatning tili hisoblanadi.

Tarixan tarkib topgan, qat'iy me'yorlarga bo'y sunuvchi, so'zlashuvchilarning qaysi hududda yashashidan qat'i nazar barchasi uchun umumiy bo'lgan til adabiy til sanaladi.

Adabiy til har qanday tilning oliv shakli sanaladi va lug'at tarkibining boyligi, grammatik qurilishining tartibga solinganligi, qat'iy me'yorlarga amal qilishi, uslubning rivojlanganligi bilan xarakterlanadi.

Bu jihatdan adabiy til xalq shevalariga qarama-qarshi qo'yiladi.

Faqat muayyan bir hududga xos ayrim belgilarni o'zida namoyon qilgan til shakli mahalliy shevalar hisoblanadi.

Shevalar shu xususiyatlari bilan boshqa hududga mansub shevalardan va ayni paytda adabiy tildan farq qiladi.

Adabiy til xalq shevalaridan oziqlangan holda muttasil rivojlanib boradi. Demak, adabiy til xalq shevalaridan uzilgan til emas.

Adabiy til xalq shevalari negizida so'z ustalari tomonidan umumlashtirish, qat'iy me'yorlarni ishlab chiqish yo'li bilan hosil qilinadi. Hozirgi o'zbek adabiy tili ko'proq qarluq, qisman qirchoq va o'g'uz shevalari negizida vujudga kelgan. Qarluq shevasi vakillari ko'proq Farg'ona vodiysi, Toshkent, Samarcand, Qarshi shaharlari va ularning atroflaridagi hududlarda istiqomat qilishadi. Shuningdek, bu sheva vakillarini Markaziy Osiyoning bir qancha joylarida, xorijiy mamlakatlarda ham uchratish mumkin. Har bir ziyoli o'zi mansub bo'lgan hudud tili xususiyatlaridan qutulib, adabiy tilda gapirish ko'nikmasiga ega bo'lmog'i lozim.

Masalan, *ashi*, *kevotti*, *kelutti*, *kelopti*, *oka*, *aqa-baqa* singari shakllarni nutqda qo'llash so'zlovchida nutq madaniyatining shakllanmaganligidan dalolat beradi.

Adabiy til yozma va og'zaki shakllarga ega bo'ladi.

Harflar vositasida yozma ravishda bayon qilinuvchi adabiy til yozma adabiy til sanaladi. Masalan, gazeta-jurnallar tili, ish qog'ozlari tili va boshqalar.

Tovushlar vositasida og'zaki ravishda bayon qilinuvchi adabiy til shakliga og'zaki adabiy til deyiladi. Masalan, radio, televideniye orqali uzatiluvchi suxandon yoki jurnalist nutqi va hokazolar.

Adabiy tilning rivojlanishida badiiy asarlarning xizmati katta, chunki adabiy til me'yorlarining shakllanishida adabiyotning ta'siri kuchli bo'ladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan adabiy til bilan badiiy til bir narsa emas. Badiiy tilda adabiy til bilan birgalikda turli shevalarga yoki kasb-hunarga mansub personajlar nutqi ham ishtirok etadi.

Masalan,

Odamlar aqlining chirog'i bilim,
Balodan saqlanish yarog'i bilim.

(Rudakiy)

Badiiy til (badiiy nutq), adabiy tilning og'zaki so'zlashuv uslubi, publisistik uslub, rasmiy uslub singari uslublardan biri, ya'ni badiiy uslub sanaladi. Ko'rindaniki, adabiy til badiiy tildan kengroq tushuncha bo'lib, badiiy tilni ham o'z ichiga oladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar :

1. Me'yor tsuhunchasiga ta'rif bering.
2. O'zbek adabiy tili me'yorlari haqida to'xtalib o'ting.
3. Xususiy me'yorlar haqida to'xtalib o'ting.
4. Dialektik me'yor, so'zlashuv nutqi me'yori, argolar, jargonlar, adabiy til me'yorlari haqida to'xtalib o'ting.

3-BOB: O'ZBEK-LOTIN ALIFBOSINING IMLO QOIDALARI

Mashg'ulot rejasি:

1. "Davlat tili haqida"gi tarixiy qonun
2. Yangi alfavitning joriy qilinishi

Tayanch so'z va iboralar: tarixiy qonun, davlat tili, imloviy, ishoraviy, uslubiy, tahrir, harf, alifbo, yozuv, yangi alifbo, lotin yozushi, krill yozushi, imlo qoidalari, yangi davrda hujatchilik.

1989-yil 21-oktabrda istiqlol sari tashlangan dadil qadam sifatida O'zbekiston Respublikasining 30 moddadan iborat "Davlat tili haqida"gi tarixiy qonuni qabul

qilindi. O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 31-avgustda mustaqil davlat deb e'lon qilinishi qaddimizni bukib kelgan barcha tahqir va tazyiqlardan ozod etdi. "Davlat tili haqida"gi qonun qabul qilingan kun – 21-oktabr o'zbek tili bayrami kuni deb e'lon qilindi va har yili boshqa bayramlar qatori yuqori ko'tarinkilik bilan nishonlanib kelinmoqda.

Mazkur tarixiy qonun qabul qilingan paytda O'zbekiston Respublikasi hali sobiq sho'rolar davlati tarkibida bo'lib, bиргина qonun qabul qilish bilan o'zbek tilining mamlakat ichida va undan tashqaridagi obro'-e'tibori, xalqaro mavqeyini tezdan tiklash qiyin edi. Shuningdek, mazkur qonunda o'zbek tili bilan bir qatorda rus tiliga ham millatlararo muomala tili sifatida bir talay imtiyozlar ham berilgan ediki, bu hol ham o'zbek tilining davlat tili sifatida keng miqyosda qo'llanishiga biroz bo'lsa-da, soya tashlar edi. Shuning uchun ham istiqlolga erishilgach, qonun qayta ishlaniб, davr talabidan ortda qolayotgan moddalar yangilari bilan almashtirildi, mustaqil davlat hayotiga mos keluvchi yangi tahrirda 1995-yil 21-dekabrda qabul qilindi. Avvalgi qonun 30 moddadan iborat bo'lgan bo'lsa, yangi tahrirdan so'ng u 24 moddaga keltirildi. Qonunning 1-moddasidayoq "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir" deyilgan (1, 8-b.). Mazkur moddaning o'ziyoq respublikamizda ish yuritish – hujjatlar bilan bog'liq barcha ishlarning davlat tilida olib borilishi lozimligini talab etadi. Bu esa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasi bilan hamohang bo'lib, unda shunday deyilgan: "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi" (5, 8-b.).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 10-sentabrdagi 311-sonli qarori bilan "Davlat tili haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining amalga oshirilishini ta'minlash Davlat dasturi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan yangi tahrirda tasdiqlandi. Davlat dasturiga asoslanib, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 1996-yil 14-noyabrda O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida" (yangi tahrirdagi) Qonunini bajarish tadbirlari to'g'risida 267-sonli buyruq chiqardi. Unda o'quv yurtlarida xodimlar va talabalar uchun "Davlat tilida ish yuritish, hujjatchilik va atamashunoslik" kurslarini 1997-yildan e'tiboran doimiy ravishda tashkil etish qat'iy qilib qo'yildi. Shu yildan boshlab, Davlat dasturi hamda vazirlikning tegishli buyruqlari asosida oliy o'quv yurtlari talabalariga mazkur kursdan amaliy mashg'ulotlar o'tib kelinmoqda.

Ma'lumki, eng kichik, quyi, boshlang'ich tashkilotlardan tortib, davlatning oliy organlarigacha hujjatlarga tayanib, ish yuritadi. Yaqin vaqt targacha hujjatlar asosan rus tilida rasmiylashtirilar edi. O'zbek tilida esa ayrim hujjatlarga yuritilar, ular ham rus tilidagi hujjatlar andozasiga asoslangan bo'lib, milliylikdan yiroq edi.

Endilikda respublikamizdagi barcha korxonalar, tashkilotlar, muassasalarda yuritiladigan hujjatlar o'zbek tili qonun-qoidalariiga mos ravishda rasmiylashtirilmoqda. Oliy o'quv yurtlarini bitirib chiqayotgan yosh mutaxassislar o'zlari ishga boradigan mehnat jamoalarida ish qog'ozlari, hujjatlarning mantiqiy to'g'ri yozilishi yoki to'g'ri to'ldirilishi, ishoraviy, imloviy, uslubiy xatolarsiz, davr talabiga javob beradigan tarzda rasmiylashtirilishiga yaqindan ko'maklashishlari lozim. Buning uchun esa bitiruvchi talabalarimiz nafaqat hujjatlar bo'yicha, balki yangi alifbo va imlo qoidalari bo'yicha ham yetarlicha tushunchaga ega bo'lishlari talab etiladi.

Nutq tovushlari nutqning eng kichik, bo'linmas qismidir. Nutq tovushlarining yozuvdagagi shakli **harf** deb ataladi. Nutq tovushlarini talaffuz qilamiz va eshitamiz. Harflarni esa ko'ramiz, yozamiz va o'qiyamiz.

Ma'lum tartibda joylashgan harflar qatori **alifbo** (yoki alfavit) deyiladi. *Alifbo* so'zi *arab* alfavitidagi birinchi (alif) va ikkinchi (bo yoki be) harflari nomlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Lug'atlarda, turli ro'yxatlarda so'zlar alfavit tartibida joylashtiriladi. Masalan, barcha lug'atdagi so'zlar, saylovchilar ro'yxati, kutubxona kartotekasida mualliflarning familiyalari, kitoblarning nomlari alfavit tartibida joylashtirilgan bo'ladi. Shu sababli alfavitni yoddan biliшимиз zarur.

Bizning davrimizda jahondagi xalqlar 220 xil yozuvdan foydalanadilar. Shu yozuvlardan juda keng tarqalgani lotin yozushi bo'lib, jahon xalqlarining 30% dan ziyodi shu yozuvni qo'llaydilar. 1993-yil 2-3 sentabrda bo'lib o'tgan Oliy Kengashning 13-sessiyada o'zbek yozuvini lotin yozuviga o'tkazish to'g'risida qonun qabul qilindi. 1995-yil 6-maydag'i Oliy Malij sessiyasida bu alifboga ayrim o'zgarishlar kiritildi va bu yozuvga to'liq o'tish muddati 2005-yil sentabr oyi deb belgilandi. 2004-yilda chiqarilgan Qonunga ko'ra esa lotin yozuviga to'liq o'tish muddati 2010-yil sentabriga qadar cho'zildi.

Bo'lg'usi oliy ma'lumotli mutaxassis, ish yurituvchi, hujjatlar bilan bevosita ishlaydigan xodim oldida, yuqorida ta'kidlanganidek, hujjat turlarini puxta o'rgnish, ularni mantiqiy to'g'ri va aniq ma'lumotlar asosida shu sohaga doir leksik vositalardan unumli foydalangan holda tayyorlash, to'ldirish vazifasi turadi. Shuningdek, mamlakatimizda lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosining joriy etilishi va shu munosabat bilan yangi imlo qoidalariining ishlab chiqilganligi, amalda 1956-yildan buyon qo'llanib kelingan ayrim imlo qoidalariining eskirganligi yoki yangisi bilan almashtirilganligi, yangi imlo qoidalariining kiritilganligi, imkon qadar o'zbek tilining grammatik qonun-qoidalardan samarali foydalangan holda uslubiy, imloviy va ishoraviy xatolarsiz hujjatlar tayyorlashni taqozo etadi. Kirill va lotin yozuvalariga asoslangan alifbolarda so'zlarning yozilishidagi ayrim farqlarni

inobatga oladigan bo'lsak, bu hol barchamizdan hujjat tayyorlash ishiga alohida e'tibor bilan qarashimizni talab etadi: *ob'ekt – obyekt, rejissyor – rejissor, konsern – konsern, aksiya – aksiya* va hokazo kabi. Buni yangi imlo qoidalari puxta o'rganish orqali chuqur o'zlashtirib olish mumkin.

Ma'lumki, kirill yozuvni asosidagi alifbosimizda 33 harf va 2 ta belgi mavjud edi. Ular quyidagilar: Aa, Bb, Gg, Dd, Yee, Yoyo, Jj, Zz, Ii, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Pp, Rr, Ss, Tt, Uu, Ff, Xx, Ss, Chch, Shsh, ”, , Ee, Yyu, Yaya, O'o, Qq, G'g'. Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosida esa 26 ta harf va 3 ta harflar birikmasi mavjud bo'lib, ular quyidagi tartibda joylashgan: Aa, Bb, Dd, Ee, Ff, Gg, Hh, Ii, Jj, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Uu, Vv, Xx, Yy, Zz, O'o, G'g', Shsh, Chch, Ngng.

Yangi alifboga tovush ifodalarniyadigan belgilari kiritilmadi. Tutuq belgisi imlo qoidalari sirasida o'rganiladigan bo'ldi.

1956-yil 4-aprelda tasdiqlangan "O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari" 72 paragrafdan iborat bo'lgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustda 339-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" 82 banddan iborat. Hujjalarning tayyorlash jarayonida imlo qoidalarining zarurligini e'tiborga olib, "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" dan ayrim bandlarini misol tariqasida keltiramiz.

"O'ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI" DAN

32. ‘ – tutuq belgisi:

1) *a'lo, ba'zan, ma'yus, ta'zim; ra'y, ta'b; e'lon, e'tibor, e'tiqod, me'mor, ne'mat, she'r, fe'l; Nu'mon, shu'la* kabi o'zlashma so'zlarda unlidan keyin shu unli tovushning cho'ziqroq aytishini ifodalash uchun qo'yiladi; *mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar* kabi so'zlarda o' unlisiga cho'ziqroq aytilsa ham, tutuq belgisi qo'yilmaydi;

2) *in'om, san'at, qat'iy, mas'ul* kabi o'zlashma so'zlarda unlidan oldin shu umli oldindi undosh tovushdan ajratib aytishini ifodalash uchun qo'yiladi.

37. Quyidagi qo'shimchalarining bosh tovushi ikki yoki uch xil aytildi va shunday yoziladi:

1) taqlid so'zlardan fe'l yasovchi –*illa (chirilla, taqilla)* qo'shimchasi so'z tarkibida v yoki u tovushi bo'lganda –*ulla* aytildi va shunday yoziladi: *shovulla, lovulla, gurulla kabi*;

2) nisbat shaklini yasovchi –*dir* qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'lini so'zlarda (*kel* so'zidan boshqa), shuningdek, z undoshi bilan tugagan ortirma nisbat yasovchisidan keyin qo'shiladi: *quvdir, egdir, kuldir, yonder; o'tkazdir, tomizdir* kabi. Qolgan barcha hollarda bu qo'shimcha –*tir* aytildi va shunday yoziladi: *tiktir, kestir, uyaltir, chaqirtir* kabi;

3) jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi *-ga*, chegara bildiruvchi *-gacha*, ravishdosh shaklini yasovchi *-gach*, *-guncha*, *-gani*, *-gudek*, sifatdosh shaklini yasovchi *-gan*, buyruq maylining II shaxs ko‘rsatkichi *-gin*, shuningdek, *-gina* qo‘shimchasi uch xil aytildi va shunday yoziladi:

a) *k* undoshi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda bu qo‘shimchalarning bosh tovushi *k* aytildi va shunday yoziladi: *tokka*, *yo‘lakkacha*, *ko‘nikkach*, *zerikkuncha*, *to‘kkani*, *kechikkudek*, *bukkan*, *ekkin*, *kichikkina* kabi;

b) *q* undoshi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda bu qo‘shimchalarning bosh tovushi *q* aytildi va shunday yoziladi: *chopiqqa*, *qishloqqacha*, *yoqqach*, *chiqquncha*, *chiniqqani*, *qo‘rqudek*, *achchiqqina* kabi;

d) qolgan barcha hollarda, so‘z qanday tovush bilan tugashidan va bu qo‘shimchalarning bosh tovushi *k* yoki *q* aytilishidan qat‘iy nazar, g yoziladi: *bargga*, *pedagogga*, *bug‘ga*, *sog‘ga*, *og‘gan*, *sig‘guncha* kabi.

47. Ikkinci qismi turdosh ot bilan yoki *obod* so‘zi bilan ifodalangan joy nomlari qo‘shib yoziladi: *Yangiyo‘l*, *To‘rtko‘l*, *Mirzaobod*, *Xalqobod* kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot bo‘lgan joy nomlari ajratib yoziladi: *O‘rta Osiyo*, *Ko‘hna Urganch*, *O‘rta Chirchiq* kabi.

48. Rus tilidan aynan o‘zlashtirilgan yoki so‘zma-so‘z tarjima qilish yo‘li bilan hosil qilingan qo‘shma so‘zlar qo‘shib yoziladi: *kinoteatr*, *radiostansiya*, *fotoapparat*, *elektrotexnika*, *teleko‘rsatuv*, *yarimavtomat*, *bayramoldi*, *suyosti* kabi.

49. Qisqartmalarining barcha turlari va ularga qo‘shiladigan qo‘shimchalar qo‘shib yoziladi: *SamDU*, *ToshDUning* kabi. Lekin yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: *O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi* kabi.

56. Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, -nchi qo‘shimchasi o‘rniga chiziqcha (-) qo‘yiladi: *7-sinf*, *5-“A” sinfi*, *3-, 7-, 8-sinf o‘quvchilari*, *60-yillar, 1991-yilning 1-sentabri* kabi. Tartib sonni ko‘rsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: *XX asr, X sinf* kabi.

70. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni*, *Xotira kuni*, *Ramazon hayiti*, *Navro‘z bayrami* kabi.

71. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so‘z bosh harf bilan boshlanadi: *O‘zbekiston Respublikasi*, *Rossiya Federatsiyasi*, *Misr Arab Respublikasi*, *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti*, *O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi*, *O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi*, *Birlashgan Millatlar Tashkiloti*, *Jahon Tinchlik Kengashi* kabi.

Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: *Bosh vazirning o'rinnbosari, Murofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi* kabi.

Vazirliliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Sog'liqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti* kabi.

72. Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so'zbosh harf bilan boshlanadi: "*O'zbekiston Qahramoni*" (*unvon*), "*Oltin Yulduz*" (*medal*). Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: "*Sog'lom avlod uchun*" (*orden*), "*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi*" (*faxriy unvon*), "*Matbaa a'lochisi*" (*nishon*) kabi.

78. Bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi (*sh, ch, ng*) birgalikda ko'chiriladi: *pe-shayvon, pe-shona, mai-shat, pi-choq, bi-chiq-chi, si-ngil, de-ngiz* kabi.

79. Bosh harflardan yoki bo'g'inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko'p xonali raqamlar satrdan satrga bo'lib ko'chirilmaydi: *AQSH, BMT, ToshDU, 16, 245, 1994, XIX* kabi.

80. Harfdan iborat shartli belgi o'zi tegishli raqamdan ajratib ko'chirilmaydi: *S-“A” sinf, V “B” guruhi, 110 gr, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm* kabi.

81. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko'chirilmaydi: "*Navro'z – 92*" (*festival*), "*O'qituvchi – 91*" (*ko'rik tanlov*), "*Andijon – 9*", "*Termiz – 16*" (*g'o'za navlari*), "*Boing – 767*" (*samolyot*), "*Foton – 774*" (*televizor*) kabi.

82. *A.J.Jabborov, A.D.Abdulyaliev* kabilarda ismnинг va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko'chirilmaydi. Shuningdek, v.b. (va boshqalar), sh.k. (*shu kabilar*) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so'zdan ajratib ko'chirilmaydi (7, 7-23- b.).

Eslab qoling!

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, Davlat dasturi, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining buyrug'i asosida o'quv jarayoniga tatbiq etib kelinayotgan mazkur kurs "Davlat tili haqida"gi qonunning quyidagi moddalariga tayanadi:

7-modda. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlaydi, shu jumladan unga hamma e'tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta'minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo'mitasining roziligi bilan o'zbek tiliga joriy etiladi.

9-modda. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta'minlanadi.

10-modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishllovchilarning ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin (1, 16-22-b.).

TOPSHIRIQ. Venn diagrammasidan foydalaniib, oldingi va hozirgi imlo qoidalarini taqqoslang va tahlil qiling.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. "Davlat tili to'g'risida"gi Qonuni va uning amaldagi tadbipi haqida to'xtalib o'ting.
2. "O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari"ning ayrim bandlari haqida to'xtalib o'ting.
- 3.O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari haqida to'xtaling.

4-MAVZU: FONETIK ME'YORLAR

Mashg'ulot rejasi:

1. Fonetik yozuv tamoyili
2. Og'zaki va yozma nutqdagi fonetik o'zgarishlar
3. Bo'g'in va urg'u

Tayanch so'z va iboralar: fonetika, assimilatsiya, dissimilatsiya, metateza, tovush tushishi, tovush ortishi, tovush almashishi, ochiq bo'g'in, yopiq bo'g'in, logik urg'u, sintagma.

Fonetika so‘zi yunoncha *phone* – «tovush» so‘zidan olingan.

So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi ana shunday axborot uzatish va axborotni qabul qilish faoliyati **nutqiy faoliyat** sanaladi.

Hali voqelanmagan imkoniyat tarzidagi, ma’lum jamiyat a’zolari uchun barobar xizmat qiluvchi ijtimoiy-ruhiy aloqa vositasi — **til**, shu tilning muayyan shaxs nutqiy faoliyatida bevosita namoyon bo‘lishi, voqelanishi — **nutqdir**.

Tilning fonologik (fonetik) sathining birligi **fonema** bo‘lsa, fonemaning real talaffuz qilingan, qulog bilan eshitilgan ko‘rinishi **fon** (*allofon*) yoki **tovush** hisoblanadi. Nutq jarayonida real talaffuz qilingan, qulog‘imiz bilan eshitgan eng kichik va boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan nutq parchasi **tovush** sanaladi.

Bevosita kuzatishda bir nechta tovushlar orqali talaffuz qilinuvchi so‘z va uning ma’noli birliklarini shakkantirish va farqlash vazifasini bajarishga xoslangan, ketma-ketlik jihatdan boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan eng kichik til birligi **fonemadir**. Masalan, *tosh-tom* so‘zlarini *sh* va *m* farqlaydi. Demak, *sh* va *m* alohida-alohida fonemalardir.

Fonetik o‘zgarishlar, tovush o‘zgarishlari, fonetik jarayonlar — nutq jarayonida so‘zning fonetik tuzilishida, tarkibida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar. Nutq jarayonida, talaffuzda tovushlar boshqacha aytigli, tushib qolishi, ba‘zan esa tovush orttirilishi, bir tovushning ikkinchisi tomonidan moslashtirilishi mumkin. Bunday Fonetik o‘zgarishlar tovushlarning kombinatorpozitsion (lot. combinare — qo‘shmoq, birlashtirmok va positio — holat, joylashish) o‘zgarishlari deyiladi. Kombinator o‘zgarishlar yonmayon tovushlarning o‘zaro ta’sirlashuvi natijasida yuzaga keladi va ularga quyidagilar kiradi: akkomodatsiya (lot. accommodatio — moslashish) — yonma-yon turuvchi 2 tovush (unli va undosh tovush) artikulyatsiyasining qisman moslashishi, muvofiq kelishi. Mas, til oldi unilari (a, e, i) til orqa undoshlari (q, g’, x)ning talaffuz etilishiga muvofiklashib, orqaga silijiysi; assimilyatsiya (k,,), dissimilyatsiya (qarang), metateza (qarang), diereza (yun. diairesis — ajralish, bo‘linish) — muayyan talaffuz sharoti tufayli so‘z tarkibidagi tovushning tushib qolishi: pastqam-pasqam kabi. So‘z o‘zagidagi yoki unga qo‘shilgan qo‘sheimchalar tarkibidagi ayrim tovushlarning ma’lum fonetik qurshov yoki pozitsiya ta’sirida talaffuz etilmasligi natijasida sodir bo‘ladigan fonetik o‘zgarishlarga quyidagilar kiradi: prokop a (yunoncha: rgokore) — so‘z boshida unli yoki undosh tovushning tushib kolishi: yiroq-iroq, yilon- ilon kabi; sinkopa (yun. synkope — qisqartirish) — so‘z o‘rtasidagi tovushning tushib kolishi: o‘g’il - o‘g’lim kabi; apokopa (yun. arokore — tugallanmani qisqartirish) — so‘z oxiridagi unli yoki undoshning yoxud qo‘shma so‘zdagi 2qismning tushib kolishi: baland - balan, do‘st - do‘s; gramm - kilogramm - kilo, metropoliten - metro kabi. Tovush yoki tarkibiyy qismning

tushib krlishiga olib keladigan sabablar qatoriga fonatsion energiyani tejash, ixchamlikka erishish kabi omillar ham kiradi. Bunda quyidagi F.o^o. kuzatiladi: eliziya (lot. elisio — siqish, siqib chiqarish) — unli bilan tugovchi va unli bilan boshlanuvchi 2 so‘zning qo‘shilishi natijasida unli tovushdan birining tushib qolishi. Mac, yoza oladi - yozoladi, ayta oladi - aytoladi; sandhi (sanskritcha sandhi — aloqa, bog‘lanish) — analitik shakllarning ixchamlashuvi natijasida sodir bo‘ladigan fonetik o‘zgarishlarga ishlar edi - ishlardi; aferezis (yun. aphaeresis) — oldingi so‘zning oxirgi tovushi ta’sirida keyingi so‘z boshidagi tovushning tushishi: ne uchun - nechun kabi; gaplogiya, mas, tragikokomediya - tragikomediya; sinerezis (yun. syneresis) — so‘z o‘rtasida bir joyda kelgan ikki unlining biri kucheizlanib, nutkda tushib qolishi: saodat - so: dat, maorif - mo: rif kabi va boshqa O‘zbek tiliga chet tillardan kirib kelgan o‘zlashma so‘zlarni turkiy so‘zlarning an‘anaviy fonetik tarkibiga moslashtirilishida ham bir qator Fonetik o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bular: proteza (qarang), epenteza [yun. epenthesis — (tovush) orttirish, qo‘shish] — so‘z tarkibida aslida bo‘lmagan tovush, harf, bo‘g‘inning paydo bo‘lishi; fikr - fikir, hukm — hukum; brigadir - birgadir, traktor - tiraktir; epiteza (yun. epithesis) — so‘z oxirida muayyan fonetik yoki morfologik ta’sir ostida shu so‘zda aslida bo‘lmagan tovushning ortishi: tank - tanka, kiosk - kioska kabi. Reduksiya (qarang) ham nutqda muayyan fonemaning kuchsiz talaffuz etilishi yoki tushib qolishi bilan bog‘liq Fonetik o‘zgarishlardan biridir.

Og‘zaki nutq oqimi bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lgan tovushlar ketma-ketligidan iborat. **Bunday bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lgan tovushlar qatori segment birliklar qatori hisoblanadi.** Lekin og‘zaki nutqimiz faqat segment birliklardangina tashkil topmaydi. Bulardan tashqari, ketma-ket joylashgan va bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lgan tovushlar qatori ustiga qo‘yilgan ustsegment birliklarga ham ega bo‘ladi va bu birliklar nutqimiz ta’sirchanligini ta’minlaydi.

Ustsegment birliklar urg‘u, to‘xtam (pauza), nutqning emotsiyal bo‘yogi (darak, so‘roq, buyruq, his-hayajon) kabilarni o‘z ichiga oladi. Yuqorida ko‘rsatilgan ustsegment birliklarning jami nutq ohangini tashkil etadi. Og‘zaki nutqimiz esa segment birliklar bilan ustsegment birliklarning o‘zaro munosabatidan iborat bo‘ladi. Ko‘pincha bunga imo-ishoralar, mimikalar qo‘shilib, nutqimizni yana ham ta’sirli, bo‘yoqdir qilishga xizmat qiladi.

So‘zdagi bo‘g‘inlarning, gapdagi so‘zlarning boshqalardan kuchliroq talaffuz qilinishiga urg‘u deyiladi/ Urg‘u yordamida nutq ko‘rkamleshadi, eshituvchiga yoqimli bo‘ladi, uni zeriktirmaydi. Turkiy, jumladan, o‘zbek tilida urg‘u o‘rniga ko‘ra ko‘chib yuruvchi urg‘u sanaladi. Masalan: o‘rik, o‘rikzor — o‘rikzorlar —

o'rikzorlarga. o'zbek tilida urg'u, asosan, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi va so'zni gap tarkibida boshqa so'zdan ajratish hamda so'z fonetik tarkibini uyushtirish vazifasini bajaradi. O'zbek tiliga arab, fors-tojik, rus va boshqa yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlarda urg'u barqaror o'ringa ega. Bu urg'uning o'sha tillardagi ahamiyati bilan bog'liqidir. Masalan: *tadbir, monitoring, reklama, tijorat, ma'lum, bahor* va h.k.

Urg'u ma'no farqlash uchun ham xizmat qiladi. bog'lar — bog'lar Urg'u ikkiga bo'linadi: 1. So'z urg'usi. 2. Ma'no (frazaviy) urg'usi.

So'z urg'usi so'zdagi bo'g'lnlardan biriga tushadi. *Akademik litsey, akademik shoir*.

Ma'no urg'usi gapdagi ma'lum bir so'zning boshqalariga nisbatan ta'kidlab, ajratib aytilishini ta'minlaydi. Masalan: *Samarqandda (boshqa biron-bir shaharda emas) afsonaviy obidalar ko'p*.

Bir havo zarbi bilan aytilgan tovush yoki tovushlar yig'indisiga bo'g'in deyiladi. O'zbek tilidagi so'zlar *kel, bur, sur* kabi bir bo'g'inli, *osmon, qadrdon, iqbol* so'zlaridek ikki bo'g'inli, *kelajak, xayolot, muhabbat* singari uch bo'g'inli, *votoqxona, gumburlamoq, xoinona* kabi to'rt bo'g'inli, *radiokarnay, gultojixo'roz, abadiylashtirmoq, qurolsizlantrish*, aytolmaganliklaringizdandir-da kabi besh va undan ortiq bo'g'inli bo'ladı.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Fonetik yozuv tamoyilli haqida to'xtalib o'ting
2. Fonetika, assimilatsiya, dissimilatsiya, metateza, tovush tushishi, tovush ortishi, tovush almashishi, ochiq bo'g'in kabi tayanch iboralarga to'xtalib o'ting.
3. Fonetik o'zgarishlarga ta'rib bering.

5-BOB: LEKSIK ME'YORLAR

Mashg'ulot rejasি:

1. Leksema va so'z
2. Omomimlar, sinonimlar
3. Paronimlar, antonimlar
4. Polisemija

Tayanch so'z va iboralar: omomimlar, sinonimlar, paronimlar, antonimlar, monosemiya, leksema, so'z, sema, semema

Leksika atamasi ikki ma'noda qo'llaniladi:

a) tilning lug'at tarkibi, so'zlar yig'indisi;

b) lug'at tarkibini o'r ganuvchi tilshunoslikning alohida bo'limi.

Leksika atamasining ikkinchi ma'nosi uchun leksikologiya atamasi ham qo'llaniladi.

Leksikologiya yunoncha *lexikos* — so'z, so'zga doir va *logos* — ta'limot so'zlarining birikuvidan olingan bo'lib, leksika (so'z) haqidagi ta'limot demakdir. Demak, so'z va uning ma'nolarini o'r ganuvchi tilshunoslik bo'limiga leksikologiya (ba'zan leksika) deyiladi.

So'zning ikki tomoni: moddiy tomoni (tovush yoki harflar ketma-ketligi) va ma'no tomoni mayjud. **Ma'lum ma'no bilan bog'langan va morfologik shakllangan tovush yoki tovushlar birikmasi so'z sanaladi.**

So'z ikki xil ma'no bildiradi. Bu ikki xil ma'noni *opa* so'zi misolida ko'rib chiqaylik. *Opas* so'zi *aka*, *uka*, *singil* singari so'zlar bilan qarindoshlik ma'nosi bilan bir guruhg'a birlashadi. Ayni paytda, bir guruhg'a mansub bo'lgan yuqoridagi so'zlar bir-biriga ziddanganda, ma'lum ma'nolari bilan o'zaro farqlanadi.

Opas so'zining boshqa qarindoshlik bildiruvchi so'zlar bilan birlashtirib turadigan va ayni paytda, ularni bir-biridan farqlaydigan ma'nolarining jami uning atash ma'nosi yoki leksik ma'nosi deyiladi. *Opas* so'zi yuqoridagi ma'nodan tashqari predmetlik, bosh kelishik, birlik ma'nolariga ham ega. Bu ma'nolar uning grammatic ma'nosi sanaladi.

Odatda, leksik va grammatic ma'nolarning muayyan tovush yoki tovushlar birikmasi bilan barqaror munosabatidan tashkil topgan butunlikka nisbatan so'z atamasi qo'llaniladi. Grammatic ma'nosiz, faqat leksik ma'no bildiruvchi til birligi uchun **leksema** atamasi qo'llaniladi. Bunday vaqtida so'z morfologiya birligi sifatida, **leksema esa leksikologiya birligi sifatida bir-biridan farqlanadi.**

Demak, tahlil jarayonida gap tarkibidan so'zlarni ajratamiz. So'zlar esa leksema va grammatic qo'shimchalarga bo'linadi. **Tilning lug'aviy (leksik) ma'no bildiruvchi birligi leksema sanaladi.** Lug'atlarda bosh so'z sifatida leksemalar beriladi.

Boshqacha — *o'zgacha* — *ajib* — *ajoyib* — *g'alati* — *g'aroyib* — *alomat* — *antiqa*.

Tuzuk — *durust* — *bir navi* — *yaxshi* — *zo'r* — *a'lo* — *gap yo'q* — *mixdek*.

Nutq jarayonida ikki va undan ortiq ma'noda qo'llaniluvchi so'zlarga ko'p ma'noli so'zlar yoki polisemiya deyiladi. Polisemiya yunoncha *poli* — ko'p, *semia* — ma'no so'zlaridan olingen bo'lib, ko'p ma'noli demakdir. Polisemiya monosemiya (yunoncha *mono* — bir, *semia* — ma'no)ga zidlanadi. Ko'p ma'noli so'zlarda ma'no qanchalik ko'p bo'lsa ham, lekin u bir so'z hisoblanaveradi. Shuning uchun ham ko'p ma'noli so'zlarda ma'noldan biri to'g'ri ma'no (yoki o'z ma'no), qolganlari esa ko'chma ma'no bo'ladi. Ko'chma ma'nolar nutq tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'langanda namoyon bo'ladi, nutq tarkibidan ajratilganda esa to'g'ri ma'nosini asosiy ma'no bo'lib qoladi. Masalan, *tosh* so'zi nutq qurshovidan ajratib olinsa, «qattiq jism» ma'nosini anglatadi.

Bir ma'noli so'zlar tilimizda kam sonni tashkil qiladi va ilmiy, kasb-hunarga doir atamalarni, shuningdek, yangi paydo bo'lgan so'zlarini o'z ichiga oladi. Yangi so'zlar (neologizmlar) ham davrlar o'tishi bilan qo'shimcha ma'nolarni anglatadi.

Ko'p ma'noli so'zlarning ma'nosini bilish va undan nutq jarayonida o'rinali foydalaniш nutqning ta'sirchan, ifodali bo'lishiiga yordam beradi.

Tilimizda bir ma'noni bir necha so'zlar yoki affikslar yordamida ifodalash mumkin. Masalan, inson bosh qismining old tomoni *oraz*, *uzor*, *ruxsor*, *chehra*, *yuz*, *bet*, *aft*, *bashara*, *nusxa*, *turq* singari so'zlar orqali ifodalananadi. Shuningdek, tilimizda *tilchi* — *tilshunos*, *dardchil* — *dardkash*, *o'rinsiz* — *beo'rin*, *hafsalal* — *hafsalali* kabi qo'shimchalar yordamida bir ma'noni ikki xil shaklda yuzaga chiqarish imkoniyati ham uchrab turadi. Bir umumiy ma'noni ifodalovchi so'z yoki qo'shimchalarga sinonimlar deyiladi. O'zaro sinonimik munosabatda bo'lgan so'z va qo'shimchalarga sinonimlar uyasi yoki sinonimlar qatori deyiladi. So'z maqomidagi sinonimlar lug'aviy (leksik) sinonimlar, qo'shimcha maqomidagi sinonimlar esa affiks sinonimlar sanaladi. Lug'aviy sinonimlar garchand bir umumiy ma'noni bildirsa ham, lekin ularning ma'no darajasi, ijobiy yoki salbiy bahoga egaligi, ma'lum uslubga xoslanishi bilan bir-biridan farqlanadi. Nutqiy jarayonda so'zlovchi maqsadiga muvofiq ravishda sinonimlar qatoridagi so'zlardan birini tanlaydi. Masalan, yuqorida keltirilgan sinonimlar qatorida *yuz* so'zidan chap tomonidagi to'rtta so'zda (*oraz*, *uzor*, *ruxsor*, *chehra*) ijobiy baho va uchtasida (*oraz*, *uzor*, *ruxsor*) badiiy uslubga xoslanish belgisi bo'lsa, o'ng tomonidan beshta so'zda (*bet*, *aft*, *bashara*, *nusxa*, *turq*) salbiy baho munosabati mavjud va bu salbiy baho ularda darajalanib, kuchayib boradi (*betga* nisbatan *afta* salbiy baho kuchliroq, turqda esa hammasidan kuchliroqdir. Demak, bu beshta so'zda salbiy baho kuchayib boradi). Ilar qanday uslubiy xoslanish va so'zlovchining bahosidan xoli bo'lgan sinonimlar

qatori a'zosi **dominanta** (uslubiy xoslanish va baho bildirishga ko'ra neytral) sanaladi. Demak, yuqoridagi sinonimlar qatorida **yuz** dominanta sanaladi

O'zaro zid ma'noli so'z va qo'shimchalarga antonimlar deyiladi. So'z maqomidagi antonimlar lug'aviy (leksik) antonimlar, qo'shimcha maqomidagi antonimlar esa affiks antonimlar sanaladi. Nutqimizda lug'aviy (leksik) antonimlardan foydalanish fikrimizni ta'sirli ifodalashda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, badiiy adabiyotda zid ma'noli so'zlarni bir-biriga zidlash asosida badiiy san'at hosil qilinadi. Bunday san'atga tazod san'ati deyiladi.

Ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi.

Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kirishlik.
2. Ma'no butunligi.

3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi. Barqaror birikmalardan o'rini foydalanish nutq go'zalligini ta'minlaydi, shuning uchun ular nutqimiz ko'rki hisoblanadi.

Barqaror birikmalarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi paremiologiya (lot. *parema* — barqaror, *logos* — ta'limot), barqaror birikmalar lug'atini tuzish muammolarini o'rganuvchi bo'lim esa paremiografiya (lot. *parema* — barqaror, *grosfo* — yozmoq) sanaladi.

Yerga ursa ko'kka sachraydi, yaxshi ko'rmoq, me'dasiga tegmoq, yuragi toza, tepe sochi tikka bo'lmoq, ko'nglida kiri yo'q, og'ziga tolqon solmoq, podadan oldin chang chiqarmoq, oq ko'ngil, ko'nglini yozdi, o'takasi yorildi, tishini tishiga qo'ymoq, ipidan ignasigacha, og'zining tanobi qochadigan.

Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga ko'ra umumiylikni tashkil etsa ham, ma'no butunligi nuqtayi nazaridan turlichadir. Shunga ko'ra barqaror birikmalar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Frazeologizmlar.
2. Maqol va matallar.
3. Aforizmlar.

Barqaror birikmalarning bir guruhi tarkibidagi so'zlar ma'no jihatdan uyg'unlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi va ko'pincha mazmunan bir leksemaga teng keladi va ko'chma ma'noda ishlatalidi. Masalan, *qulog'i ding bo'lmoq* — *hushyor bo'lmoq*, *qovog'i osilmoq* — *xafa bo'lmoq*, *og'zining tanobi*

qochdi — quvonmoq kabi. Ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalarga frazeologizmlar deyiladi. Frazeologizmlar gap tarkibida uning bir bo'lagi vazifasida keladi. Frazeologizmni tashkil etgan so'zlar frazeologizmning faqat ichki uzvlari sanaladi. Gapning boshqa bo'laklari bilan yaxlit, bir butun holda munosabatga kirishadi. Masalan, *Rais daladagi hosilni ko'rib boshi osmonga yetdi*. Bu gapda *boshi osmonga yetdi* qismi butun holda kesim vazifasida keladi.

Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar maqollar sanaladi. Masalan, *Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi. Bolta tushguncha, to'nda dam oladi*. Maqollar xalqning hayotiy tajribasi, donishmandligi natijasida maydonga keladi. Ular nutq jarayoniga qadar tilda tayyor holda barqaror birikma sifatida mavjud bo'ladi. So'zlovchi bunday birikmalarini yaxlit holda nutqiga olib kiradi. Maqollar fikrni ta'sirchan, bo'yodor qilib ifodalovchi qudratli vositadir. Nutqda maqollardan o'rinni foydalanish so'zlovchining mahorati sanaladi.

Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, *to'g'ri ma'noda qo'llaniladigan*, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar mattallar hisoblanadi. Masalan, *Yaxshidan bog' qoladi, yomondan dog'*. Qimiragan qir oshar. Mattallar ham xuddi maqollar singari xalqning hayotini uzoq davrlar mobaynida kuzatish orqali hosil qilgan hayotiy tajribasining ixcham shaklda ifoda topishidir. Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalqning turmush tajribasiga tayanib ma'lum bit shaxs tomonidan yaratilgan qisqa, obrazli barqaror birikmalarga hikmatli so'zlar (aforizmlar) deyiladi. Masalan, *Odami ersang demagil odami*,

Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami. (*A. Navoiy*)

Hikmatli so'zlar (aforizmlar) barqarorlik, mazmuniy yaxlitlik, takroriylik (ya'ni nutqda doimo bir xil tuzilishda quyma holda takrorlanish) belgilariga ko'ra boshqa barqaror birliklar bilan umumiylilik kasb etsa ham, aniq muallifining borligi bilan ulardan farq qiladi. Hikmatli so'zlarni o'rganib, xotirada saqlab, nutqda o'rinni qo'llay bilish kishining so'z san'atkori, donishmand bo'lishini ta'minlaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Leksika atamasi haqida to'xtalib o'ting
2. Polisemiya termini haqida to'xtalib o'ting.
3. Ko'p ma'noli so'zlar va bir ma'noli so'zlar haqida to'xtalib o'ting.

6-BOB: GRAMMATIK ME'YORLAR

Mashg'ulot rejasি:

1. So'z turkumlari
2. Gap bo'laklari
3. So'z birikmasi
4. Gap bo'laklarida tartib

Tayanch so'z va iboralar: mustaqil so'z turkumlari, yordamchi so'zlar, gap bo'laklari.

Grammatika (grek. grammaтика «harf o'qish va yozish san'ati», «harfs») atamasi tilning morfologik va sintaktik qurilishi va bu qurilishni o'r ganadigan tilshunoslikning bo'limi ma'nolarida qo'llaniladi. Demak, grammatika tilshunoslikning morfologiya va sintaksis bo'limlarini o'z ichiga oladi.

Morfologiya (grek. morhlos «shakл», logos «ta'limot» so'zlaridan olingan bo'lib) so'z shakllari haqidagi ta'limotdir.

Leksik so'zning atash ma'nolari leksikologiyada o'r ganiladi. Shu bilan bиргаликда qalam so'zi *daftар*, *kitob* so'zлари singari nima? so'rog'iga javob bo'lib, predmetlik, bosh kelishiklik, birlik ma'nolariga ham ega. Bu esa qalam so'zining ikkinchi ma'nosi — grammatic ma'nosi sanaladi. Ana shu grammatic ma'nolar va ularni ifodalovchi vositalar morfologiya bo'limida o'r ganiladi. **Shunday qilib, morfologiya so'z turkumlari va ularning grammatic shakllari bo'yicha bahs yuritadi.**

Ko'rindiki, so'zning leksik ma'nosi bilan ularning predmetlik, belgi, harakat singari ma'nolarini ifodalovchi umumiy grammatic ma'nolari o'r tasida uziyi aloqa mavjuddir. So'zlarni turkumlarga ajratishda so'z learning leksik ma'nosi ustiga qo'yilgan umumiy grammatic (predmet, belgi — xususiyat, harakat-holat kabi) ma'no asosiy tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan bиргаликда, morfologiya bilan sintaksis o'r tasida ham chambarchas bog'liqlik mavjud. Morfologiyadagi har bir so'z shakli gap tarkibida ma'lum sintaktik vazifa bajaradi, ma'lum gap bo'lagi vazifasida keladi. Grammatic shakllar gap tarkibidagi bo'laklarni bir-biriga bog'lovchi yoki gap bo'lagiga qo'shimcha ma'no yuklovchi vosita vazifasini bajaradi.

Gap odatda bir so'zdan yoki bir necha so'z learning o'zaro grammatic va mazmuniy bog'lanishidan ham tashkil topishi mumkin. Masalan, *Kuz-Bog'larda*

mevalar qiyg'os pishgan. Yuqoridagi gaplarning birinchisi faqat bir so'zdan tashkil topgan bo'lsa, ikkinchisi to'rtta so'zning o'zaro grammatik va mazmuniy bog'lanishi natijasida hosil bo'lgan. Gap ikki va undan ortiq so'zlardan iborat bo'lganda, bu so'zlar o'zaro grammatik va mazmun tomondan bog'lanadi.

Ikki va undan ortiq mustaqil so'z grammatik va ma'no jihatdan birikib, so'z **birikmasini** hosil qildi. So'z birikmasi **hokim** so'z va **tobe** so'zdan tuziladi. Tobe so'z hokim so'zni aniqlab, to'ldirib, izohlab keladi. Turli turkum so'zлari hokim so'z vazifasida kela oladi.

So'z birikmasi hokim so'zning qaysi turkumga oid so'z bilan ifodalanishiga qarab, ikki guruhga bo'linadi: **otli** so'z **birikmasi**, **fe'lli** so'z **birikmasi**.

Otli so'z birikmasida hokim so'z ot va otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi: *shaharning ko'chalari, hammasidan katta, chumchuqning chug'ur-chug'uri, o'quvchilarining beshtasi, beqiyos o'lka, katta qishloq*.

Fe'lli so'z birikmasida hokim so'z fe'l bilan ifodalanadi: *kitobni o'qimoq, daftarga yozmoq, tez yugurmoq, ohista gapirmoq, ta'sirli so'zlatnoq, zavq bilan o'qimoq*.

O'zbek tilida so'z birikmalarining tobe so'zi, asosan, hokim so'zdan oldin keladi.

Ma'lum bir so'roqqa javob bo'lib, atash va umumiy grammatik ma'noga (masalan, predmet, belgi, miqdor, harakat-holat kabi) ega bo'lgan so'zlar mustaqil so'zlar sanaladi. Masalan, *gul (nima?), chol (kim?), chiroyli (qanday?), yuztacha (nechta?), keldi (nima qildi?)* kabi. Ma'lum so'roqqa javob bermaydigan, atash ma'nosiga ega bo'lмаган, faqat grammatik ma'no ifodalovchi, lekin o'zidan oldin kelgan so'zga grammatik shakl sifatida qo'shilib, u bilan bir lug'aviy urg'u ostida birlashmaydigan so'zlarga yordamchi so'zlar deyiladi. Masalan, *ammo, ham, faqat, -chi (ayt-chi), -mi (siz-mi?)* kabi.

Bulardan tashqari, mustaqil so'zlarga ham, yordamchi so'zlarga ham kirmaydigan, ularning har ikkisiga xos belgini o'zida ma'lum darajada aks ettiradigan oraliqdagi so'zlar bor. Bunday so'zlar undov so'zlar, modal so'zlar, taqlid so'zlarni o'z ichiga oladi. So'zlarning umumiy gra mmatik ma'nolariga ko'ra ana shunday guruhlarga bo'linishi so'z turkumlari sanaladi.

Shunday qilib, so'zlar, eng avvalo, uch guruhga bo'linadi: 1) mustaqil so'zlar; 2) yordamchi so'zlar; 3) oraliqdagi so'zlar (undov, modal, taqlid so'zlar). Mustaqil va yordamchi so'zlar ham o'z ichida bir necha turlarga bo'linadi: Mustaqil so'zlar: ot,

sifat, son, fe'l, ravish, olmosh; yordamchi so'zlar: ko'makchi, yuklama, bog'lovchi kabi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Leksika atamasi haqida to'xtalib o'ting
2. Polisemiya termini haqida to'xtalib o'ting.
3. Ko'p ma'noli so'zlar va bir ma'noli so'zlar haqida to'xtalib o'ting.

7-BOB: NUTQ USLUBLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Mashg'ulot rejasি:

1. So'zlashuv uslubi
2. Adabiy so'zlashuv uslubi
3. Oddiy so'zlashuv uslubi
4. Publitistik uslub
5. Badiiy uslub

Tayanch so'z va iboralar: so'zlashuv uslubi, pauza, mimika, adabiy so'zlashuv, oddiy so'zlashuv, nutq shakli, fonetik o'zgarish, adabiy til normasi, so'z tarkibi, publitistik uslub, badiiy uslub, maqol, hikmatli so'zlar, tasviriy vositalar.

So'zlashuv uslubi hutq uslublari orasida eng qadimiyidir. Bu uslub yozuv paydo bo'lgunga qadar ham mavjud bo'lgan. So'zlashuv quyidagi o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi: Nutqning bu shakli vaziyatga ko'ra hozirjavoblik asosida vujudga kelib, pauza, mimika va ohang yordamida shakllanadi. So'zlashuv uslubi vazifaviligi jihatdan adabiy tilga mos, ya'ni aloqa- aralashuv vazifasini bajaradi. Shu boisdan, so'zlashuv uslubini tilning norasmiy erkin muomila asosidagi ko'rinishi deyish mumkin. Biroq so'zlashuv uslubi to'la ma'noda kundalik turmush hutqi, ya'ni sodda so'zlashuv elementlaridangina iborat emas. Shunga ko'ra, so'zlashuv uslubining ikki turi ajratiladi.

1. Adabiy so'zlashuv.
2. Oddiy so'zlashuv

Adabiy so'zlashuv uslubi adabiy tilning barcha normalariga mos keladi. Adabiy so'zlashuv tili ixcham, qisqa jumlalardan iborat bo'lib, dialektal so'zlardan, shuningdek, boshqa nofaol qatlama xos lug'aviy vositalardan xoli bo'lgan uslubdir. Shuning uchun, adabiy so'zlashuv xuddi adabiy til singari ko'pchilikka tanish va

xalqning muayyan qismi uchun o'zlashtirilishi majburiy bo'lgan uslubdir. Bu uslub turi asosan kundalik aloqa-aratashuvi uchun xizmat qiladi. Shunga ko'ra, uning qo'llanish doirasini ham kengdir. Chunonchi, oliv o'quv yurtlari esa maktablardagi o'qish – o'qitish ishlari, kundalik turmushdagi kamida ikki kishi orasidagi o'zaro munosobatlar shu uslubda olib boriladi. So'zlashuv uslubga xos bo'lgan vositalardan badiiy adabiyotlarda ko'plab foydalanilganidek bu uslub adabiy tilni boyituvchi manbalardan biri hamdir.

Oddiy so'zlashuv uslubi adabiy til normasiga bo'yasinmaydigan, tezkorlik hozirjavoblik, o'ylanmaganlik asosida paydo bo'luchchi norasmiy uslubdir. Uning normalari shakllanmagan, uslub tabiiy erkinlik asosida shakllanib emotsionalikka boy bo'ladi. Chunki, bu uslubda kundalik turmush hutqi bo'lgan jonli so'zlashuvga xos vositalar ko'p bo'lib, ular adabiy til normalariga mos kelmaydi. Shunga kura, so'zlashuv uslubining bu ko'rinishlari ko'pgina qirralari bilan, jumladan, fonetik jihatdan ham bir-biri bilan mos kelmaydi. Chunki, so'zlashuv uslubi talaffuz jihatidan adabiy tilga xos xususiyatlarni ham oddiy so'zlashuvga, shevaga xos xususiyatlarni ham uchratish mumkin. Masalan, *borayapman* so'zi adabiy so'zlashuvda *borayapman* oddiy so'zlashuvda *borappan*, *borvoppan*, *borutta* kabi shakkarda ham talaffuz qilinadi. Birinchi holatdagi talaffuz adabiy talaffuz normalariga mos keladi. So'zlashuv uslubining bu turi notiqlar, aktyorlar, suxandonlar, olimlar, o'qituvchilar nutqi uchun xos bo'lgan adabiy so'zlashuvdir. Bu uslubda til normalariga rioya qilinib, so'zlar tanlangan, saralangan holda ishlataladi va to'g'ri talaffuz qilinadi.

Ikkinci holatdagi talaffuz turli joylardagi og'zaki hutqqa xos talaffuzdir. U adabiy tildagi shakliga nisbatan ayrim fonetik o'zgarishlarga uchragan holda talaffuz qilingan. Oddiy so'zlashuvda so'zlearning quyidagicha fonetik o'zgarishlarda uchragan holda qo'llanishlarini kuzatish mumkin.

1. So'z tarkibidagi tovushlarning o'mni almashtirilgan holda talaffuz qilinadi. Masalan, *yog'mir* (yomg'ir), *supra* (surpa) kabilar.

2. So'z tarkibidagi ayrim tovushlar tushirib qoldirilgan holda talaffuz qilinadi. Masalan, *usha* (*ushla*), *to'r* (*to'rt*), *so'rma* (*so'rama*), *tashama* (*tashlama*), kabi.

3. Tovushlar orttirilgan holda talaffuz qilinadi. Masalan, *chechmoq* (*yechmoq*).

4. So'zlar qisqartirilgan holda talaffuz qilinadi. Qopti (*qolibti*), kepti (*kelibti*), opkel (*olib kel*), opti (*olibti*) kabilar.

Oddiy so'zlashuvlarga xos bu xildagi talaffuzlar dialekt va shevalaming ta'siri matijasida bo'lib, adabiy normalarga mos kelmaydigan holatlardir.

So'zlashuv uslubining lug'aviy va grammatik xususiyatlari.

So'zlashuv uslubida ham boshqa uslublarda bo'lgani kabi umumiste'mol so'zlar asosiy lug'aviy qatlamni tashkil etadi. Chunki, umumiste'-mol so'zlarining katta qismi kundalik turmushni aks ettiruvchi so'zlardir. Bunday so'zlar barcha uslub

turlarida keng qo'llaniladigan, uslubiy bo'limgan neytral so'zlardir; ota, ona, aka, uka, singil, non, suv, tuz, osh, tosh, oy, quyosh, yulduz, qish, yoz, bahor, yamoq, ichmoq, uxlamoq, turmoq, oq, qizil, yaxshi, yomon, qora, tez, lekin, erta, kech, kunduz, men, sen, u va boshqalar nutq uslublarini birlashtirib turuvchi umumiste'mol so'zlaridir. Shu bilan birgalikda, so'zlashuv uslubida vaziyat talabi bilan bog'liq ravishda ilmiy atamalar ham, kasb-hunarga oid so'zlar ham, adabiyot san'at, madaniyat va musiqaga oid so'zlar ham, sodda so'zlashuv bo'yog'i bilan farqlanuvchi erkalash, qarg'ashni ifodolovchi so'zlar ham, obrazli, emotsiyonal buyoqdar so'zlar ham qo'llaniladi. So'zlashuv uslubini lug'aviy jihatdan xarakterlovchi vositalar so'zlashuv bo'yog'iga ega bo'lgan dag'al, qo'pol so'zlardir. Bunday so'zlar asosan jonli so'zlashuv hutqiga xos bo'lib, turli emotsiyonal bo'yoqlarga ham ega. Masalan, mahmadana (sergap), barzangi (gavdali) ochofat, (yeb to'ymaydigan), ofatijon (go'zal), daroz (uzun) kabilar so'zlashuv uslubini tayanch uslubiy ijobiy va salbiy emotsiyonal so'zlarga boyligidadir. Bu holat so'zlashuv uslubining tub mohiyatidan kelib chiqqan. Bu holat so'zlashuv uslubi turli fikr va mulohazalarni tinglovchilarga ta'sirli tarzda yetkazish vazifasini o'z oldiga qo'yadi. Bunda tildagi turli emotsiyonal bo'yodkor so'zlardan keng foydalilaniladi.

So'zlashuv uslubi morfologik jihatdan ham muayyan xususiyatlarga ega. Chunonchi, so'zlashuv uslubi qisqalikka ixchamlukka tayanuvchi uslub bo'lganligi uchun bu uslubda so'zlarni qisqartirib qo'llash holatlari ko'p uchraydi. Ana shunday qisqartirilgan holda qo'llash morfologik vositalarga ham to'g'ri keladi.

Binobarin, so'zlashuv uslubi qaratqich va tushum kelishiklarining qo'shimchalarini ko'pincha tushirib qoldiriladi; kitob varag'i, olma bargi, uy yig'ishtirmoq kabi so'zlashuv uslubida qo'shimchalar yoki so'zlarni qisqartirib qo'llash fe'l turkumida yaqqol ko'rindi. Masalan, emas, ekan, to'liqsiz fe'llari qisqargan shaklda o'zidan oldingi so'zga qo'shilgan holda ishlataladi: borganmas, ko'rganmas, bo'ldimikan, aytdimikan kabi.

Fe'lning sifatdosh shakli -gan qo'shimchasi shakllanadigan so'zlar so'zlashuv uslubida -yotuvdi shaklida aytildi: Masalan, borayotuvdi, o'qiyotuvdi, chopayotuvdi kabi.

Fe'lning adabiy tildagi - (b) edi ravishdosh shakli so'zlashuv uslubida uvdi - ovdi shaklida talaffuz qilinadi. Boruvdi, keluvdi, o'tiruvdi kabi.
So'zlashuv uslubida erkalash, hurmatlash ma'nolarida -jon, -xon, -lok qo'shimchalarini olgan otlar ham qo'llaniladi.

Biroq bunday holatlar so'zlashuv uslubini morfologik jihatdan alohidaligini belgilamaydi. Qo'shimchalar nutqning barcha uslublarida bir xilda qo'shiladigan yagona vositalardir. Ayrim qo'shimchalarining farqli jihatlar asosan so'zlashuv uslubining qisqalikka, ixchamlukka asoslanishining natijasida.

Publitsistik uslub va uning xususiyatlari

Publisistika (lat. «xalq, omma») davrning eng muhim, dolzarb masalalarini o'quvchilarga, tinglovchilarga, tomoshabinlarga gazeta-jurnal, radio, televideniye orqali yetkazish, ommani jondantirish, kishilarning ongiga atrofda sodir bo'layotgan voqealarni singdirish, ularning ijtimoiy qarashlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Ommaviy axborot vositalarida (gazeta-jurnal, radio, televideniye), Oliy Majlis yig'inalarida, turli xil anjumanlarda qo'llaniladigan nutq uslubi publitsistik uslub sanaladi. Publitsistik uslub ikki xil shaklda namoyon bo'ladi: 1) yozma shakl; 2) og'zaki shakl; Ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan bosh maqlolar, felyeton va pamfletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar publitsistik uslubning yozma shakliga mansubdir. Radio va televideniyeda chiqayotgan siyosiy sharhlovchilar, notiqlarning nutqlari esa publitsistik uslubning og'zaki shaklidir.

Publitsistik uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, u muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo'lish, hozirjavoblik, ta'sirchanlik belgilariiga ega.

Bunday nutq uslubida ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ko'proq qo'llaniladi. M., isyon, irqchilik, qo'poruvchilar, siyosiy tanglik, bitim va boshqalar.

Publitsistik uslub - matbuot, radio, teleko'rsatuvga xos bo'lgan tildir. Bu uslub rasmiy va dolzarb xabarlar, axborotlar, e'lonlar, reportaj, bosh maqlalardan iborat bo'ladi. Ularda fikr kichik hajmdagi ommabop jumlalar orqali ifodalanadi.

Zarur o'rinda asoslar keltiriladi. Shuning uchun ham rasmiy xabarlarda «muxbirimizning xabar berishicha, elchixona xodimining so'ziga ko'ra, muxbirimiz voqealarni ro'y bergan joydan xabar beradi...» va hokazo iboralar qo'llanadi. Har bir xabarga ta'sirli, xabarning asosiy mohiyatini ifodalovchi sarlavhalar qo'yiladiki, bu hol o'quvchining diqqatini jalb qiladi. («Qonun barchaga barobarmi?», «Kafolat va'da emas», «Chetlatilgan mutaxassis», «Tuya ko'rningmi – yo'q», «Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin»). Ayrim hollarda vaqtli matbuotda felyeton, kichik hikoyalari, romanidan parchalar ham beriladi. Bu holda ommabop uslub badiiy uslub bilan qo'shilib ketadi. Ommabop uslub kundalik ijtimoiy hayot ko'zgusidir.

Ommabop uslubni shakllantiruvchi vositalar ijtimoiy-siyosiy atama va birikmalar bo'ladi: fuqarolik burchi, iqtisodiy tejamkorlik, siyosiy vaziyat, siyosiy va ijtimoiy kuchlar, iqtisodiy vaziyat, hukumat tangligi va b. Publitsistik uslub ommaviy axborot vositalari uslubidir. Bu uslubning muhim xususiyati axborot berish va ta'sir qilish, soddalik, tushunarilik, ta'sirchanlik, adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilishdir. Publitsistika bir qancha janrlarga ega.

Publitsistik uslub – tashviqot-targ‘ibot ishlari olib boriladigan, asosan ijtimoiy-siyosiy hayot yoritiladigan nutq ko‘rinishidir. Publitsistik uslub o‘zining obrazliligi, hissiy-ta’siri xususiyati bilan badiiy uslubga; yorqinligi, aniqligi va terminologik leksikasi bilan ilmiy uslubga yaqin turadi. Ijtimoiy -siyosiy masalalarning yoritilishi, tahlil uslubi, ijtimoiysiyoziy masalalarni hal etishga undashning faolligi, o‘ziga xos terminlar, asosan siyosiy terminlarning ko‘p qo‘llanilishi singari xususiyatlardan publitsistik va ilmiy uslubning o‘xshash tomonlaridir.

Publitsistik va badiiy uslubning ham o‘xshash tomonlari mavjud. Ikkala uslubda ham obrazli ifodalar, tasviriy vositalardan ko‘proq foydalaniladi. So‘z va terminlar siyosiy ma’nosining badiiy uslub elementlari bilan qorishgan, uyg‘unlashgan holda ifodalanishi publitsistik nutqning salohiyatini yanada ko‘taradi va uning ta’sirchanligini oshiradi. Publitsistik uslubda ijtimoiy-siyosiy terminlar, gazeta va jurnallarga xos maxsus ifodalar, birikmalar, qat’iy qoliplashgan qurilmalarning tez-tez qo‘llanilishi bu uslubning o‘ziga xos xususiyatlardandir: mustaqillik, ichki tahdid, tashqi tahdid, sovuq urush, ochiq ovoz, yopiq ovoz, buyuk xizmatlari uchun, rasmiy vizit bilan, milliy istiqlol mafkurasi, xalq e’tiqodi, buyuk kelajakka ishonch, shaxs bilan davlat munosabatlari, jamiyatimizning faol ishtirokchisi, mafkuraviy bo‘shliq, xavfsizlikka tahdid va h.k.

Publitsistik uslubda hissiiy-ta’siri so‘zlar va birikmalardan, maqol va hikmatli so‘zlardan unumli foydalaniladi. Maqol va hikmatli so‘zlar bu uslubda sarlavha nomi bo‘lib ham keladi hamda mazkur uslubning yanada yorqinroq bo‘lishini ta’minlaydi. Masalan, Yaxshidan bog‘ qoladi. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Mard maydonda sinaladi. Vatan, el manfaati muqaddasdir.

Badiiy uslub va uning xususiyatlari

Badiiy uslub (tilning ta’sir qilish, targ‘ibot, tashviqot vazifasi) - inson hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Bu uslub barchaga barobarligi, o‘quvchiga va tinglovchiga emotSIONAL ta’sir etishi bilan boshqa uslublardan farq qilib turadi. Bu uslubda muallif tilning barcha leksik, grammatic vositalaridan foydalanishi, turli ifodaviy vositalarni qo‘llashi mumkin. Boshqa uslublarning materiallaridan badiiy uslubda bemalol foydalanish mumkin. Shunga ko‘ra, badiiy uslub keng imkoniyatga ega uslub turi hisoblanadi. Badiiy uslub badiiy adapbiyot, ya’ni badiiy asarlarga xos bo‘lib, unda badiiylik, ifodaviylik, ta’sirchanlik kuchlidir.

Badiiy uslubning o‘ziga xos xususiyati shundaki, adapbiy tilning barcha imkoniyatlarini o‘z ichiga olish bilan birga, unda o‘zbek shevalariga, kasb -hunarga doir leksik birliklar, bugungi kunda iste’moldan chiqib ketgan tarixiy so‘zlar ham

personajlar nutqi orqali ishlatala beradi. Badiiy uslub o'quvchida estetik zavq uyg'otadi. Demak, badiiy uslub orqali ro'yobga chiqqan nutq ma'lum voqe - hodisa haqida axborot berish (kommunikativ vazifani bajarish)dan tashqari, o'quvchiga ta'sir qilish (ekspressiv) vazifasini ham bajaradi. Obrazlilik va estetik ta'sir etish badiiy uslubning muhim belgisidir. Badiiy uslub so'z san'atiga, timsoliy fikrlash sohasiga oid va funksional juhatdan biqiq - chegaralangan emas. Uning mazmun doirasining nihoyatda keng va u timsollar, badiiy to'qima, yozuvchi fantaziyasini natijasida yuzaga keladi. Badiiy uslubda proza, poeziya va dramaturgiya asarlar yaratiladi. Badiiy uslub timsol, ijod va shahs munosabatida yuzaga keladi. Badiiy uslubda umumxalq tili va adabiy tilning barcha qatlamiga mansub so'z va iboralar keng va faol ishlataladi hamda estetik ta'sir etish vazifasini bajaradi.

Badiiy adabiyot tili yoki badiiy uslub adabiy tilda alohida o'r'in tutadi. Badiiy uslubda xalq tilidagi hamma vositalardan erkin foydalilanildi. Badiiy uslubning asosiy belgilari:

1. Turli tasviriy vositalar, chunonchi, sifatlash, qiyoslash, mubolag'a, kinoya, o'xshatish va hokazolar qo'llanadi:

Bulutning orasidan

Quyosh kulib qaraydi,

Majnuntolning yuvilgan

Sochlarini taraydi (E. Vohidov).

Shoir bu misralarda badiiy tasvirning jonlantirish usulidan foydalanib, insonga xos kulish (kulib qaraydi), tarash (sochlarini taraydi) harakatlarini quyoshga nisbatan ishlataladi.

2. Til vositalardan erkin foydalilanildi. Badiiy asarlarda adabiy tilga xos til birliklari, shuningdek, adabiy tildan tashqarida bo'lgan sheva, oddiy nutq, jargon kabilarga xos so'zlar bo'lishi ham mumkin. Bu uslubda muallifning o'z bayoni adabiy til me'yordarida bo'ladi. Ammo asarda ishtirok etuvchilarining nutqida ularning xususiyatlарини ifodalash uchun adabiy tilda bo'limgan til birliklaridan ham foydalilanildi. Masalan, yozuvchi Abdulla Qahhor "Bemor" hikoyasida farg'onalik yosh go'dak nutqini shunday ifodalagan: Xudo yo ayamdi daydiga davo beygin.

3. Badiiy asarda tasvirlanayotgan davrning ruhni aks ettirish uchun eskirgan va yangi paydo bo'lgan so'z va iboraldan ham foydalilanildi.

4. Sonlar raqam bilan emas, so'z bilan yoziladi.

Xullas, badiiy asarlar badiiy uslubda yoziladi. Unda so'zlashuv uslubiga, kitobiy uslublarga, shuningdek, xalq tiliga xos til birliklari ham bo'ladi. Bir fikring

o‘zini adabiy tilda turli uslublarda ifodalash mumkin, chunonchi: quyidagi gaplarni qiyoslab o‘qing.

“So‘z ustasi” o‘yini

Unda talaba yoki guruhlar bir-birlari bilan kim 5 daqiqa ichida nechta so‘z topa olishi bo‘yicha musobaqalashadilar. Ajratilgan vaqtida eng ko‘p so‘z topa olgan guruh yoki talaba g’olib hisoblanadi. Lekin birorta so‘z qaytarib yozilmasligi kerak. O‘yin oxirida eng ko‘p so‘z topa olgan “So‘z ustasi” nomini oladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Adabiy so‘zlashuv uslubi haqida to‘xtalib o‘ting
2. Adabiy so‘zlashuv uslubi hamda oddiy so‘zlashuv uslubi ular o‘rtasidagi farqlar
3. Ommabop nutq uslubi va uning xususiyatlari haqida to‘xtaling.
4. Badiiy uslub va uning xususiyatlari

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Do‘stingiz, dugonangiz bilan “Kutubxonada” mavzusida matn tuzing.
2. “Kejajak bilimli yoshlar qo‘lida” mavzusida matn tuzing.

8-BOB: ILMIY USLUB. SOHAVIY TERMINKLARNING LEKSIK XUSUSIYATLARI

Mashg‘ulot rejasি:

1. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining lug‘at tarkibi
2. Ijtimoiy-siyosiy leksika
3. Sohaviy terminlar va ularning qo‘llanilishi

Tayanch so‘z va iboralar: lug‘at tarkibi, o‘z qatlam, o‘zlashgan qatlam, terminologiya, atamalar, sohaviy terminlar.

Hozirgi o‘zbek tilining lug‘at tarkibi (so‘z boyligi) o‘zbek tilining butun tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan hodisadir. Undagi so‘zlarning paydo bo‘lish davri va kelib chiqish manbai ham har xildir. Umuman, har qanday til o‘z lug‘at tarkibi va grammatic qurilishiga ega bo‘ladi. Lekin xalqlar o‘rtasidagi uzoq tarixiy davrlar mobaynida davom etadigan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar bu xalqlarning tillariga ham shubhasiz, o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Natijada bir tilga xos fonetik, leksik va boshqa elementlar ikkinchi bir filga o‘tib o‘zlashib ketadi. Bunday o‘zaro ta’sir etish ayniqsa leksikada bo‘ladi.

O'zbek xalqi ham o'z tarixining turli davrlarida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqada bo'lgan va bu xalqlarning tili o'zbek tiliga ma'lum darajada o'z ta'sirini qoldirgan. Xususan, boshqa tillardan o'zbek tiliga ko'plab so'zlar o'zlashganini shu ta'sir bilan izohlash mumkin. Natijada, o'zbek tili lug'at tarkibida shu tilning o'ziga xos leksik qatlam bilan birga o'zlashgan qatlam ham yuzaga kelgan.

O'z qatlamga o'zbek tilining o'ziniki bo'lgan, shuningdek, turkiy tillar uchun umumiyligi bo'lgan so'zlar kirdi. O'zbek tili lug'at tarkibida turkiy tillar uchun umimiy bo'lgan so'zlar anchagini qismni tashkil etadi. Bunday so'zlar barcha so'z turkumida bor. Masalan: tosh, tog', yer, bosh, suv, til, kishi, bola, men, sen, biz, siz, bu, shu, qora, qizil, sariq, yaxshi, yomon, erta, indin, ilgari va boshqalar.

O'zbek tilining bevosita o'ziniki bo'lgan asosiy leksik qismini shu tilning taraqqiyoti jarayonida uning ichki imkoniyatlari, o'ziga xos qonun -qoidalari asosida hosil etilgan yasama so'zlar tashkil etadi. Bunda uch holat kuzatiladi:

1) asli o'zbekcha so'zlardan shu tilga oid affikslar yordamida yasalgan so'zlar: qatnashchi, terimchi, qotishma, qo'llanma, turg'un, bolalarcha kabi;

2) o'zlashma so'zlardan o'zbek tili vositalari yordamida hosil qilingan so'zlar;

a) tojikcha so'zlardan yasalgan so'zlar: jangchi, mardlik, sabzavotchilk, do'stlik, pulsiz, xastalanmoq; b) arabcha so'zlardan yasalgan so'zlar: rahbarlik, qimmatli, ovqatlanmoq; v) ruscha-baynalmilal so'zlardan yasalgan so'zlar: sportchi, betonlamoq;

3) boshqa tillardan o'tgan yasovchi vositalar yordamida o'z va o'zlashma so'zlardan hosil qilingan so'zlar: tilshunos, mehnatkash, kitobxon, vagonsoz, ilmiy.

O'zlashgan qatlam.

Forscha-tojikcha so'zlar. Fors-tojik tilidan so'zlar tovush o'zgarishlarisiz olingan. So'z o'rtasi va oxirida qo'sh undoshlar keladi, tarkibida no-, ba-, be-, hamkabi old qo'shimchalari bo'ladi. Masalan: andisha, barg, bahor, daraxt, farzand, daromad, buromad, ozoda, noma'lum, bedarvoza, hamkasb.

Arabcha so'zlar. Arab tilidan o'zlashgan so'zlarning ko'pchiligi fan va dinga oid bo'lib, asosiy qismi fors tili orqali kirgan. Masalan: adabiyot, kitob, oila, davlat, mehnat, muqaddas, san'at, a'lo, mutolaa, doim, inshoot kabi.

Ruscha-baynalmilal so'zlar. Rus tili va u orqali g'arb tillaridan o'zlashgan so'zlar fan-texnika, siyosiy-iqtisodiy sohalarga oid. Bu so'zlar ikki usulda: aynan va kalkalab olish bilan o'zlashgan. Bunday so'zlar o'rtasida undoshlar yonma -yon keladi, so'z oxirida qo'sh undoshlar, qorishiq tovushlar, old qo'shimchalar ishlatalidi. Masalan: benzin, vokzal, stol, deputat, dialect, diagramma, budjet, sentabr, metal, interaktiv kabi.

Ijtimoiy-siyosiy leksika

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi hamda mustaqillikka erishganligimiz munosabati bilan tilimizda qo'llanilib kelayotgan ruscha va rus tili orqali kirib kelgan terminlarning anchasi har ikkala tildagi mos muqobilari bilan almashtirila boshlandi. Masalan, o'zbek tilida qo'llanib kelgan terminlar quyidagicha almashtiriladi: Abstrakt – mavhum, avtograf – dastxat, adaptatsiya – moslashish, administratsiya – ma'muriyat, direktiva – ko'rsatma, krizis – tanglik va b.

Ijtimoiy-siyosiy terminlarning paydo bo'lish tarixini qadimdan boshlashimiz zarur. Umumturkiy meros bo'l mish O'rxun-Enasoy va boshqa yodnomalarda o'z ifodasini topgan qag'an, budun, baliq ("shahar" ma'nosida), sab ("kengash" ma'nosida), bitikchi ("kotib" ma'nosida), alp ("qahramon" ma'nosida) kabi terminlar buning yaqqol misolidir. Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlar, tabiiyki, o'zining leksik qatlamlarida ham o'z ifodasini topadi. Bu fikrimizni M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi quyidagi ijtimoiy-siyosiy terminlar misolida ham ko'rish mumkin : and, buzun, baæ, boæün ("jamoa" ma'nosida), bachèg' ("ahd" ma'nosida), beg, æarlèg', boæ ("qabila" ma'nosida), æag'è, bulg'aq ("fitna" ma'nosida), æer ("mamalakat" ma'nosida) va hokazo.

O'sha davr ijtimoiy-siyosiy terminologiyasining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, ularning ba'zilari hozirgi kunda ham o'zbek va qoraqalpoq hamda boshqa turkiy tillarda faol qo'llanib kelinmoqda (el -el, boy-bay, ont-ant). H.Dadaboyevning dissertatsiya ishiga obyekt qilib olingan XI-XIV asrlar yozma yodgorliklari tilidagi qiyoslash uchun olingan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlardan bugungi kunda uyg'ur tilida-348, qozoq tilida-220, qirg'iz tilida-244, turk tilida-370, o'zbek tilida esa-390 tasi ishlatilar ekan. 2. O'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy terminologiyasi, ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rus tilidan va yevropa tillaridan kirgan o'zlashmalar hisobiga boyiy boshladи. Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi har qanday o'zgarish uning terminologiyasida ham o'z izini qoldiradi. Ijtimoiy-siyosiy terminologiya deganda siyosiy tuzum, ijtimoiy va siyosiy guruhlar, partiyalar, oqimlar va ularning vakillari, hukumat yig'ilishlari va muassasalari, davlatni boshqarish va uning organlari, dunyoqarashlar, mulkiy munosabatlar, ichki va tashqi siyosat, ijtimoiy-siyosiy hujjatlar, axloq masalalari, xullas, ijtimoiy-siyosiy hayat bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar majmuyi tushuniladi.

O'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy terminologik lug'ati 1976-yildayoq nashr etilgan edi.

Sohaviy terminlar va ularning qo'llanishi

Iqtisodiyot terminologiyasini, umuman, boshqa soha terminologiyalarini ham boyitishda ona tili imkoniyatlardan foydalanish haqida gap ketganda quyidagi uch holatga e'tibor berish zarur bo'ladi:

1. Muayyan bir tilda, shuningdek, o'zbek tilida ham iqtisodga oid tushunchalarni aniq ifodalovchi qator leksemalar qadim-qadimdan qo'llab kelinmoqda. O'zbek adabiy tili boyligining bir qismi o'laroq, bunday so'zlar keyinroq, konkret terminologik tizim vujudga kela boshlashi bilan iqtisod fanining maxsus tushunchalarini ifodalash uchun jalb qilina boshlangan edi. Masalan, haq, bitim, pay, garov, dallol, pul, so'm, sug'urta, savdo, omonat, g'amlama va boshqalar.

2. Iqtisodiyot bilan aloqasi bo'lmagan, boshqa-boshqa sohalarda qo'llanadigan terminlar ham maxsuslashtiriladi, ya'ni iqtisodiy terminlar sifatida ishlataladi. Masalan, taklif, sohibkor, o'sim, qoldiq, daraja, palata, kadrli, yetakchi, yig'im, qonun, qaydnoma, baho, xo'jalik kabi yuzlab leksemalar iqtisodiy terminologik tizimda yakka holida ham, so'z birikmalari ning tarkibiy qismlari sifatida ham ushbu soha terminlari sifatida amal qilinaveradi.

3. Iqtisodiyot terminologiyasining boyishidagi yana bir manba, bu iqtisodiy tushunchalarni ifodalash uchun xilma-xil affikslar ishtirotida hosil qilingan yasama lug'aviy birliklar hisoblanadi: jamg'arma, ijarchi, ishsizlik, uyushima, tejamkor, iqtisodiyot, tadbirkor, bojxona, qarzdor, boylik kabilar shular jumlasidandir. Bunday terminlarning bir qismi tegishli ruscha-baynalmilal muqobillarining o'zbek tilidagi kalkasi sifatida yuzaga kelgan.

Hozirgi o'zbek tili lug'at tarkibida, uning iqtisodiy terminlar tizimida yuqoridaqidek umumturkiy, o'zbek terminlari bilan bir qatorda fors-tojikcha, arabcha, shuningdek, ruscha-baynalmilal leksemalar ham qo'llanib kelinayotir. Masalan, sarmoya, savdogar, tojir, sarkor, daromad, dastmoya kabi fors-tojikcha so'zlar asosiy iqtisodiy terminlar bo'lib qo'llanmoqda. O'zbek tili iqtisodiyot terminologiyasining ruscha-baynalmilal terminlar hisobiga to'ldirilishi haqida gap ketganda shuni aytish kerakki, rus tili leksikasi imperiya davrida mahalliy tillarga, xususan, o'zbek tiliga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Masalan, veksel, preyskursant, kredit, tovar, buxgalter, bank, kassir, avans, makler va boshqalar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Hozirgi o'zbek adabiy tilininin lug'at tarkibi
2. Sohaviy terminlar va ularning qo'llanishi haqida to'xtalib o'ting
3. O'z qatlam va o'zlashgan qatlam haqida to'xtalib o'ting.
4. Iqtisodiyotga oid terminlar va ularga misollar keltiring.

9-BOB: ILMIY USLUBNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Mashg'ulot rejasi:

- 1.Termin va atama tushunchalari
- 2.Ilmiy uslubning morfologik xususiyatlari

Tayanch so'z va iboralar: termin, ilmiy matn, ilmiy ma'ruza, ilmiy nutq, kontseptual tarkib, sintaksis

Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, ma'lum fan, ishlab chiqarish sohasidagina qo'llaniladigan va asosan o'sha soha kishilari tushunadigan maxsus so'zlar terminlar – atamalar sifatida qaraladi.

Atamalarning shakllanishi ham xalqning tarixi qadar qadimiydir. To'nyuquq, Kultegin, Bilga hoqon singari bitiktoshlarda xalqimiz mashg'ul bo'lgan hunarlarga oid atamalarni uchratamiz. Ular xalq tomonidan yaratilgan afsonalarda, qahramonlik qo'shiqlarida ham mavjud bo'lgan. Ularni mujassam qilgan Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asari ularning bizgacha yetib kelishida katta tarixiy vazifani bajargan.

Atamalarning dastlab ikki katta guruhga ajratish to'g'ri bo'ladı:

1. Umumiylilik xususiyatiga ega bo'lgan atamalar.
2. Xususiylik xususiyatiga ega bo'lgan atamalar.

Umumiylilik xususiyatiga ega bo'lgan atamalar sirasiga bir terminologik tizimning barcha yo'nalishlari uchun tushunarli bo'lgan atamalar kiradi. Masalan, sportdag'i musobaqa, sovrin, sovrindor, yutuq, g'alaba, birinchilik, championat, ko'rik, trener, hakam atamalarini sportning barcha turlarida bemalol qo'llash mumkin. Fizikaga oid issiqlik, temperature, jism, elektr, magnit, gaz, harakat, energiya, maydon singari atamalar haqida ham shu gaplarni aytish mumkin.

E'tirof etish kerakki, o'zbek tilida chetdan qabul qilingan ilmiy-texnikaviy atamalarning salmog'i katta. An'anaga ko'ra ularni quyidagi yo'nalishlarda o'rganamiz:

1. Arabcha: amaliyat, asar, asos, izoh, ilm, in'ikos, ilova, isloh, istiloh, islohot, maqola, misol, masala, maxraj, manfiy, musbat, mavzu, mazmun, mantiq, ma'naviy, ma'rifiy, muqaddima, mushohada, tajriba, taqriz, tahlil, uslub, fan, falsafa va hokazo.
2. Forscha-tojikcha: bastakor, duradgor, zabtkor, navosoz, navoxon, shogird, peshqadam, sovrin, sozanda, ustoz, chavandoz, yakkaxon, havaskor, hamshira kabi.
3. Ruscha-baynalmilal: abzats, agronomiya, agrotexnika, arxeologiya, gazeta, kodeks, lingvistika, matematika, nekrolog, plenum, realism, romantiam, sessiya, syezd, fizika, fonetika, fonologiya va hokazolar. Ularning ma'lum qismlari:

1. Lotincha: abbreviatsiya, abstrakt ot, agglyutinatsiya, adverbializatsiya, adyektivatsiya, aktualizatsiya, aksentologiya, alliteratsiya, areal, artikulyatsiya, assimilyatsiya, affiks, affiksoid, affrikata kabi.

2. Yunoncha: allegoriya, allomorph, allofon, alfavit, amorf tillar, analitik tillar, analogiya, anomaliya, antiteza, antonym, antroponim, apokopa, arxaizm, aforizm singari.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-texnik tub o'zgarishlar davrida yangi yangi fanlar va tushunchalar yuzaga kelmoqda. Jumladan, o'zbek tilida ham yangi terminlar paydo bo'lmoqda, ilgaridan ishlatib kelingan qator leksemalar yangi ma'nolar kasb etmoqda. Shu boisdan leksikologiya, xususan, terminologiya oldida qator muhim masalalarini yechish vazifasi turibdi.

Bugungi kunda terminologiyaning amaliy va nazariy masalalarini yanada chuqurroq o'rganish, terminlar yaratish va ularni qo'llashni til qonuniyatlari asosida tartibga solish davlat ahamiyatiga molik muammoga aylandi. Shuning uchun ona tilimizning turli terminologik tizimlarini yanada teranroq tadqiq etish, ularni terminologiyaning xilma-xil masalalari bo'yicha atroficha tadqiq qilish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Respublikamiz mustaqil deb e'lon qilingandan keyin, bu sohadagi ahvol butunlay o'zgardi. Tashqi iqtisodiy aloqalar yanada rivojlanib ketdi. Dunyoning juda ko'p mamlakatlari bilan xilma-xil aloqalarga keng yo'l ochildi. Bu omillar o'zbek tilida yangi-yangi terminlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu yangi terminlar sirasida iqtisodiy terminologik tizim ham o'ziga xos o'rinni egallab kelmoqda. Shu boisdan fan va texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida iqtisodiy terminlarni ham tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

"Termin" tushunchasiga yuklangan mazmun quyidagicha belgilarga asoslanadiki, bular terminlarni umumiste'moldagi so'zdan farqlash uchun yetarli deb o'yaymiz:

1) termin – umumadabiy tilning maxsus vazifa bajaruvchi bir turi bo'lmish ishlab chiqarish, fan va texnika tiliga mansub lisoniy birlik, bir so'z yoki birikmadir;

2) termin – konkret narsa-predmet, ashyo, mavhum tushunchalarning maxsuslashtirilgan nomidir;

3) termin uchun muayyan ta'rif (definitsiya) zaruriydirki, uning yordamida tegishli tushuncha mazmunini aniqroq ifodalash, tushunchaning birini ikkinchisidan chegaralab ajratish imkonini beruvchi, ayni mahalda ma'lum tushunchani muayyan tasnifiy qatorga joylashtirishga yo'l qo'yuvchi, farqlovchi belgilarni ravshanroq ko'rsatish mumkin.

Demak, terminologiya muayyan fanning tushunchalar tizimi bilan o'zaro munosabatda bo'lgan terminlar jami sifatida ta'riflanadi. Har qanday tushunchalar tizimiga muayyan terminlar tizimi to'g'ri keladi. Terminologik tizimlar fan taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib boradi. Terminlar umumiste'moldagi so'zlardan farqli ravishda joriy qilinib ularning qo'llanishi ma'lum darajada nazorat ostida bo'ladi. "Terminlar paydo bo'lib qolmaydi", aksincha, ularning zaruriyat anglangan holda "o'ylab topiladi", "ijod qilinadi". Masalan, bo'lajak iqtisodchilarning yozma yoki og'zaki nutqida kartel, kliring, tovar oboroti, mayda mulkchilik, mablag' ajratish, renta kabi tor doiradagina qo'llaniladigan terminlar ishlatalishi tabiiy bir holdir. O'z-o'zidan ayonki, bu xildagi terminlar iqtisodiyotdan uzoqroq biror kasb egasining nutqida ishlatalmaydi. Shu bilan birga, iqtisodiyot sohasining qator terminlari ham borki, ular muayyan til egalarining deyarli barchasi nutqida bab-baravar ishlatalaveradi: Bozor, mol, savdo, savdo-sotiq, pul, haridor, bozorchi, olib-sotar, chayqovchi kabilalar shular jumlasidandir.

Ta'kidlash lozimki, nafaqat iqtisodiyot balki fan-texnika, ishlab chiqarishning xilma-xil soha va terminlar majmui, ya'ni yig'indisi terminologiya deb ataladi. Masalan, matematika terminologiyasi, tibbiyot terminologiyasi, iqtisodiyot terminologiyasi va boshqalar.

"Maqollar zanjiri" metodi. Maqollardagi nuqtalar o'tniga tushirib qoldirilgan so'zlarni qo'yib chiqing.

Maqollar	Javob
1. Dilni dilga ...	yaqinlashtiradi.
2. Intizomli lashkar	...mas.
3. Sarishtali uy -	... uy.
4.	... kurashga to'ymas.
5. ... topsa, bo'lib yer,	... topsa bosib yer.
6. Rejali ish -- hamisha	
7. Shoshganda ...	topilmas.
8. ... yaltiroqning ...	qaltiroq.
9. Qoqilsang ...dan	o'pkalama.
10. ... bilan	... egizak.

Ilmiy uslubning morfologik xususiyatlari:

1. Grammatika darajasida, so'zning muayyan shakllari va so'z kombinatsiyalarini va jumlalarni barpo qilish bilan ilmiy matnning mavhumligi yaratilgan: bu ... va hokazolar.

2. Ilmiy matn kontekstidagi fe'llar abadiy, umumlashtirilgan ma'noga ega. Va asosan hozirgi va o'tmishdagi shakllar qo'llaniladi. ularning almashinuvি

“tasviriylik” yoki rivoyatning dinamikasi emas, aksincha, ular tasvirlangan hodisaning muntazamligini ko’rsatadi: *muallif ta’kidlaydi*, ...; *Muammolarni rechish* va boshqalar, *bu maqsadga erishishga yordam beradi*.

3. Kam bo’limgan turlarning fe’llari (taxminan 80%) ham ilmiy matnni umumlashtirilgan ma’noga ega. Mukammal turdag'i fe’llar barqaror aylanalarda qo’llaniladi: *o’ylab ko’ring* ...; *Biz misollar*, va boshqalar. Bundan tashqari, zarurat yoki majburiyatning soya bilan noan’anaviy shaxsiy va nomaqbul shakllari qo’llaniladi: *xususiyatlар* ...; *Buni bilishingiz kerak* ...; *Yodingizda bo’lmang* ...

4. Passiv ma’noda qaytariladigan fe’llar ishlataladi: *uni isbottash kerak* ...; *Batasil taysiflangan* ...; Bunday fe’llarning shakllari jarayonning ta’rifini, tuzilishini, mexanizmini ta’kidlashga imkon beradi. Qisqa passiv ishtirokchilar uchun suiddi shunday ma’no: *u chegara beriladi* ...; *Normni tushunish mumkin* va hokazo.

5. Ilmiy ma’ruza ham qisqa sifatlardan foydalanadi, masalan: *munosabat* va *arakterlidir*.

6. Ilmiy nutqning odatiy belgisi - *men o’rniga ishlataladigan maqomdir*. Bu usul mualliflikning soddaligi, ob’ktivligi, umumiyligi kabi xususiyatlarni shakllantiradi: *o’rganish davomida biz xulosaga keldik* ... (*o’rniga men xulosaga keldim* ...).

Til xususiyatlari: sintaksisi

Sintaksis nuqtayi nazaridan ilmiy uslubning til xususiyatlari, nutqning olimning o’ziga xos fikrlashiga bog’liqligini ko’rsatadi: matnlarda ishlataladigan inshootlar neytral va odatda qo’llaniladi. Eng tipik - matnning hajmi axborot va semantik mazmunini oshirganda, sintaktik siqishni usuli. Bu so’z kombinatsiyasining maxsus jumlalari va jumlalar yordamida amalga oshiriladi.

Ilmiy uslubning sintaktik xususiyatlari:

1. “Tegishli atamalardagi noun + ism” atamasi ishlataladigan iboralardan foydalanish: *metabolizm, valyuta likvidligi, sökme qurilmasi* va boshqalar.

2. Sifat nomi bilan ifodalangan atamalar atamaning ma’nosida ishlataladi: *shartsiz refleks, qattiq belgi, tarixiy qazish* va hk.

3. Ilmiy uslublar uchun (ta’riflar, asoslar, xulosalar) ismga ega kompozit nominal predikat xarakterli bo’lib, odatda fe'l-ligament bilan ifodalanadi: *hislar - asosiy bilim jarayonidir* ...; *Tilning me'yoriy amalga oshirilishidan chetga chiqish bolaning nutqining eng yorqin xususiyatlaridan biridir*. Boshqa umumiy “predetate formulasi” - qisqa nomer bilan biriktirilgan nominal predikatdir: *uni ishlatalish mumkin*.

4. Vaziyatlar roli uchun zarflar tergov qilinayotgan hodisaning sifatini yoki xususiyatini tavsiflashga xizmat qiladi: *sezilarli, qiziqarli, ishonchli, yangi usulda*; *Bu va boshqa voqealar tarixiy adabiyotda yaxshi tasvirlangan*.

5. So‘zlarning sintaktik tuzilmalari kontseptual tarkibni ifodalaydi, shuning uchun yozuvchi olimning standarti - bu so‘zning turiga to‘liq jumlalar jumlasiga kiradi, uning qismlari o‘rtasida ittifoqchilik aloqasi, uslubiy jihatdan neytrallik va so‘zning normativ tartibi bilan neytral *bo‘ladi*: *Zoopsixologlar uzoq, qat’iy va muvaffaqiyatsiz o‘qitishga urinishgan Eng rivojlangan antropoid (shimpanziya) ovoz tili*. Murakkab jumlalar orasida bitta subordinate tuzilmalar ustunlik qiladi: *aql va til orasida o‘rtasida nutqning funksional asoslari deb ataladigan oraliq asosiy kommunikativ tizim mavjud*.

6. So‘raladigan jumlalarning ahamiyati - taqdim etilgan materiallarga diqqat etish, taxminlar va farazlarni ifodalashdir. *Balki, maymunning jest nutqi bo‘lishi mumkinmi?*

7. Axborotni ataylab, bilsosita o‘zboshimchalik bilan taqdim qilish uchun turli xil bo‘limgan shaxslarning takliflari keng qo‘llaniladi: *adolatli janrlarning maqomi do’stona muloqotni o‘z ichiga oladi (ruhlar haqida suhbatlashish, suhbatlashish va boshqalar)*. Shunday qilib, umumlashtirilgan ilmiy jamoa nomidan so‘zga chiqqan obyektiv tadqiqotchi bo‘lishi istagi .

8. Hodisalar orasidagi sabab-ta’sir munosabatlariini rasmiylashtirish uchun Sohaviy nutq birlashgan va bo‘ysunuvchi birlashma munosabatlari bilan murakkab jumlalarni qo‘llaydi. Ko‘pincha murakkab uyushmalar va ittifoqdosh so‘zlar mavjud: *shunga qaramay*, boshqalar keng tarqalgan bo‘lsa-da, subordinatsiyalangan tushuntirish, aniqlik, sabablar, shartlar, vaqt, ta’sir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Umumiylilik xususiyatiga ega bo‘lgan atamalar
2. Xususiylik xususiyatiga ega bo‘lgan atamalar
3. Ilmiy uslubning morfologik xususiyatlari
4. Ilmiy uslubning sintaktik xususiyatlari
5. So‘zlarning sintaktik tuzilmalari

10-BOB: RASMIY USLUB VA UNING TUZILISHI

Mashg‘ulot rejası:

1. Rasmiy idoraviy nutq uslubi
2. Rasmiy uslub tilining asosiy xususiyatlari.
3. Idoraviy- ma'muriy shakliga oid hujjatlar

Tayanch so‘z va iboralar: rasmiy uslub, yozma nutq, davlat qonunlari, farmonlar, rasmiy yozishmalar, ijtimoy-huquqiy munosabat, ish qog‘ozlari.

Rasmiy-idoraviy nutq uslubi jamiyatdag‘ ijtimoiy-huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi uslubdir. Bu uslub hujjatchilik xarakteri bilan ajralib turadi. Shunga ko‘ra, yozma nutqning xizmatga doir bu turi davlat qonunlari, farmonlar, bayonotlar, shartnomalar, idora hujjatları, e’lonlar va boshqa rasmiy yozishmalar uslubi hisoblanadi. Rasmiy uslub tilining asosiy xususiyati aniqlik va ixchamlikdir, unda muayyan nutqiy qoliplar, kasb-hunar so‘zлari, atamalar, tayyor sintaktik qurilmalar keng qo‘llanib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini ta’minlaydi. Tayyor nutq qurilmalari (shu asosda: *shunga ko‘ra; ma’lum qilamizki; ...ni e’tiborga olib; ...ga ko‘ra; ...biz, quyida imzo chekuvchilar, ...ga asosan (muvofiq); ...uchun, ...dan kelib chiqib; ...sharti bilan; ...berilsin. ...taqdirlansin kabi*) hujjat matnining darak hikoya xarakterida bo‘lishini, so‘zлarning bir ma’noda ishlatalishini, badiiy-tasviriy vositalarning bo‘lmasligini, fe’lning majhullik va buyruq-istak shakllarining, qo‘shma gap turlarining keng qo‘llanishini talab qiladi. Til materiali hujjatning turi va xarakteriga qarab tanlanadi.

Yozma nutqning rasmiy uslubida, asosan, quyidagi munosabatlar doirasidagi hujjatlar tuziladi:

1. *Huquqiy munosabatlarga oid:* qonun fuqarolik va jinoyat aktlari, nizom, shartnoma va boshqalar.

2. *Idoraviy-ma’muriy shaklga oid:* dalolatnoma, buyruq va farmoyishlar, turli ish qog‘ozlari (ariza, tavsiyanoma, tilxat, ma’lumotnoma kabi).

3. *Diplomatik munosabatlarga doir:* bayonot, nota, bitim, memorandum va boshqalar

Bilib oling!

Rasmiy-idoraviy uslub jamiyatdag‘ ijtimoiy, huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi nutq uslubidir. Bu uslub xujjalilik xarakteri bilan ajralib turadi. Shunga ko‘ra yozma

nutqning xizmatga doir bu turi davlat qonunlari, farmonlar, vayonotlar, shartnomalar, idora hujjatlari, e'lonlar va boshqa rasmiy yozishmalar uslubi hisoblanadi. Rasmiy uslub tilining asosiy xususiyati aniqlik va ixchamlikdir, unda muayyan nuquqiy shtamplar, kasbga oid so'zlar, atamalar, tayyor sintaktik qurilmalar keng qo'llanib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini ta'minlaydi. Tayyor nutq formalari (shu asosida; shunga ko'ra, ma'lum qilamizki; ...ni e'tiborga olib; ... ga ko'ra;... biz, quyida imzo chekuvchilar; ...ga asosan (muvofig);... uchun;... dan kelib chiqib, sharti bilan; ... berilsin,... taqdirlansin kabi) hujjat matning darak-axborot xarakterida bo'lishini, so'zlarning bir ma'noda ishlatalishini, badiiy-tasviriy vositalarning bo'lmashligini, fe'lning majxullik va buyruq-istak shakllarining, qo'shma gap turlarining keng qo'llanilishini talab qiladi. Til matnalri hujjatning turi va xarakteriga qarab tanlanadi.

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1-mashq. Gaplarni ko'chiring. Rasmiy-idoraviy uslubga xos so'z va grammatik shaklli birikmalarning vazifasini izohlang.

1. Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. (49-modda).

Konstitutsiya (lot. constitutio - tuzilish, tuzuk) - davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruvi organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi.

2. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalarini va normalariga rioya qiladi ("Davlat tili haqida" Qonun, 7-modda).

3. Shu yil 28-oktabr kuni soat 14.00 da "Davlat tili haqida"gi Qonun tasdiqlangan kun munosavati bilan adabiy-badiiy anjuman o'tkaziladi.

4. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o'tkazilgan VII sessiyasida 1991- yil 18-noyabr kuni tasdiqlangan.

5. Yotoqxonada yashovchilar belgilangan tartib-intizom va tozalikka rioya qilmagan taqdirda yotoqxonadan chiqariladi.

6. Betobligim haqidagi tibbiy ma'lumot nomasi ilova qilinadi.

7. Abror Rasulov marketing bo'limi boshlig'i vazifasiga tayinlansin.

8. Idoraviy- ma'muriy shaklga oid matn yaratting

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Rasmiy -idoraviy nutq uslubi va uning o'ziga xos xususiyatlarni haqida ma'lumot berib o'ting.

2. Yozma va og'zaki nutq uning o'ziga xos xususiyatlarni
3. Idoraviy- ma'muriy shaklga oid hujjatlar haqida to'xtalib o'ting.
4. Yozma nutqning rasmiy uslubdagi hujjat turlari qaysilar?

11-BOB: SOHADA DAVLAT TILIDA ISH YURITISH MASALALARI. MA'LUMOT-AXBOROT HUJJATLARI

Mashg'ulot rejasi:

1. Ma'lumot axborot hujjatlarining vazifasi
2. Ma'lumot axborot hujjatlarining turlari
3. Bildirishnoma, ariza, tavsifnoma, tarjimayi hol

Tayanch so'z va iboralar: hujjat, matn, uslub, ariza, tushuntirish xati, tarjimai hol, tavsyanoma, tavsifnoma, bayonnomada ko'chirma, bildirishnoma, bildirgi, dalolatnoma, tilxat, e'lon, ma'lumotnoma, hisobot, vasiyatnoma.

Hujjat rasmiy uslubda yozilgan, imzolangan, kelishuv va rozilik belgilari olingan, davlat standart talablariga javob beradigan qog'ozlardir. Hujjat matni aniqlik, ixchamlik, lo'ndalik, mazmuniy to'liqlik kabi talablarga javob berishi kerak. Hujjatchilik tilining o'ziga xos uslubi, mazmuniy to'liqlikdan iborat zaruriy sifatlar, o'ziga xos so'z qo'llash, morfologik va sintaktik xususiyatlar orqali ta'min etiladi. Ma'lumot-axborot hujjatlari anchayin katta guruhni tashkil qiladi, ular ish yuritish jarayonida ko'p ishlataladi. Ma'lumot-axborot hujjatlari qarorlarni qabul qilishga undaydigan ma'lumotlarni yetkazadi. Uning xususiyati shundaki, hujjatlar boshqaruv tizimida quyidan yuqoriga: xodimdan bo'lim rahbariga, bo'lim rahbaridan muassasa rahbariga, quyi tashkilotdan yuqori tashkilotga qarab harakatlanadi.

MA'LUMOT-AXBOROT HUJJATLARI

ARIZA ЗАЯВЛЕНИЕ	TUSHUNTIRISH ХАТИ ОБЪЯСНИТЕЛЬНАЯ	TARJIMAYI HOL АВТОБИОГРАФИЯ
TAVSIYANOMA РЕКОМЕНДАЦИЯ	TAVSIFNOMA ХАРАКТЕРИСТИК А	BAYONNOMA ПРОТОКОЛ
N KO'CHIRMA ВЫПISКА ИЗ	BILDIRGI, BILDIRISHNOMA РАПОРТ,	ISHONCHNOMA ДОВЕРЕННОСТЬ

ПРОТОКОЛА	ДОКЛАДНАЯ ЗАПИСКА	
DALOLATNOMA AKT	TILXAT РАСПИСКА	E'RON ОБЪЯВЛЕНИЕ
MA'LUMOTNOMA СПРАВКА	HISOBOT ОТЧЁТ	VASIVATNOMA ЗАВЕЩАНИЕ

Ma'lum bir davlat tashkiloti, xususiy korxona, huquqni muhofaza qilish idoralari rahbarlari, mansabdar shaxslar nomiga iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjat. Shikoyat mazmunidagi arizalar kelib tushgan tashkilot tomonidan tegishli tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi. Ariza ish, o'qish, yashash joylarida eng ko'p qo'llanadigan hujjatlar turiga kiradi. Ariza alohida bir shaxs yoki bir qancha kishilar tomonidan jamoa bo'lib yozilishi ham mumkin. Bu hujjat mahalla raisiga, jamoat tashkiloti rahbariga, bog'cha mudirasiga, maktab, litsey, kollej direktoriga, oliv o'quv yurti rektoriga, xo'jalik, tashkilot, korxona, muassasa boshliqlariga, tuman, shahar, viloyat hokimlari yoki respublika miqyosidagi rahbarlar, mansabdar shaxslarga yo'llanishi mumkin. Arizalarning mazmuni va hajmi turli-tuman bo'lsa-da, ularning barchasi uchun xos bo'lgan umumiylar zaruriy qismlar mavjud.

Ularga quyidagi larini kiritish mumkin:

- ariza yo'llanayotgan tashkilot nomi, rahbarining lavozimi, familiyasi, ismi;
- ariza yozuvchining ish, o'qish yoki yashash joyi, lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi;
- hujjat nomi – ariza;
 - matn (iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunidagi ariza uchun asos bo'lgan fikr-mulohazalarning qisqagina bayoni);
 - ilova hujjatlar ro'yxati (mavjud bo'lsa yoki talab etilsa);
 - ariza yozuvchining imzosi, familiyasi, ismi, yozilgan sana.

Ariza imkon qadar qisqa, ma'lumotlarga asoslangan holda, tushunarli uslubda yozilishi lozim. Ariza bevosita rahbarning o'ziga yoki shu ishlarni bo'yicha mutasaddi kishiga topshiriladi. Arizada bayon etilgan iltimos, talab, taklif yoki 'shikoyat amaldagi qonunlarda belgilangan tartibda muddatda hal etiladi.

NAMUNA

Samarqand davlat universiteti tabiiy fanlar fakulteti talabalar kasaba uyushmasi byurosi rasi S.Anorovga

shu fakultet biologiya bo'limi I kurs rus guruhi talabasi Rahmonova Dildoradan

ARIZA

Guruhimiz talabalari bilan Prezident ta'tili paytida, ya'ni 2006-yil 28-29-dekabr kunlari mamlakatimizning qadimiy shaharlaridan Buxoro hamda Qarshi shaharlariga jamoa bo'lib sayohatga borishni rejalashtirganimiz. Viloyat sayohat byurosi bilan kelishib, guruhimiz talabalari uchun ikki kunga 25 o'rini avtobus olishimizga yordamlashishingizni so'rayman. Yo'l xarajatlarini naqd pul bilan to'laymiz.

2019.19.12.

imzo

RAHMONOVA D.

MAJLIS BAYONI

Majlis bayoni yoki bayonнома anjuman, majlis, yig'ilish, kengash va boshqa shu kabi tadbirdaming borishini, unda ishtirok etuvchilar, qatnashchilarning nutq va chiqishlari hamda shu yig'inda qabul qilingan qarolarni qayd qiluvchi rasmiy hujjat hisoblanadi. Bu hujjat yaqingacha protokol, bayonнома, majlis qarori, majlis bayoni kabi atamalar bilan ham yuritilib kelindi. Umuman olganda, majlis bayoni deb atash ko'proq maqsadga muvofiq keladi. Majlis bayonini yozish shu yig'in uchun saylangan yoki yig'ilish hujjatlarini rasmiylashtirib borish uchun doimiy tayinlangan kotibning vazifasiga kiradi.

O'tkazilgan har qanday yig'ilish uchun ham majlis bayoni yozilavermaydi. Muntazam o'tkaziladigan, oldindan rejalashtirilgan, tegishli kun tartibi belgilangan yig'ilishning majlis bayoni kotib tomonidan imkonи boricha to'liq yozib boriladi. To'g'ri, oldindan rejalashtirilmagan, zudlik bilan o'tkaziladigan yig'ilishlar ham bo'lishi mumkin. Bunday hollarda yig'ilish ishtirokchilarini yig'ilish hay'ati a'zolari bilan bir qatorda yig'ilish kotibini ham saylab oladilar.

Yig'ilishlar o'tkazilishining ham bir qancha tartiblari bor, albatta. Mayzu bo'yicha ma'ruzachi tayinlanadi, uning nutqi va muhokamada chiqishlar uchun vaqt belgilanadi. Muhokamadan so'ng yig'ilish ishtirokchilarining ko'pchiligi tomonidan ma'qullangan xulosalar asosida mayzu bo'yicha qaror qabul qilinadi. Shu tariqa yig'ilish kun tartibidagi boshqa masalalar bo'yicha ham chiqishlar, muhokama va

munozaralar o'tkazilib, ular yuzasidan ham qarorlar qabul qilinadi hamda bu jarayon majlis bayonida o'zining to'liq ifodasini topadi.

Majlis bayonlari korxonada olib borilayotgan ishlar, erishilgan yantuqlar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar, rejalashtirilayotgan yangi tadbirlar, ular bo'yicha bildirilgan fikr-mulohazalar, qabul qilingan qarorlar va ularning ijrosini ta'minlash bo'yicha ko'zda tutilgan ishlar majmuidan iborat bo'lib qolmasdan, korxona tarixi, ishlab chiqarishning rivojlanishi va o'sishi, xodimlar faolligi, ularni rag'battantirishning ahvoli, korxonada amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy-tarbiyaviy tadbirlarni aks ettiruvchi muhim hujjat hamdir. Texnika rivojlangan bugungi sharoitda majlis bayonlari stenografik yoki kompyuterda yozishdan tashqari, fonografik va videotasvirlar orqali ham qayd etib borilmoqda.

Hujjatchilikda majlis bayonidan ko'chirma ham muhim o'rincini tutadi. Ba'zan muhokama etilgan barcha masalalar bo'yicha emas, balki ayrim bir masala yuzasidan ko'chirma talab etiladi. Majlis bayonidan ko'chirma olinganda uning talab qilingan masalaga oid qismi - asosiy nutq, muhokamadagi chiqishlar hamda mavzu yuzasidan qabul qilingan qarorlar qismi yig'ilish raisi va kotibi imzosi bilan tasdiqlangan holda beriladi.

Majlis bayonining zaruriy qismlari:

- yig'ilish o'tkazilayotgan korxona, taskilot, muassasa nomi;
- hujjat nomi - majlis bayoni (yoki majlis bayonidan ko'chirma);
- yig'ilish o'tkazilgan sana, tartib raqami, joyi;
- yig'ilish raisi va kotibning familiyasi, ismi;
- matn: 1) yig'ilish ishtirokchilari ro'yxati yoki ularning soni; 2) yig'ilish kun tartibi;
3) eshitildi (masala bo'yicha ma'ruzachining familiyasi, ismi va nutqi); 4)
so'zga chiqdi (muhokamada qatnashganlarning familiyasi, ismi, fikr-
mulohazalar); 5) qaror qilindi (har bir masala bo'yicha chiqarilgan xulosalar
asosida qabul qilingan qarorlar);
- ilovalar (ma'ruza bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar, ma'lumotnomalar, hisobot,
ma'ruza matni, jadval va boshqalar);
- yig'ilish raisi va kotibning imzolari, familiyasi, ismi.

Sumarqand davlat universiteti filologiya
 fakulteti rus filologiyasi bo'limi ikkinchi kurs "A" guruhni
 tulabalarining 2018-yil 12-sentabr kuni bo'lib o'tgan kasaba
 uyushmasi a'zolari yig'ilishining 1-sonli

MAJLIS BAYONI

QATNASHDILAR: 27 kasaba uyushmasi
 a'zosidan 26 kishi. Bir kishi betobligi
 tufayli yig'ilishda ishtirok etmadidi.

KUN TARTIBI:

1. Guruh kasaba uyushmasi byurosi raisining 2020-2021-o'quv yilida guruhda amalga oshirilgan ishlari yuzasida hisoboti, yangi o'quv yili uchun ish rejasini tasdiqlash Ma'ruzachi – Dorf T.V.
2. Guruh a'zolarining tartib-intizomi haqida. Ma'ruzachi - guruh "Guruh murabbiyi" Urcheva L.A.
3. Har xil masalalar.

ESHITILDI: guruh kasaba uyushmasi raisi T.V.Dorf yig'ilish kun tartibidagi birinchi masala bo'yicha hisobot berdi. U guruh kasaba uyushmasi byurosi tomonidan o'tgan o'quv yilida guruhda amalgam oshirilgan ishlarga batafsil to'xtaldi. U so'zining oxirida yig'ilish ishtirokchilarini guruh kasaba uyushmasi byurosining yangi o'quv yili uchun mo'ljallangan ish rejasini bilan tanishtirdi. Shundan so'ng yig'ilish ishtirokchilari guruh kasaba uyushmasi byurosining o'tgan o'quv yili davomida amalga oshirgan ishlari yuzasidan byuro raisi T.V.Dorfning hisobotini yangi o'quv yili uchun mo'ljallangan ish rejasini muhokama qilishdi.

SO'ZGA CHIQDI: Guruh talabalari mazkur masala yuzasidan so'zga chiqishdi va hisobot haqida, byuro a'zolarining ishlari haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishib, byuro raisi hamda byuro a'zolarini o'tgan o'quv yilida yaxshi faoliyat ko'rsatganliklarini inobatga olib, ularni qayta saylash taklifini bildirishdi. Yig'ilish ishtirokchilari ular kiritgan takliflar hamda ish rejasini bo'yicha bildirgan qu'shimchalarni bir ovozdan ma'qullashdi.

QAROR QILINDI:

1. Guruh kasaba uyushmasi byurosining raisi T.V.Dorfning byuro tomonidan 2018-2019-o'quv yilida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin(yozma hisobot majlis bayoniga ilova qilinadi).

2. Guruh kasaba uyushmasi byurosining raisi T.V.Dorf va u boshchiligidagi byuro a'zolari A.Jukova, H.Doroshenko, T.Korinalarning o'tgan o'quv yilida yaxshi ishlaganliklari ta'kidlansin hamda ular keyingi muddatga saylangan deb hisoblansin.

3. Guruh kasaba uyushmasi byurosining 2020-2021-o'quv yili uchun mo'ljallangan ish rejasи kiritilgan takliflar inobatga olingan holda tasdiqlansin (ish reja majlis bayoniga ilova qilinadi).

ESHITILDI: yig'ilish kun tartibidagi navbatdagi masala bo'yicha guruh sardori Urcheva L.A. axborot berdi. U o'z so'zida guruhda tartib-intizomning bir oz bo'shashganligini, chunonchi o'tgan haftadagi ma'naviyat soatiga ayrim talabalarning faol qatnashmaganligini tanqid qilib o'tdi. Shuningdek, talabalardan O.Karatuba, N.Beresheva, T.Manukyanlar Universitet xiyobonida o'tkazilayotgan shanbaliklarga ham chiqishmaganini aytib o'tdi. U guruh talabalarini o'qishda ham, jamoat ishlarida ham, tartib-intizomda ham faol bo'lishga chaqirdi.

SO'ZGA CHIQDI: guruh talabalaridan I.Chachiyeva, V.Yun, L.Reyxert, I.Konyevalar so'zga chiqishib, ikkinchi masala bo'yicha axborot bergan guruh "Kamolot" YIH yetakchisi L.A.Urchevaning fikrlarini qo'llab-quvvatladilar hamda guruhda tartib-intizomni mustahkamlash yuzasidan o'zlarining takliflari va mulohazalarini bildirdilar.

QAROR QILINDI:

1. Guruhda yangi o'quv yili boshidanoq tartib-intizomning bo'shashganligi qayd etilsin va tartib-intizomni buzuvchilar ustidan doimiy nazorat o'rnatish, amaliy mashg'ulotlar, seminarlardan ulgurmayotgan talabalarga ko'maklashish guruh kasaba uyushmasi byurosining yangi tarkibi a'zolariiga yuklatilsin.

ESHITILDI: yig'ilish kun tartibidagi har xil masalalar bo'yicha guruh oqsoqoli B.Sayfulov so'z olib, dars jadvalidagi o'zgarishlar, obuna hamda dekanat tomonidan berilgan har xil topshiriqlarni talabalarga yetkazdi. Shu bilan guruh kasaba uyushmasi a'zolari yig'ilishi o'z ishini tugatdi.

Yig'ilish raisi:

Dorf T.V.

Yig'ilish kotibi:

Hatamova L.Ch.

Bildirishnoma, bildirish.

Muayyan muassasa (tarkibiy qism) rahbariga xizmat faoliyati bilan aloqador muhim masalalar yuzasidan yoki yuqori idora, mansabdar shaxsga biron-bir voqeа va hodisa huqida xabardor qilish zarurati tug'ilganda taqdim etiladigan yozma axborot.

Kimga yo'naltirilganiga qarab bildirishnoma quyidagi turlarga ajaratiladi.

ICHKI

TASHQI

Bildirishnomaning zaruriy qismlari:

1. Bildirishnoma yo'llangan rahbarning lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari hamda jo'naliш kelishigidagi familiyasi.
2. Bildirishnoma tayyorlagan shaxsnинг lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari hamda chiqish kelishigidagi familiyasi
3. Matn sarlavhasi
4. Hujjat turining nomi
5. Bildirishnomaning matni
6. Qancha varaqligi ko'rsatilgan ilovalar ro'yxati (agar ilovalar bo'lsa).
7. Bildirishnoma tayyorlovchi xodim yoki rahbarning imzosi.
8. Bildirishnoma taqdim etilgan sana

Tarjimai hol

Tarjimai hol ma'lum bir shaxs tomonidan o'z shaxsiy hayoti va faoliyati haqida bayon qilingan yozuvdir. Tarjimai hol bir xil andozaga ega emas, mufassal yoki muxtasar yozilishi mumkin. U muallif tomonidan mustaqil tuziladigan hujjatdir. Giarchi u erkin (ixtiyoriy) tuzilsa-da, biroq tarjimai holda ayrim qismlarning bo'lishi shart.

Ishaxs birlikda yoziladi

O'tgan va hozirgi zamon fe'llari ishlataladi.

HUJJATNING NOMI

MATN

- a) Muallif familiyasi, ismi va otasining ismi;
- b) tug'ilgan yil, kun, oy va tug'ilgan joyi;
- c) millati, ijtimoiy kelib chiqishi;
- d) ota-onasi haqida qisqacha ma'lumot (familiyasi, ismi, otasining ismi, ish joyi);
- e) ma'lumoti (qaerda, qanday o'quv yurtini tugatganligi va ma'lumotiga ko'ra

mutaxassisligi);

- f) ish faoliyatining turlari;
- g) oxirgi ish joyi va lavozimi;
- h) mukofot va rag'batlantirishlar;
- i) jamoat ishlarida ishtiroki;
- j) oilaviy ahvoli va oila a'zolari;
- k) pasport ma'lumotlari;
- l) turar joyi (uy adresi), telefoni.

Sana

Imzo

TARJIMAI HOL

Men , (familiyasi, ismi, otasining ismi), (tug'ilgan sanasi, joyi) _____ oilasida tug'ildim.

(Oila a'zolarining familiyasi, ismi, otasining ismi, ish, o'qish joyi, lavozimi).
(O'zining o'qish, mehnat va jamoatchilik faoliyati uchun olgan mukofotlari).

Bo'ydoqman (turmushga chiqmaganman, _____ ta farzandim bor)

Mening turar joyim:

Sana

Imzo

Ism, familiyasi

TAVSIFNOMA

Ma'lum bir shaxsning mehnat va ijtimoiy faoliyati, shuningdek, uning o'ziga xos xislati va fazilatlarini aks ettiruvchi rasmiy hujjatdir.

Tavsifnomada muassasa ma'muriyati yoki jamoat tashkilotlari tomonidan xodimga bir qancha maqsadlar (o'quv yurtiga kirishda, xorijiy mamlakatlarga ishlash va boshqa yumushlar bilan ketishda, lavozimga tayinlashda va b) uchun beriladi.

Tavsifnomada xodimning jamoatchilik va xizmat faoliyati, uning ishchanligi va axloqiy sifatlari ham ko'rsatib o'tiladi.

Tavsiflanayotgan shaxs haqida umumiy ma'lumotlari

- a) Ismi, otasining ismi va familiyasi;
- b)tug'ilgan yili;
- s) millati;

- d) partiyaviyligi;
- e) ma'lumoti;
- f) lavozimi;
- g) ilmiy darajasi, unvoni

Hujjat nomi

Matn

Imzolar

Sana

Muhr

Tavsiflanayotgan shaxsning ismi,
otasining ismi va familiyasi, tug'ilgan
yili, millati, ma'lumoti, lavozimi

TAVSIFNOMA

Matn

Tavsiflanayotgan shaxsning o'qish, (mehnat) faoliyati, o'z ishiga munosabati,
kasbiy mahortai, dunyoqarashi, axloqi, oilaviy ahvoli, mukofotlari haqida
ma'lumot beriladi va xulosa chiqarilib, tavsifnomada nima maqsadda berilayotgani
ko'rsatiladi.

Fashkilot
rahbari

Imzo

Ism

Muhr

sana

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Ma'lumot-axborot hujjatlari haqida ma'lumot bering.
2. Tarjimai hol qanday yoziladi?
3. Bildirishnomada qanday hujjat hisoblanadi,
4. Tavsifnomada qanday matn va u qanday tuziladi?
5. Tavsifnomaning o'ziga xos xususiyatlari nimada?

Topshiriq:

Tavsifnomada tayyorlang

O'z tarjimai holingizni yozing

Nazariy ma'lumotlar bilan tanishib chiqing

12-BOB: SOHAVIY XIZMAT YOZISHMALARI

Mashg‘ulot rejasি:

1. Xizmat yozishmaları
2. Hujjat turları va xususiyatlari
- 3.Taklifnomma, телеграмма, telefonogramma

Tayanch so‘z va iboralar: xizmat yozishmaları, xizmat xatlari, taklif, xabar, kafolat, so‘rov, tushuntirish, matn, taklifnomma, manzil, tekegramma, telegramma, telefonogramma, yetkazuvchi, qabul qiluvchi.

Muassasalar orasida xizmat aloqalarini amalga oshiruvchi asosiy hujjatdir. Xat orqali bajariladigan masalalar ko‘lami juda keng bo‘lib, bunday yozishmalar vositasida turli ko‘rsatmalar, so‘rovlari, tushuntirishlar, javoblar, iltimoslar, takliflar, xabarlar, kafolatlar beriladi yoki qabul qilib olinadi. Mazmun jihatdan turlicha bo‘lgan bunday hujjatlar umumlashtirilgan holda xizmat xatlari deb yuritiladi. Xizmat xatlari tashkilotda ish yuritish jarayonida qo‘llaniluvchi hujjatlarning umumiy miqdoriga nisbatan 80 foizni tashkil qiladi.

Biror-bir tantanali tadbiriga taklif etishda qo‘llaniladigan yozma axborot.

Taklifnomaning asosiy zaruriy qismi:

1. Hujjatning nomi (taklifnomma).
2. Matn:
 - a) taklifnomma turiga qarab: taklif qilinayotgan shaxsning familiyasi yoki ismi va otasining ismi;
 - b) taklif qiluvchi muassasaning nomi;
 - c) qanday tadbiriga taklif qilinayotganligi.
3. Tadbirning o‘tkazilish sanasi va vaqtisi.
4. O‘tkazilish joyi.
5. Imzo (tadbirni tashkil etgan tashkilotning nomi).

Tadbir bir necha tashkilotlar tomonidan uyushtirilsa, taklif qiluvchilarining nomi matnda alohida-alohida ko‘rsatiladi, lekin taklifnomaning so‘nggidagi imzo o‘rnida tadbirni tashkil etuvchilarini ko‘rsatish shart emas.

Taklifnomalarda tadbirning kun tartibi yoki dasturi ham berilishi mumkin. Ilmiy anjumanlarga mo‘ljallangan taklifnomalarda ko‘pincha alohida ilmiy dastur ilova qilinadi.

Taklifnomalar kompyuterda yoki bosmaxonada ko‘p nusxada tayyorlanadi. Taklif qilinuvchining ismi va familiyasi taklifnomada turiga qarab qo‘yiladi. Chunonchi, rasmiy taklifnomalarda ismi va otasining ismi, familiyaning o‘zi («Nozima Murodovna», K.A.Zufarov), to‘y taklifnomalarida taklif qilinuvchiga yaqinlik munosabatidan kelib chiqib, ismining o‘zi («Qodirjon aka», «Saidburhon aka») yoki unga hurmatlovchi so‘zlar, unvonlar qo‘shib («Domla Azizzon aka», «professor Rustamjon aka») yozilishi mumkin.

TAKLIFNOMA

Taklifnomalar, asosan, rasmiy hujjat sifatida muayyan bir tadbirga ishtirok etish iltimosi mazmunidagi xat hisoblanadi.

Taklifnomalar qanday tadbirga mo‘ljallanganligiga ko‘ra shakl va badii bezatilish jihatidan tayyorlanadi. Masalan, yubiley munosabati bilan tayyorlangan taklifnomada yubilyarning surati, nishonlanayotgan yoshi (70 yil, 100 yil) aks ettirilishi, ba’zan yubiley muallifining she’rlaridan parcha ham berilishi mumkin.

Taklifnomalar matni asosan 3-shaxs tilidan yoziladi va «....taklif qiladi» yoki «..... taklif etadilar » tarzida tugallanadi. Agar taklifnomalar ma’lum bir oila nomidan berilgan bo‘lsa, bunday hollarda matn 1-shaxs ko‘plikda ifodalananadi va albatta, imzo o‘rnida taklif qiluvchi oilaning nomi beriladi.

Shu o‘rinda taklifnomalarda, ayniqsa, to‘y taklifnomalarida noto‘g‘ri qo‘llanadigan iboralar xususida to‘xtalib o‘tish joizdir.

Ba’zi taklifnomalarda «lutfan taklif qilamiz» degan ibora ishlataladi. Bu ibora chaqiriq odobiga zid ekanligi «So‘z xususida so‘z» kitobida (Toshkent, 1987, 136-137-betlar) alohida ta’kidlangan: «Mehmon chaqiruvchi kishi chaqiriluvchiga men sizga lutf qilib mehmonlikka chaqiraman desa, bu odobdan bo‘lmaydi. Chaqiriluvchining ko‘ngliga «Men bunday lutfingga muhtoj emasman», degan fikr kelishi mumkin. Ammo chaqiriluvchi «lutfan chaqirganingiz uchun rahmat» deyishi muomala odobiga muvofiqdir. Agar chaqiruvchi chaqiriluvchiga «Lutfan marhamat qilishingizni so‘rayman» yoki «lutfan tashrif buyurishingizni iltimos qilaman» deb murojaat qilsa, uning hurmatini o‘rniga qo‘ygan bo‘ladi».

O’sha olim taklifnomalarda «tashrif» so‘zi ham ko‘pincha noto‘g‘ri qo‘llanishini qayd etadi. «Tashrif» so‘zinining lug‘aviy ma’nosi «sharaflash», «yuksaltirish»dir. Shunga binoan, ulug‘ kichikning uyiga kelsa, shu bilan kichikning sharafi ortadi, obro‘yi yuksaladi, degan ma’noda bu kelishni «tashrif» deb ataydilar. Shunday ekan, kattaga ham, kichikka ham yuboriladigan taklifnomalarda «tashrif buyurishingizni so‘raymiz» deb yozish mazmun jihatdan noo‘rindir.

Ayrim hollarda taklifnomalarda badiiy tus berilgan quyidagicha jumlalar ham uchraydi: «Sizni farzandlarimiz Alisher va Zumradxonlarning nikoh to‘ylari munosabati bilan 1999-yil 4-dekabr shanba kuni kech soat 19:00 da bo‘ladigan visol oqshomiga taklif etamiz».

«Visol oqshomi» kelin va kuyovning xos kechalaridir. Bunaqa kechalarga odamlarni taklif etish erish tuyiladi.

Bu misollar tashqariga yoziladigan har bir maktubga, xususan, taklifnomalarga ham e ‘tibor va mas’uliyat bilan qarash kerakligini ko‘rsatadi. Garchi to‘y yoki ba’zi marosim taklifnomalari «xizmat yozishmalari»ga kirmasada, mavzu ustida gap ketganligi uchun, foydadan xoli bo‘lmas degan niyatda to‘y taklifnomalaridan namuna keltirdik.

Namuna

Taklifnomा

Hurmatli Sh.A.Ne’matov!

Universiteti ma’muriyati Sizni O‘zbekiston Milliy universiteti tashkil etilganligining 100 yilligiga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilishda qatnashishga taklif etadi.

Tantanali yig‘ilish 2018-yil 5-sentabrda universitetning Madaniyat saroyida o’tkaziladi. Tantanalar soat 10.00 da boshlanadi.

Ma’muriyat

Taklifnomा

Qadrli Mukarram Qobiljonovna!

Maktabimiz o‘quvchilari Sizni ulug‘ o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy ijodiga bag‘ishlangan adabiy kechaga taklif etadi.

Kecha 9-fevral soat 15.00 da maktab majlislar zalida bo‘ladi.

Maktab ma’muriyati

T e l e g r a m m a. Muhim xabarning telegraf orqali berilgan nihoyatda qisqa shakli. U biror muassasadan ikkinchisiga yo‘llangan rasmiy hujjat hisoblanadi. Xizmat yozishmalarining boshqa turlari belgilangan manzilga xabarni o‘z vaqtida

yetkazishni ta'minlay olmasa, bunday hollarda xabarni zudlik bilan yetkazish uchun telagrafdan foydalilanildi.

Telegraf yozishmalari faqat turli shahar yoki aholi yashaydigan joylardagi muassasa, shuningdek, shaxslar orasida bo'ladi. Telegrammaning boshqa ish qog'ozlaridan farqi uning o'ziga xos ixchamligi va qisqaligidir. Xizmat telegrammalari ikki nusxada tayyorlanadi. Birinchi nusxa jo'natish uchun aloqa bo'limiga topshiriladi, ikkinchi nusxa esa, korxonaning o'zida saqlash uchun qoldiriladi.

Telegramma, qoidaga binoan, maxsus bosma ish qog'ozlarida rasmiylashtiriladi. Xizmat telegrammalarining matni ko'pincha odatdag'i qog'ozga bosh harflar bilan ikki intervalda yoziladi. Telegramma jo'natuvchining adresi, mansabдор shaxsning imzosi va sana kichik harflar bilan yoziladi. Qo'lda yozilganda, harflar yirik-yirik, so'zlar orasi esa aniq va ravshan bo'lishi kerak. Telegramma bosma ish qog'ozining yoki oq qog'ozning faqat bir tomoniga yoziladi.

Telegramma matni «telegraf uslubi» deb yuritiluvchi qisqa va siqiq uslubda yoziladi. Unda to'lqsiz gaplardan keng foydalilanildi, sifatlar, ravishlar, yordamchi so'zlar, tinish belgilari faqat zarur bo'lgandagina, ya'ni ularsiz gapning mazmuni o'zgarib ketsa yoki ikki xil ma'noda qabul qilinsagina qo'llanadi, boshqa barcha hollarda ular tushirilib qoldiriladi. Xabarni bayon qilishda ixcham so'zlarni tanlash, qisqartmalardan unumli foydalanish lozim. Til birliklarini tejash telegraf uslubining eng asosiy talablaridan biridir. Telegrammada bir satrdan ikkinchi satrga bo'g'in ko'chirilmaydi.

Xatboshisiz barcha qatorlar toldirib yoziladi. Kunlar va raqamlarni so'z (harflar bilan yozish tavsiya etiladi. Bir necha raqamdan iborat bolgan murakkab sonlarni o'zicha yozish mumkin.

Telegrammaning asosiy zaruriy qismlari:

1. Hujjatning nomi (telegramma).
2. Turi haqidagi belgi (hukumat telegrammalari, xalqaro telegrammalar, shoshilinch va oddiy telegrammalar).
3. Telegramma yetib borishi zarur bo'lgan joyning manzili, uni oladigan shaxsning ismi va familiyasi.
4. Matn.
5. Jo'natuvchi muassasaning qisqacha nomi va matnnini imzolagan mansabдор shaxsning familiyasi (imzo emas).
6. Xabar jo'natuvchining manzili.

7. Matn kimning nomidan jo'natilayotgan bolsa, o'sha shaxsning imzosi.
8. Muhr.
9. Sana.

Telegrammaning matni manzildan ajralib turishi kerak. Agar telegramma javob tariqasida yuborilgan bo'lsa, matn oldidan javob qaytarilayotgan hujjatning shartli raqami (indeksi), matn oxirida esa jo'natma shartli raqami yoziladi.

Telegrammalardan shaxsiy maqsadlarda ham keng foydalaniлади. Улар тузилишига ко'ра xizmat telegrammalaridan keskin farq qilmaydi.

Telegrammaning har bir so'zi uchun pul to'ланади, narxi uning turiga va so'zlar miqdoriga bog'liq.

T e l e f o n o g r a m m a. Shoshilinch xabarning matnni belgilangan joyga telefon orqali yetkazishdir. Telefon vositasida bo'ladigan bunday muloqot rasmiy hujjat sifatida qabul qilinadi va ish qog'ozining bir turi hisoblanadi. Xizmat muomalasining bu turi ko'pincha shahar yoki rayonda joylashgan muassasalar o'rtaсиda amalga oshiriladi. Xizmat muomalasining bu turi ko'pincha bir shahar yoki tumanda joylashgan muassasalar o'rtaсиda qo'llaniladi.

Har qanday telefonogramma bir nusxada tayyorlanib, rahbar yoki mas'ul shaxs tomonidan imzolanadi, odatda, tayyor matn asosida yetkaziladi.

Telefonga chaqirilgan kishi telefonogramma berilishi haqida ogoh etilishi va u qabul qilishga tayyor bo'lgach, matn qabul qiluvchi uni yozishga ulguradigan sur'atda bayon qilinishi kerak.

Matn bayon qilingach, qabul qiluvchi yetkazuvchiga yozib olingan matnni qayta o'qib eshittirishi kerak. Har ikki tomon telefonogramma matni to'g'ri qabul qilinganligiga ishonch hosil qilgach, qabul qiluvchi telefonogramma berilish vaqt va sanasini, shuningdek, yetkazuvchining lavozimi, ismi va familiyasini ko'rsatishi shart.

Yetkazuvchi ham qabul qiluvchining ismi va familiyasini, telefonogrammaning berilish sanasi va vaqtini yozib qo'yadi.

Telefonogramma matnni tayyorlashda mantiqan to'g'ri va qisqa (matndagi so'zlarning soni 50 dan ortmasligi kerak) bo'lishiga, murakkab jumlalar yoki juda kam ishlatalidigan so'zlar qo'llanmasligiga e'tibor berish lozim.

Telefonogramma qabul qiluvchi, qabul qilingan xabar kimga tegishli bo'lsa, uni telefonogramma mazmuni bilan tanishtirishi kerak.

Telefonogrammaning asosiy zaruriy qismlari:

- 1 Manzil.
2. Hujjatni yo'llovchi muassasaning nomi.

3. Telefonogrammani yetkazuvchi va qabul qiluvchining lavozimi, ismi, familiyasi, telefon raqamlari.
4. Qabul qilish vaqt.
5. Nomi.
- b. Tartib raqami.
7. Sana.
8. Matn.
9. Imzo chekkan shaxs.

Telefonogrammani yozib olishda tayyor bosma ish qog'ozlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

"Mahalla" jamg'armasi

SamDU qoshidagi akademik

Yetkazuvchi – kotiba

litsey ditektoriga

Botirova.

Qabul qiluvchi – kotiba

Tel: 94-61-24

Shadyarova.

Tel: 46-36-95 soat 14:30

TELEFONOGRAMMA

2020.18.04.Samarqand

№ 16

Respublika "Mahalla" jamg'armasi hay'ati boshqaruvi yig'ilishi qaroriga ko'ra litseyingizga bir dona IBM PC – 150 rusumli kompyuter ajratildi. Uni qabul qilib olish uchun Siz ishonchnoma bilan o'z vakilingizni yuborishingiz lozim.

Jamg'arma raisi

I.Salimov

I-topshiriq. Telefonogrammani o'qing, shu asosda Yoshlar ijtimoiy harakatining yillik hisobot yig'ilishi bo'lishi haqida telefonogramma namunasini yozing.

Esda saqlang! Telefonogramma orqali belgilangan joyga shoshilinch xabar matni yetkaziladi. Bunday matn bir nusxada tayyorlanadi, rahbar yoki mas'ul shaxs tomonidan imzolangach, tegishli joyga telefon orqali yetkaziladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Taklifnoma, telegramma, telefonogrammalar haqida qanday ma'lumotga egasiz?
2. Xatlar nimani anglatadi?
3. Telegrammaning asosiy zaruriy qismlari
4. Taklifnomaning asosiy zaruriy qismlari
5. Telefonogrammaning asosiy zaruriy qismlari

GLOSSARIY

Manzil - muayyan joyning joylashgan yeriga aniqlik kirituvchi ma'lumot.

Taklifnama - biror-bir tantanali tadbirga taklif etish uchun qo'llaniladigan yozma axborot.

Telegramma - yuridik shaxslar va xodimlarga biror ma'lumotni yetkazuvchi hujjat.

Telefonogramma - shoshilinch xabarning matnini belgilangan joyga telefon orqali yetkazish. Yuridik shaxslar va xodimlarga biror tadbirni tashkil etishga chaqirish hujjati.

Modemogramma - o'ta maxfiy yoki shoshilinch xabarning matnini belgilangan joyga internet elektron pochtasi orqali yetkazish.

Guvochnoma muayyan shaxsning xizmat va boshqa holattarini, shuningdek, biror ishga oid vakolatini ko'rsatuvchi hujjatdir.

Yo'rqnoma qonun yoki boshqa me'yoriy hujjatlarni tushuntirish maqsadida chiqariladigan huquqiy hujjatdir.

Nizom-ustav tashkilot yoki uning tarkibiy bo'linmalari, kichik yoki qo'shma korxona va shu kabilar tuzilishi, huquqi, vazifalari, burchlari, ishni tashkil qilishlari tartibini belgilaydigan huquqiy hujjatdir.

Ustav muayyan munosabat doirasidagi faoliyat yoki biror davlat organi, tashkilot, muassasaning tuzilishi, vazifasini yo'naltirib turadigan asosiy nizom va qoidalar majmuidir.

Shartnomma ikki yoki undan ortiq fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqiy munosabatlari, majburiyatlar va boshqalarni belgilash, o'zgartirish yoki to'xtatishni nazarda tutadi. Shartnomalar davlatlararo, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, xususiy korxonalar va hatto fuqarolar o'rtasida ham tuzilishi mumkin.

Tashkiliy hujjatlar mazmunan tashkilot, muassasa va korxonalarning huquqiy maqomi, tarkibiy tarmoqlari va xodimlari, boshqaruv jarayonida jamoa ishtirokining quyd qilinishi, boshqa tashkilotlar bilan aloqalaming huquqiy tomonlari kabi masalalami aks ettiradi. Guvochnoma, yo'rqnoma, nizom-qoida, ustav, shartnomalar ana shunday hujjatlar sirasiga kiradi.

Buyruq korxona, tashkilot, muassasa rahbari tomonidan chiqariladigan rasmiy hujjat. Uning asl nusxasi O'zbekiston Respublikasi gerbi tushirilgan maxsus xos qog'oz(blank)ga rasmiylashtiriladi.

Farmoyish korxona ma'muriyati hamda bo'limlar rahbarlari tomonidan amaliy masalalar yuzasidan qabul qilinadigan hujjatdir.

Ko'rsatma korxonalarda axborot metodik tusdag'i masalalar, shuningdek, buyruqlar, yo'rqnomalari va boshqa hujjatlarning ijrosi bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy masalalar yuzasidan chiqariladigan huquqiy hujjatdir.

Kadrlar shaxsiy tarkibiga oid buyruqlarda xodimlarni ishga olish, ishdan bo'shatish, boshqa lavozim yoki ishga o'tkazish, rag'batlantrish, mehnat ta'tili berish, mehnat ta'tilidan chaqirib olish kabilar rasmiylashtiriladi.

Buyruqdan ko'chirmada buyruqning far moyish qismidan faqat aniq holat uchun zarur bo'lgan ma'lumot olinadi. Buyruqdan ko'chirma, odatda, blankaga yozilib, tasdiqlab beriladi. «Asliga to'g'ri» so'zi bilan kotib (yoki buyruqdan ko'chirma beruvchi shaxs) imzo chekadi.

Ma'lumot-axborot hujjatlari anchayin katta guruhni tashkil qiladi, ular ish yuritish jarayonida ayniqsa ko'p ishlataladi. Bu guruh ariza, bayyon nomma, bildirish nomma, vasiyat nomma, dalolat nomma, ishonch nomma, ma'lumot nomma, tavsif nomma, tavsiyat nomma, taklif nomma, tarjimayi hol, tushuntirish xati, e'lon, hisobot kabi hujjatlami o'z ichiga oladi.

Ariza ma'lum bir davlat tashkiloti, xususiy korxona, huquqni muhofaza qilish idoralari rahbarlari, mansabdor shaxslar nomiga iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjat.

Shikoyat arizasi kelib tushgan tashkilot tomonidan tegishli tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi.

Majlis bayoni yoki bayonna ma'anijuman, majlis, yig'ilish, kengash va boshqa shu kabi tadbir larning borishini, unda ishtirok etuvchilar, qatnashchilar ning nutq va chiqishlari hamda shu yig'inda qabul qilingan qarorlarni qayd qiluvchi rasmiy hujjat hisoblanadi.

Majlis bayonidan ko'chirma olinganda uning talab qilingan masalaga oid qismi - asosiy nutq, muhokamadagi chiqishlar hamda mavzu yuzasidan qabul qilingan qarorlar qismi yig'ilish raisi va kotibi imzosi bilan tasdiqlangan holda beriladi.

Xizmat yozishmalari muassasalar orasida xizmat aloqalarini amalga oshiruvchi asosiy hujjatdir. Xat orqali bajariladigan masalalar ko'lami juda keng bo'lib, bunday yozishmalar vositasida turli ko'rsatmalar, so'rovlari, tushuntirishlar, javoblar, iltimoslar, takliflar, xabarlar, kafolatlar beriladi yoki qabul qilib olinadi.

Taklifnomma biror-bir tantanalı tadbirga taklif etishda qo'llaniladigan yozma axborot.

Telegramma - muhim xabarning telegraf orqali berilgan nihoyatta qisqa shakli. U biror muassasadan ikkinchisiga yo'llangan rasmiy hujjat hisoblanadi.

«**Telegraf uslubii**» qisqalikni anglatadi. Unda to'liqsiz gaplardan keng foydaliladi, sifatlar, ravishlar, yordamchi so'zlar, tinish belgilari faqat zarur bo'lgandagina, ya'ni ularsiz gapning mazmuni o'zgarib ketsa yoki ikki xil

ma'noda qabul qilinsagina qo'llanadi, boshqa barcha hollarda ular tushirilib qoldiriladi.

T e l e f o n o g r a m m a - shoshilinch xabar matnini belgilangan joyga telefon orqali yetkazishdir. Telefon vositasida bo'ladigan bunday muloqot rasmiy hujjat sifatida qabul qilinadi va ish qog'ozining bir turi hisoblanadi.

Manzil - muayyan joyning joylashgan yeriga aniqlik kirituvchi ma'lumot.

Da'vo xati - ma'lum bir muassasaning boshqa bir idora yoki transport tashkilotlariga nisbatan talab va e'tirozlar bayon qilingan xatlardir. Da'vo xatlari tovar yetkazib berish, qurulish ishlari, ijara, yuk tashish va shu kabi bir qancha ishlar bo'yicha tuzilgan shartnomalar bajarilmay qolganda, o'z qonuniy huquqlarini va manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuziladi.

Xatning mavzusi U imkon qadar aniq va ma'lumotli bo'lishi kerak. Maktubni yozish uchun asos bo'lgan hujjatning nomi va raqami mavzuda aks etishi maqsadga muvofiq.

Xulosa Xatning ushbu qismida sizning talablarining ko'rsatilgan: zarar, mahsulotning qo'shimcha nuxalarini yetkazib berish - bu shartnomaga shartlariga bog'liq.

Tijorat xatlari yozilish uslubi, gap qurilishi, so'z birikmalari jihatidan ko'proq diplomatik hujjatlarga yaqin turadi. Ular mujmal, noaniq fikrdan xoli bo'lishi, izchil va tugal takliflarni yoritishi, eng muhimmi, iliq, iltifotli, samimiy ruhda bayon etilishi lozim.

Iltimos xat Muassasalar ma'lum bir ishni amalga oshirish yoki tugatish maqsadida boshqa bir muassasalarga rasmiy xat orqali iltimos qilishi mumkin. Muassasalar o'rtafigi bunday o'zaro yozishmalar iltimos xat vositasida bajariladi. Iltimos xat xizmat xatlari orasida eng ko'p tarqalgan turlardan hisoblanadi.

K a f o l a t x a t i - muayyan bir shart yoki va'dani tasdiqlash maqsadida tuziladi. Xatlarning bu turi qoidaga ko'ra bajarilgan ish uchun haq to'lashda, ishning bajarilish muddati haqida, turar joy bilan ta'minlashda, ishga qabul qilishda, bajarilgan ishning sifati haqida kafolat berish uchun tayyorlanadi va tashkilot yoki alohida shaxslarga jo'natiladi.

S o'rov xati Javob talab qiladigan bunday yozishmalarda ma'lumotlar, hujjatlar yoki boshqa zaruriy narsalar so'raladi. Birgina xatda turli masalalarga doir bir necha so'rovlardan aks etmasligi kerak. So'rov xati, odatda, ikki asosiy qismdan-kirish va xulosadan iborat bo'ladi.

So'rov (xati) - tijorat hujjati bo'lib, xaridorning sotuvchiga, chetdan mol oluvchi (importchi)ni chetga mol chiqaruvchi (eksportchi)ga tovar (xizmat va boshqalar) haqida muxtasar ma'lumot berishni so'rab yoki tovar yetkazib berishni taklif etib murojaat qilishini o'zida aks ettiradi.

Tovar (xizmat)ning nomi, shuningdek, mol oluvchining tovarni olish shartlari, ya’ni tovarning miqdori va sifati, andozasi, turi (markasi), bahosi, yetkazib berish muddati va to’lov shartlari so’rovda ko’rsatiladi. So’rovning bu turi shartnoma hujjatlari guruhiga kiradi va undan bitimni tayyorlash va amalgamoshirish jarayonida foydalaniladi.

Taklif (oferta). Agar sotuvchi xaridorning talabini bordaniga qondirishi, ya’ni o’nga tovar yetkazib berish imkoniyatiga ega bo’lsa, xaridorga taklif (oferta) yo’llaydi. Agar xaridor taklif shartlariga rozi bo’lmasa yoki taklif etilayotgan tovarni sotib olishga qiziqmasa, uni qabul qilishdan bosh tortadi.

Tasdiq xati yordamida tomonlardan biri ikkinchisini quyidagilar to’g’risida xabardor qilishi mumkin: shartnoma tuzishga roziligi, har qanday masalani hisobga olgan holda qaror qabul qilish, hujjatlar, tovarlar, pul va boshqalar.

Tasdiq xatini yuborishning ishonchli va sodda yo’li – xabarni yetkazib berilganligi to’g’risida bildirishnomasi bilan ro’yxatdan o’tgan pochta orqali yuborish. Bu usul yuboruvchiga uning xabari qabul qiluvchiga yetkazilganiga ishonch hosil qilish imkonini beradi, bunda bitta muammo mayjud – hatto, bitta aholi punktida ham xat bir necha kun yoki haftada kelishi mumkin.

Samarali vosita bir vaqtning o’zida ikkita variantdan foydalanish: masalan, xat nusxalarini elektron pochta va oddiy pochta orqali yuborish.

Xatda bayon qilingan masalalar bo’yicha javobgarlik bir necha shaxs zimmasiga yuklatilgan bo’lsa, imzolar soni ikki yoki undan ortiq bo’lishi mumkin (masalan, to’lov haqidagi kafolatnomalarda, moliyaviy hujjatlarda). Xatda imzolar ma’lum tartib asosida, ya’ni egallab turgan lavozimiga ko’ra joylashadi. Imzodan so’ng imzo chekuvchining familiyasi qavsga olinmay, ismi va ota ismining bosh harflari familiyadan oldin yoziladi.

F a r m o y i s h x a t i. Bir tarmoqqa tegishli qui muassasalarning barchasiga yo’llanadigan rasmiy hujjatdir. Farmoyish xatlar xizmat aloqalarining ko’pgina sohalarida qo’llaniladi. Ularning asosiy vazifasi aynan bir xil mazmundagi xabarni bir necha manzilga yetkazishdir.

E s l a t m a x a t i. Jo’natilgan iltimos va so’rov xatlarga javob olinmasa, shuningdek, tuzilgan shartnomalar muddati buzilganda yoki unga amal qilinmagan hollarda eslatma xat yuboriladi. Mazkur xatlar mazmun jihatidan uncha katta bo’lmaydi. Ular mazmun va hajm jihatidan telegrammalarga yaqin turadi. Odatda, eslatma xat bir yoki bir necha jumladan iborat bo’lib, kotib yoki referent tomonidan tasdiqlanadi.

Va’z- arabcha targ’ib qilish, pand-nasihat degan ma’nolarni anglatadi.

Voiz -va’z aytuvchi, nutq so’zlovchi shaxs

Nutq madaniyati- til normalarini egallamoq, ya'ni talaffuz, urg'u, so'z ishlatis, gap tuzish qonun-qoidalarini yaxshi bilmoq, tilning tasviriy vositalaridan har xil sharoitlarga mos va maqsadga muvofiq foydalana olish, ifodali o'qish va so'zlay olish madaniyatini egallah .

Tasvir Nutqda ifodalangan narsa yoki hodisani maxsus til vositalari orqali xarakterlash uning xususiyatlarini sifatlarini ko'rsatish usuli.

TEST SAVOLLARI

1. Qaysi uslubda qo'shma gaplar faol qo'llanadi ?
 1. Ilmiy uslubda
 2. Rasmiy uslubda
 3. Ommabop uslubda
 4. Badiiy uslubda
2. So'zlashuv uslubi nechaga bo'linadi va qaysilari ?
 1. 2 ga og' zaki va adabiy so'zlashuv uslubi
 2. 2 ga rasmiy va ilmiy uslub
 3. 2 ga og'zaki va ilmiy uslub
 4. 2 ga adabiy va rasmiy uslub
3. Ma'lumot – axborot hujjati Bayonnomma nechta asosiy zaruriy qismdan iborat?
 1. 9 ta
 2. 11 ta
 3. 8 ta
 4. 12 ta
4. Rasmiy uslubda qanday matnlar tuziladi ?
 1. E'lonlar, she'rilar, romanlar
 2. Qarorlar, idora hujjatlari, dostonlar
 3. Hujjatlar, ish yuritish qog'ozlari
 4. E'lonlar, qarorlar, qonunlar
5. Quyidagi matn qaysi uslubga mansub ?

Men dunyoga kelgan kundanoq
Vatanim deb seni uyg'ondim .
Odam baxti birgina senda
Bo'lurida mukammal qondim.

 1. So'zlashuv uslubi
 2. Rasmiy uslub
 3. Badiiy uslub
 4. Publisistik uslub
6. Ilmiy uslubga xos hususiyat?
 1. So'z va atamalarni ko'proq qo'llash
 2. Ko'chma ma'noli so'zlarni qo'llash

3. Eskirgan so‘zlarni qo‘llash
 4. Neologizmlarni qo‘llash
7. Hujjatlar tuzilishiga ko‘ra necha turga bo‘linadi?
1. Ichki va tashqi hujjatlar
 2. Sodda va murakkab hujjatlar
 3. Namunaviy va qolipli hujjatlar
 4. Rasmiy va shaxsiy hujjatlar
8. Tashkiliy hujjatlarga qaysi hujjatlar kiradi ?
1. Buyruq, buyruqdan ko‘chirma, ko‘rsatma, farmoyish
 2. Ariza, bayonna, bildirishnom, dalolatnom
 3. Guvohnom, yo‘riqnom, nizom , ustav, shartnom
 4. Adres, taklifnom, telegramma, xatlar
9. Qaysi uslub uchun frazeologik birikma ishlatalishi xos emas?
1. Ilmiy va badiiy
 2. Badiiy va rasmiy
 3. Ilmiy va rasmiy
 4. So‘zlashuv va ilmiy
10. Adabiy meyorning qanday ko‘rinishi mavjud?
1. Og‘zaki va yozma
 2. Imloviy
 3. Uslubiy
 4. Fonetik
11. Hujjat matni qanday talablar asosida ko‘riladi?
1. Xolislik, aniqlik
 2. Ixchamlik, lo‘ndalik
 3. Mazmuniy to‘liqlik
 4. Barcha javoblar to‘g’ri
12. Adabiy normaning qanday ko‘rinishlari mavjud?
1. Og‘zaki va yozma
 2. Dialektal norma
 3. Jargonlar normasi

4. Uzus

13. Qaysi uslubda atamalar kamroq qo'llaniladi?

1. Ommabop uslubda
2. Ilmiy – ommabop uslubda
3. Badiiy uslubda
4. Rasmiy uslubda

14. Badiiy uslubga xos xususiyat qaysi javobda berilgan?

1. Tasviriy vositalarni qo'llamaslik
2. Badiiylik, atamalarni qo'llash
3. Soddaik , tantanavorlik
4. Obrazlilik , estetik ta'sir etish vazifasi

15. Qonun matnlari, farmonlar, buyruqlar, ariza... kabi hujjatlar qaysi uslubda yoziлади?

1. Badiiy uslubda
2. So'zlashuv uslubda
3. Ilmiy uslubda
4. Rasmiy uslubda

16. Berilgan matndagi o'xshatishlarni aniqlang :

Okoplardan yov chiqadi

Och bo'riday uvlashib.

Orqasidan ajal quvgan

Tentakliday kulishib.

1. Ajal quvgan
2. Och bo'riday, ajal quvgan tentakliday
3. Tentakliday
4. Ajal quvgan tentakliday

17. Ma'muriy – boshqaruv faoliyatida xizmat mavqeiga ko'ra hujjatlar qanday guruhlarga bo'linadi?

1. Tashkiliy , farmoyish hujjatlar
2. Ma'lumot – axborot hujjatlari
3. Xizmat yozishmalari
4. Barcha javoblar to'g'ri

18. So‘zni ko‘p so‘zlamay, sizlab ayt, oz-oz,

Tuman so‘z tuginin shu bir so‘zda yoz. misralari kimga tegishli?

1. Xisrav Dehlaviy
2. Navoiy
3. Yusuf Hos Hojib
4. Bobur

19. Farmoyish hujjatlar guruhiga qanday hujjatlar kiradi?

1. Guvohnoma, Yo‘riqnomा, Dalolatnoma
2. Buyruq, Ko‘rsatma, Farmoyish
3. Farmoyish, Ariza, Bayonnomा
4. Hisobot, Buyruq, Dalolatnoma

20. Ma’lumot – axborot hujjatlar guruhiga qaysi hujjatlar kiradi?

1. Ariza, Bayonnomা, Bildirishnomা, Dalolatnoma
2. Guvohnoma, Hisobot, Tilxat, Buyruq
3. Ma’lumotnomа, Sharhnomа, E’lon, Vasiyatnomа
4. E’lon, Hisobot, Buyruq, Ariza

21. “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonun qachon qabul qilingan?

1. 1992-yil 3-mart
2. 1989-yil 21-oktabr
3. 1993-yil 2-sentabr
4. 1993-yil 6-may

22. Turkiy o‘zbek tilning rivojida kimning hissasi katta?

1. Alisher Navoiy
2. Amir Temur
3. Ahmad Yassaviy
4. Zahiriddin Muhammad Bobur

23. Yusuf Xos Hojib qaysi asarning muallifi?

1. Qutadg‘u bilig
2. Hibbatul haqoyiq
3. Devonu lug‘atit turk
4. Xamsa

24. O'zbek tili qaysi tillar oиласига кирди?

1. Oltoy tillar oиласининг туркий туркумига
2. Hind-европа tillари оиласининг ерон туркумига
3. Hind-европа tillари оиласининг славян tillари туркумига
4. Oltoy tillar oиласининг ерон туркумига

25. Matn nima?

1. Gap
2. So'z
3. Tinish belgilari
4. Bir yoki bir necha sintaktik birliklardan tashkil topgan nutqiy butunlik

26. Ma'lumot-axborot hujatlaridan Ariza nechta zaruriy qismdan iborat?

1. 9 ta
2. 11 ta
3. 7 ta
4. 10 ta

27. Rasmiy ishonchnomanining nechta zaruriy qismdan iborat?

1. 9 ta
2. 11 ta
3. 8 ta
4. 10 ta

28. 1995-yilda qabul qilingan imlo qoidasiga ko'ra quyidagi so'zlarning qaysi biri ajratib yoziladi?

- A) yarim avtomat B) bug'doy rang
C) janubi g'arb D) sovuq mijoz

29. Davlat tili tushunchasiga berilgan to'g'ri ta'rifni toping.

- A. Davlat tili — siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda ma'lum bir davlatda integratsiya (birlashtiruvchi) vazifasini amalga oshiradigan, shuningdek ushbu davlatning ramzi sanaladigan tildir.
B. Siyosiy, ijtimoiy sohalardagi til
C. Madaniy sohalardagi til
D. Davlatning ramzi sanaladigan til

30. Rasmiy til tushunchasiga berilgan to'g'ri ta'rifni toping.
- A. Adabiy til me'yordagi
 - B. Rasmiy til – davlat boshqaruvi, qonunchilik, sud jarayoni tilidir.
 - C. Davlatning milliy tili
 - D. Davlat boshqaruvidagi til
31. Davlat tili to'g'risidagi Qonun nechanchi yilda qabul qilingan?
- A. 1989-yil 21-oktabr
 - B. 1989-yil 20-oktabr
 - C. 1987-yil 19-noyabr
 - D. 1986-yil 15-avgust
32. "Milliy tilni yo'qotmak millat ruhini yo'qotmakdur. Ushbu fikr muallifi kim?"
- A. Abdulla Avloniy
 - B. Abdulla Qahhor
 - C. Beruniy
 - D. Hamza Hakimzoda Niyoziy
33. O'zbek adabiy tili me'yorlari ilmiy asarlarda qanday tasnif qilinadi?
- A. Leksik-semantik me'yorlar, talaffuz (arfoepik) me'yor, yozuv (arfografik) me'yor
 - B. Fonetik me'yor, Aksentologik (urg'uni to'g'ri qo'yish) me'yori, imloviy me'yor, punktuatsion me'yor
 - C. Grammatik (morfologik, sintaktik) me'yor, so'z yasash me'yorlari, uslubiy me'yor.
 - D. Barcha javoblar to'g'ri
34. Xususiy me'yorlar ko'rsatilgan javobni belgilang.
- A. Dialektik me'yor, so'zlashuv me'yori
 - B. Dialektik me'yor, so'zlashuv nutqi me'yori, Argolar, jargonlar me'yori, adabiy til me'yori (adabiy me'yor)
 - C. Adabiy til me'yori (adabiy me'yor)
 - D. Argolar, jargonlar me'yori.
35. Adabiy til qanday shakllarga ega?
- A. Yozma va og'zaki
 - B. Yozma, ijodiy

C.Og‘zaki, tavsifiy

D.Ijodiy, og‘zaki

36. Insonning nutqiy faoliyatni necha ko‘rinishda bo‘ladi?

A. 2 ko‘rinishda

B. 3 ko‘rinishda

C.4 ko‘rinishda

D. 6 ko‘rinishda

37. Og‘zaki adabiy tilga keltirilgan to‘g’ri misollar qatorini belgilang.

A. Radio, televideniyada uzatiluvchi jurnalist nutqi

B.Nashrlarda ifoda etilgan matn ko‘rinishi

S.Rasmiy uslubda ifoda etilgan nutq

D.Badiiy asarlarda qo‘llanilgan bo‘yoqdor so‘zlar

38 Tarkibida no-, ba-, be kabi old qo‘sishchalarini ishtirok etgan so‘zlar qaysi tildan olingan so‘zlar?

A.Fors-tojikcha

B.Turkcha

C.Arabcha

D.Italyan

39. O‘zbek tilining ijtimoiy-siyosiy terminologiyasi, qachondan boshlab rus tilidan va yevropa tillaridan kirgan o‘zlashmalar hisobiga boyiy boshladi?

A. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab

B.XX asrdan boshlab

S.XV asrdan boshlab

D.XI asrdan boshlab

40.Ijarachi, ishsizlik, uyushma, tejamkor, iqtisodiyot, tadbirkor, bojxona, qarzdor, boylik keltirilgan terminlar qaysi sohaga oid terminlar hosoblanadi?

A. Iqtisodiyot

B. Moliya

C. Tarix

D. Adabiyot

41. and, buzun, baæ, boæun (“jamoa” ma’nosida), bachèg’ (“ahd” ma’nosida), beg, æarlèg’, boæ (“qabila” ma’nosida), æag‘è, bulg‘aq (“fitna”

ma'nosida), æer ("mamalakat" ma'nosida) va hokazo kabi terminlar qaysi asarda qo'llanilgan?

- A. M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida
 - B. Yusuf Xos Hojibning "Devonu lug'atut turk" asarida
 - C. Ahmad Yugnakiy "Hibat-ul haqoyiq" asarida
 - D. A.Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida
42. O'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy terminologik lug'ati nechanchi yillarda nashr etilgan?
- A.1976-yilda
 - B.1980-yilda
 - C.1981- yilda
 - D.1983-yilda
43. Roman, qissa, hikoya kabi janrlar qaysi uslub asosida yuzaga keladi ?
- A) ilmiy uslubda
 - B) rasmiy uslubda
 - S) publitsistik uslubda
 - D) badiiy uslubda
44. O'zbek tilining imlo qoidalari nechanchi yilga qabul qilingan
- A) 1995-yil 29 avgust
 - B) 1995- yil 24- avgust
 - S) 1995-yil 2-sentyabr
 - D) 1995 yil 21- dekabr
45. Stilistika bo'limi nimani o'rgatadi?
- A) Ushublarni
 - B) Rasmiy uslublarni
 - S) So'z turkumlarini

D) To`g`ri javob yo`q

46. Tilxat, ariza, bayonnomma qaysi uslubda yoziladi ?

A) rasmiy uslubda

B) badiiy uslubda

C) Og`zaki uslubda

D) Ilmiy uslubda

**47.O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24- avgustdagagi
339- sonli qarori nima haqida edi?**

A) to`g`ri yozish qoidasi

B) o`zbek tilidan lotin tiliga o`tish haqida

C) o`zbek tilining asosiy imlo qoidalari haqida

D) lotin tiliga o`tish to`g`risida

48.Iqtisodiyot, bank, kredit, monitoring, kvota so`zlar qanday so`zlar hisoblanadi?

A.Arxaik so`zlar

B.Tarixiy so`zlar

C.Yangi so`zlar

D.Boshqa tillardan kirib kelgan so`zlar

49. Qozi, redaktor, redaksiya, ellikkoshi, ollomon, ma`naviyat, kitob, bilim, ash`or, adabiyot, badiiyat, ilm. Ushbu so`zlar qatoridan bugungi kunda iste'moldan chiqqan so`zlarni toping.

A. Qozi, redaktor,redaksiya

B. Ellikkoshi, olomon

C. Ma`naviyat, kitob, badiiyat

D. A va B javoblar

50. Ellikboshi beto'xtov aminga xabar qilmoqchi bo'lib chiqib ketdi. Gap tarkibidan tarixiy so'zlarni toping.

- A.beto'xtov aminga
- B. ellikboshi aminga
- C.xabar qilmoqchi
- D.chiqib ketdi.

51. Farmoyish hujjatlari qanday hujjatlar hisoblanadi ?

- A.Ma'lumot-axborot hujjatlari
- B.Hisobot shaklidagi hujjatlar
- C.Tashkiliy hujjatlar
- D.Boshqaruvga doir huquqiy hujjat

52. Farmon qanday hujjat sanaladi?

- A.1) Muayyan mamlakatlarda davlat boshlig'i
- B.(Prezident) chiqaradigan muhim huquqiy hujjat.
- C.Tashkilot uchun zarur hujjat
- D.A va B javoblar

53.Nutq boyligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi holatlar - bu

- A. Takror so'zlar, takror qo'shimchalar, lug'at boyligining sayozligi, sinonimlardan o'rini foydalanmaslik
- B. Sinonimlardan o'rini foydalanmaslik, o'zlashgan baynalmilal iqtisodiy so'zlar, takror qo'shimchalar
- C. Takror qo'shimchalar, o'zlashgan baynalmilal iqtisodiy so'zlar, adabiy til me'yorlari
- D. Takror so'zlar, lug'at boyligining sayozligi, adabiy til me'yori, jargonlar va argolar.

54. Nutq odobi nima?

- A. ma'no ifodalovchi gap birligi.
- B. adabiy normadagi nutq.
- S. adabiy normadagi gap.

D. oliv ma'lumotlarga ega bo'lish.

55. Nutq aniqligi -bu

- A. So'zning tildagi ma'nosiga tamomila muvofiq tarzda.
- B. barcha kommunikativ sifatlarning poydevori.
- C. nutqning adabiy til me'yorlariga xos bo'lishi.
- D. so'z va gaplarning bir- biriga muvofiq kelishi.

56. Nutqning boyligi qachon yuqori bo'ldi?

- A. takrorlar ko'p ishlatalgan bo'lsa
- B. Ta'sirchan nutq
- C. Ifodalii nutq
- D. Takrorlar kam ishlatalgan bo'lsa

57. Nutqning kommunikativ sifatlari - bular

- A. Nutqning to'g'riliqi, nutqning sofligi, nutqning mantiqiyligi, nutqning aniqligi
- B. nutqning sofligi, nutqning mantiqiyligi, takror so'zlar, badiiy so'zlar
- C. nutqning aniqligi, adabiy so'zlar, nutqning aniqligi nutqning sofligi
- D. nutqning mantiqiyligi, takror so'zlar, badiiy so'zlar, nutqning to'g'riliqi

58. Nutq sofligini buzuvchi unsurlar- bular

- A. Dialektizmlar, varvarizmlar, vulgarizmlar, parazit so'zlar, jargon va argolar
- B. Kantselyarizmlar, adabiy so'zlar, vulgarizmlar, jargonlar
- C. Varvarizmlar, kantselyarizmlar, parazit so'zlar, iqtisodiy terminlar G. Dialek tizmlar, argolar,
- D.adabiy so'zlar, o'zlashgan iqtisodiy terminlar.

59. Berilgan gaplardan adabiyotshunoslikka oid atamalarni belgilang. Adabiyot uch turdan iborat. Birinchi turga she'riyat, ikkinchi turga nasr, uchinchi turga dramaturgiya kiradi.

- A.Birinchi, ikkinchi
- B.dramaturgiya kiradi
- C.Adabiyot, she'riyat, nasr, dramaturgiya
- D.To'g'ri javob yo'q

60. Guvohnoma –

- A. Muayyan shaxsnинг xizmat va boshqa holatlarini, shuningdek, biror ishga oid vakolatini ko'rsatuvchi hujjatdir.
- B. Rasmiy guvohnomalar 6 turga bo'linadi.
- C. Ishlab chiqarish doirasida namoyon bo'ladi.
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

61. Ma'lum voqelik haqida tasavvur beradigan bir yoki bir necha sintaktik birliklardan tashkil topgan nutqiy butunlihisoblanadi.

- A.Matn
- B. Hikoya
- C.Asar
- D.Monografiya

62. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Taqidiy tahlil, qat’iy tartib- intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” nomli asari qachon chop etilgan?

- A.2017- yil 14- yanvarda
- B. 2016- yil 4- dekabrda
- S.2017- yilda 4- dekabrda
- D.2017- yil 14- dekabrda

63.2016- 2017- o'quv yilining ikkinchi yarmida institutda o'tkazilgan “O'zbek tili” fan olimpiadasida jami 20 nafar talaba qatnashdi. Keltirilgan gap qanday matn hisoblanadi?

- A.Ma'lumotnoma matni
- B.Shaxsiy ma'lumotnoma matni
- S.Buyruq matni
- D.Bildirgi

64.O'zbek tilshunosligida tinish belgilari o'r ganuvchi bo'lim qanday nomланади?

- A.Sintaksis
- B.Morfologiya
- S.Punktuatsiya
- D.Orfografiya

64.O'zbek tilida tinish belgilari necha xil shakily ko'rinisha ega?

- A.9 xil
- B.8 xil
- C.7 xil
- D.10 xil

65.Darak gap oxirida va fikrlarning tugalligini ifoda etishda qaysi tinish belgisi qo'llaniladi?

- A.
- B.
- C....
- D.-

66.Taajjub, tashakkur, hayratlanish, rag'batlantirish, zavqlanish, shodlik, mammunlik ma'nolarini bildiruvchi gaplardan so'ng qanday tinish belgisi qo'llaniladi?

- A. “”
- B.?
- C.!
- D.,

67.Uyushiq bo'lakli gaplarda biriktiruvchi bog'lovchilar qatnashmagan o'rinnlarda qanday tinish belgisi qo'llaniladi?

- A,
- B.
- C.!
- D. ?

68.Kredit so'zining ma'nosи?

- A.Foyda qaytarish sharti bilan, vaqtincha foydalanish uchun pul yoki moddiy mablag'lar berish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi
- B.Oldi-sotdi yoki to'lov muomalalarida narx, baho qiymat o'lchovi
- C.Pulini darov to'lash sharti bilan bo'lgan yoki bo'ladigan savdo muomalasi
- D.Mahalliy, muayyan joyga xos

69.Bankrot so'zi qaysi so'zdan olingan?

- A.Nemis tilidan

- B.Ingliz tilidan
- S.Lotin tilidan
- D.Xitoy tilidan

70. Ekvivalent so'zi qaysi tildan olingan?

- A.Lotin tilidan
- B.Uyg'ur tilidan
- C.Italyan tilidan
- D.Rus tilidan

71. Hujjatlar mazmuniga ko'ra ikki turli bo'ladi:

- A. 1) sodda hujjatlar – muayyan bir masalani o'z ichiga oladi; 2) Murakkab hujjatlar – ikki yoki undan ortiq masalani o'z ichiga oladi .3) buyruq matnidagi hujjatlar
- B. 1) sodda hujjatlar – muayyan bir masalani o'z ichiga oladi; 2) Murakkab hujjatlar – ikki yoki undan ortiq masalani o'z ichiga oladi .3) ma'lumotnomma matnidagi hujjatlar
- C. 1) sodda hujjatlar – muayyan bir masalani o'z ichiga oladi; 2) Murakkab hujjatlar – ikki yoki undan ortiq masalani o'z ichiga oladi .
- D.1.Tashkiliy hujjatlar 2.Hosobot shaklidagi hujjatlar

72. Qolipli hujjatlar sirasiga qanday turdag'i hujjatlarni kiritish mumkin?

- A. ish haqqi yoki yashash joyi haqidagi ma'lumotnomalar, ayrim dalolatnomalar, xizmat safarları guvohnomaları va boshqa ko'plab hujjatlarni kiritish mumkin .
- B.Ariza, bayonnomma
- C.Ariza, Shikoyat xati
- D.B va S javoblari

73. Hujjatlar tegishlilik jihatiga ko'ra qanday hujjatlarga ajratiladi?

- A.tashkiliy hujjatlar, ma'lumot-axborot hujjatlari
- B.xizmat yoki rasmiy hujjatlar va shaxsiy hujjatlari
- C.dalolatnomma matnidagi hujjatlar
- D.To'g'ri javob yo'q

74. «Ma'dani inson guhari so'zdurur, gulshani odam samarii so'zdurur», «Ko'p demak so'zga mag'rurlik va ko'p yemak nafsga mag'rurlik», Yuqoridagi fikrlarning muallifini toping.

- A. Z.Bobur
- B. Zamaxshariy
- C. A.Navoiy
- D. A.Avloniy

75. Voiz bu

- A.Olim
- B. Kofir
- C.Notiq
- D.Johil

76. Dalolatnama, guvohnoma, qaror, bildirgi, ma'lumotnama so'zlari qaysi uslubga tegishli?

- A. So'zlashuv uslub
- B. Rasmiy uslub
- C. Badiiy uslub
- D. Ilmiy uslub

77. Insoniy nutq faoliyat qanday ko'rinishda namoyon bo'ladi?

- A. Eshtish, gapirish, baqirish
- B. O'qish, yozish, chizish
- C. So'zlashish, tuzatish, yozish
- D. Mutolaa qilish so'zlash, eshitish

78. Aytilishi noqulay so'zlar o'rniga qanday so'zlar qo'llaniladi?

- A.Evfemizmlar

B.Olinma so‘zlar

S.Jargon so‘zlar

D.Chegaralangan so‘zlar

79. Nechanchi yilda A.Hojiyev muharrirligida “O‘zbek tilining imlo lug’ati” nashr qilindi?

A.1995- yilda

B.1998 –yilda

S.1996- yilda

D.1997- yilda

80. So‘zlar oxirgi bo‘yicha alifbo tartibida joylashtiriladigan lug‘at nomi?

A. Ters lug‘at

B.Terminologik lug‘at

S.Izohli lug‘at

D.Imlo lug‘ati

81. “Barcha fuqarolarning huquq va burchlarga ega bo‘lish layoqati (huquq layoqati) teng ravishda e’tirof etiladi. Fuqaroning huquq layoqati tug’ilgan paytdan e’tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi.” Berilgan matn qaysi uslubga xos?

A. Rasmiy uslub

B. So‘zlashuv uslub

C. Badiiy uslub

D. Ilmiy uslub

82. Adabiy normaning qanday ko‘rinishlari mavjud?

A. Badiiy va ilmiy

B. Og‘zaki va yozma

S. Substansiya va forma

D. Shakl va mazmun

83. Tog‘lardagi qip-qizil lola, bo‘lib go‘yo yoqut payola buloqlardan uzatadi suv, El ko‘zidan qochadi uyqu. (Hamid Olimjon). She’riy parchada tilning tasviriy vositalaridan qay biri qo‘llanilgan?

A.O'xshatish

B. Sifatlash

C. Qiyoqlash

D. Metafora

84. To'g'ri talaffuz qoidalari tilshunoslikning qaysi bo'limida o'rganiladi?

A.Orfoepiya

B. Orfografiya

C. Punktuatsiya

D. Fonetika

85. Jamiyatdagi o'zgarishlar birinchi bo'lib tilning qaysi bo'limida o'z aksini topadi?

A.Leksikada

B. Fonetikada

C. Morfologiya

D. Sintaksisda

86. Ma'lum ijtimoiy guruh vakillari nutqiga xos so'zlar

A. varvarizmlar

B. Vulgarizmlar

C. jargonlar

D. terminlar

87. Tilda mayjud bo'lgan so'kish va qarg'ish so'zlar qanday nomlanadi?

A.Vulgarizmlar

B. Varvarizmlar

C.Jargonizmlar

D.Argolar

88. "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi Qonun nechanchi yilda tasdiqlangan?

A.1997 yil 24 aprel

B.2007 yil 15 -yanvar

C.2002 yil 12-dekabr

D.1996 yil 30 avgust

89.Tildagi leksik birliliklar zamonaviyligiga ko'ra nechiga bo'linadi?

A.3 ga

B.4 ga

C.2 ga

D.5 ga

90. "Istorizm" so'ziga berilgan to'g'ri ta'rifni toping.

A. yunoncha **historia** – **tekshirish, tadqiqot** so'zlaridan olingen bo'lib, tarixga oid hozirgi kunda yo'q bo'lib ketgan narsa hodisalarining nomini bildiruvchi so'zlar sanaladi.

B. hozirda bor bo'lgan narsaning nomini ifodalashi, zamonaviy qatlamdag'i sinonimiga ega ekanligi, unga nisbatan tildagi o'rning belgilanishini

C. yangilik bo'yog'i mavjud bo'lgan leksemalarga

D. jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, madaniy tarixiga oid bo'lgan so'zlarga

91. "Arxaizm" so'ziga berilgan to'g'ri ta'rifni toping.

A.Yangilik bo'yog'i mavjud bo'lgan so'zlar

B.Hozirgi kunda iste'moldan chiqqan so'zlar

C. yunoncha **archolos** – **qadimgi** so'zidan olingen bo'lib, hozirda mavjud bo'lgan zamonaviy narsa hodisalarining eskirib qolgan atamalari sanaladi.

D.A va B javoblar

92.Iqtisodiyot, bank, kredit, monitoring, kvota so'zlar qanday so'zlar hisoblanadi?

A.Arxaik so'zlar

B.Tarixiy so'zlar

C.Yangi so'zlar

D.Boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar

93. Qozi, redaktor, redaksiya, ellikkoshi, ollomon, ma'naviyat, kitob, bilim, ash'or, adabiyot, badiiyat, ilm. Ushbu so'zlar qatoridan bugungi kunda iste'moldan chiqqan so'zlarni toping.

A.Qozi, redaktor, redaksiya

B.Ellikkoshi, olomon

C.Ma'naviyat, kitob, badiiyat

D.A va B javoblar

94. Ellikkoshi beto'xtov aminga xabar qilmoqchi bo'lib chiqib ketdi. Gap tarkibidan tarixiy so'zlarni toping.

A.beto'xtov aminga

B.ellikkoshi aminga

C.xabar qilmoqchi

D.chiqib ketdi.

95. Farmoyish hujjatlari qanday hujjatlar hisoblanadi ?

A.Ma'lumot-axborot hujjatlari

B.Hisobot shaklidagi hujjatlar

C.Tashkiliy hujjatlar

D.Boshqaruvga doir huquqiy hujjat

96. Farmon qanday hujjat sanaladi?

A.1) Muayyan mamlakatlarda davlat boshlig'i

B.(Prezident) chiqaradigan muhim huquqiy hujjat.

C.Tashkilot uchun zarur hujjat

D.A va B javoblar

97.Nutq boyligiga safbiy ta'sir ko'rsatuvchi holatlar - bu

A. Takror so'zlar, takror qo'shimchalar, lug'at boyligining sayozligi, sinonimlardan o'rinni foydalanmaslik

B. Sinonimlardan o'rinni foydalanmaslik, o'zlashgan baynalmilal iqtisodiy so'zlar, takror qo'shimchalar

C. Takror qo'shimchalar, o'zlashgan baynalmilal iqtisodiy so'zlar, adabiy til me'yorlari

D. Takror so'zlar, lug'at boyligining sayozligi, adabiy til me'yorlari, jargonlar va argolar.

98. Nutq odobi nima?

A. ma'no ifodalovchi gap birligi.

B. adabiy normadagi nutq.

C. adabiy normadagi gap.

D. oliy ma'lumotlarga ega bo'lish

99.Oktava - insonning hayotda o'z o'mini topishga bo'lgan intilishi. Bu intilish kuch-qudratingizni, buyukligingizni, yoshliringiz va salomatligingizni qanday timsolda ko'rsangiz o'shanday bo'lishga intilishdir. Ushbu gapda nechta so'z fonetik o'zgarish bo'yicha yozilgan?

A) 5 B) 2 C) 3 D) 4

100. Qaysi qatordagi so‘zlarda i tovushi bilinar-bilinmas talaffuz etiladi?

- A) bilan, tilim, sira
- B) tushib, tirnoq, tingla
- C) qiliq, qiziq, torlik
- D) tartib, keltiring, kelib

101. Qaysi so‘zlardagi jarangli undoshni jarangsizjuftiga almashtirganda yangi so‘zlar hosil bo‘ladi?

- A) bir, bol, tong, sut
- B) bayt, band, dori, dog‘
- C) dil, dor, ozod, bob
- D) darz, sud, azon, yod

102. Mehnat bilan inoqlashsang, tan og‘rig‘ini ko‘rmassan. Ushbu gapda qanday fonetik o‘zgarish kuzatilmoqda?

- A) tovush tushishi
- B) tovush almashishi
- C) tovush orttirilishi
- D) tovush tushishi va almashishi

103. Fevral oyiga kelib sovuqning shashti biroz pasaydi. Ushbu gapda qanday fonetik o‘zgarish ro‘ybergan?

- A) tovush tushishi va almashishi
- B) tovush orttirilishi va tushishi
- C) tovush almashishi va orttirilishi
- D) tovush almashishi

104. Qaysi so‘zlarda urg‘u ma’no farqlash uchun xizmat qiladi?

- A) qatlama, atlas
- B) yuklama, gapir
- C) erkin, dala

D) zakovat, suzma

105. Berilgan so'zlardan qaysi biri fonetik o'zgarishasosida yozilgan?

A) ulg'aymoq

B) ishda

C) stol

D) ketdi

106. Shundan so'ng ikkovi shunchalik qalinlashdiki, hatto bir juma kuni Murodxo'ja domlaning mehmonxonasida bir haftalik so'z boyligini aytib tamom qildi. Ushbu gapda nechta so'z fonetik o'zgarish asosida yozilgan?

A) 2 B) 3 C) 4 D) 5

107. yod - yot, sut - sud paronim so'zlardagi d va t undoshlarning farqlovchi belgisini toping.

A) til yoki lab undoshi

B) til oldi yoki til orqa undoshi

C) jarangli yoki jarangsiz tovush

D) portlovchi yoki sirg'aluvchi tovush

108. Qaysi javobda jarangsiz jufti bor bo'lgan til orqaundoshi berilgan?

A) b B) ng C) g D)f

11. Ikki xil keng unli qator kelgan so'zlarni toping. 1) soat; 2) muallif; 3) oila;
4) matbaa; 5) saodat; 6) sharoit; 7) zoomagazin; 8) maosh; 9) taom; 10) tamoil
1, 5, 8, 9 B) 1, 4, 5, 7, 8, 9C) 2, 3, 4, 7, 8 D) 1, 2, 4, 5, 7, 8, 9

109. Faqat talaffuzda bir tovush ortadigan tor va kengunli qator kelgan so'zlar qaysi javobda berilgan?

A) doim, ilm, saodat

B) tabiat, shariat, shior

C) soat, muallim, muomala

D) parvoyi, mavqeyi, obro'ygi

110. Hayotning ko'p issiqsovug'ini ko'rib, saboq olib, tajribamni oshirdim. Ushbu gapda nechta fonetik o'zgarish kuzatilmoqda?

A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta

111. Hayotning ko‘p issiqsovug‘ini ko‘rib, saboq olib, tajribamni oshirdim. Ushbu gapda qanday fonetik o‘zgarishlar kuzatilmoqda?

- A) 1 ta tovush orttirilishi va 1 ta tovush almashishi
- B) 2 ta tovush orttirilishi va 1 ta tovush almashishi
- C) 1 ta tovush orttirilishi va 2 ta tovush almashishi
- D) 2 ta tovush orttirilishi

112. Berilgan so‘zlarning qaysi birida faqat til oldi, sirg‘aluvchi undoshlar ishtirok etgan? 1) muvozanat; 2) larza; 3) faylasuf; 4) shoira; 5) shovul; 6) salla

- A) 1, 2, 3 B) 4, 5, 6 C) 2, 4, 6 D) 2, 5,

113. Buni anglay olish uchun odamda mantiqqudrati bor. Berilgan gap tarkibidagi sodda yasama so‘zda qanday undosh ishtirok etmagan?

- A) jarangli undosh
- B) sirg‘aluvchi undosh
- C) ovozdor undosh
- D) lab undoshi

114. 1) ikki; 2) uch; 3) to‘rt; 4) besh; 5) olti; 6) sakkiz Berilgan sonlarning qaysi birida faqat yuqori tor unlilar ishtirok etgan?

- A) 1, 2 B) 2, 3, 4 C) 2, 3 D) 1, 5, 6

115. Oltovlon ola bo‘lsa, og‘zidagin oldirar, To‘rtovlon tugal bo‘lsa, ko‘kdagini indirar.Ushbu maqoldagi fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlar sonini aniqlang.

- A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta

116. Sanasak, muvaffaqiyatlar ko‘p, ammo ular orasida eng muhimmi, hamma xalqqa, hamma elga zarur bo‘lgan ne’mat -Tinchlik bayrog‘i bilan yangi asrning issiq, nurli quchog‘iga talpinapmiz. Ushbu gapda nechta so‘z so‘z yasovchi qo‘sishimcha qo‘shilishi natijasida fonetik o‘zgarishga uchragan?

- A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta

117. Shu so‘zlar og‘zimdan chiqar-chiqmas, do‘stim etagimga yopishib xitob qildi: "Karam sohibi bo‘lgan odam va’da berdimi, va’dasiga vafo qilishi lozim!"(Sa’diy)

Ushbu gapda egalik qo'shimchasi qo'shilishi natijasida fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar sonini aniqlang.

A) 2 ta B) 4 ta C) 1 ta D) 3 ta

118. Qaysi javobdag'i barcha so'zlar to'g'ri yozilgan?

- A) mehmondo'st, ijotkor, rayhon
- B) iste'dod, bunyodkorlik, hujum
- C) mudofaa, jigarband, jaxolat
- D) jaxongashta, navo, mahliyo

119. Qaysi gapda paronim bilan bog'liq xatolik mavjud?

- A) Besh asrkim nazmiy saroyni Titratadi zanjirband bir sher.
- B) Bog'imizga o'n tub olma ko'chatini o'tqazdik.
- C) Azim tog'lar, sizlar ham yaxshi qoling.
- D) Sizning har bir so'zingiz biz uchun tilladan afzal.

120. Qaysi gapda paronim bilan bog'liq xatolik mavjud?

- A) Yo'l yoqasidagi azim yong'oqlar, sizlar ham yaxshi qoling.
- B) Xalqimiz uchun o'sha davrlarda e'tiqod, islom kabi tushunchalar butunlay yot edi.
- C) Mevasini ko'tarolmagan olma shohi qarsillab sinib tushdi.
- D) Bu kasallikning davosini topish uchun olimlar astoydil izlanishmoqda.

121. Qaysi javobdag'i ajratib ko'rsatilgan so'zda sinekdoxa usuli orqali ma'no ko'chishi yuz bergen?

- A) "Nasaf" Toshkentdan g'alaba bilan qaytdi.
- B) Yoqimli hid dimog'ini qitiqladi.
- C) Bir boshga bir o'lim.
- D) Och nazarim tushar suratga.

122. Qaysi javobda berilgan so'zlardagi nuqtalar o'rniغا bo'g'iz undoshi yoziladi?

- A) ...yla, ...ulosa
- B) sa...iy, i...tiro
- C) ...ayot, ...aridor
- D) ...ushyor, ...ozirjavob

123. Qaysi javobdag'i barcha so'zlar tarkibida til orqa burun undoshi qatnashgan?

- A) tong, shtanga, ko'rdingiz

- B) tongi, yengildi, dengiz
- C) jarang, singil, bugungi
- D) so'nggi, kongress, tungi

124. Nayman onani o'g'li bir yil oldin jungjanglar tomonidan halok etishgan otasining o'chini olish uchun jangga otlanib, Sario'zakda bo'lgan omonsiz olishuvga yarador bo'ladi. Ushbu gapda adabiy til me'yorlariga amal qilinmay uslubiy jihatdan noto'g'ri qo'llangan qo'shimchalar soni nechta?

- A) 4ta
- B) 5ta
- C) 2ta
- D) 3ta

125. "Xato qilyapsiz!" murojaati ijobiy ma'noda qo'llangan qatorni toping.

- A. Siz yanglisyapsiz.
- B. Fikringiz mutlaqo noto'g'ri.
- C. Noo'rin gapirmang.
- D. Haqiqatdan juda uzoqlashyapsiz.

126. Ich-etini yemoq iborasining ma'nodoshi berilgan javobni toping.

- A. o'z yog'iga o'zi qovurilmoq
- B. o`z-o`zini qiy namoq
- C. ignaning teshigidek
- D. o`z-o`zini ayblamoq

127. Mum tishlamoq iborasining ma'nodoshi berilmagan qatorni toping.

- A. og'ziga tolqon solmoq;
- B. mog'ziga qatiq ivitmoq.
- C. Mazasi qochdi
- D. A.B

128. Paronimlarni qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud bo'lgan gapni aniqlang.

- A) Kechalar uyqusiz she'r yod olganim Tonggi ufqadagi yolqinlar aytsin.
- B) O'zga yurtda shox bo'lguncha, o'z yurtingda gado bo'l.
- C) Yillar o'tar, o'tar asrlar qator. Dunyoga keladi yangi avlodlar.
- D) O'qiyotgan kitobimning uch bobini tugatdim.

129. Ko'k yuzida suzib yurgan bulut parchalari ostobni bir zumda yuz ko'yga so'lyapti. Mazkur gapda qo'llangan "ko'y"so'zining ma'nodoshini toping.

- A) holat

- B) donalik
- C) musiqä
- D) rang

130. Bir ma'noli so'zlarni aniqlang.

- A) sa've, gułxayri, pazanda
- B) yengil, mayin, yemoq
- C) yutmoq, shirali, achitmoq
- D) gavhar, girdob, yumshamoq

131. Ko'p ma'noli so'zlarni toping.

- A) men, sen
- B) besh, o'n
- C) ota, ona
- D) tomir, yoqa

132. Qaysi qatorda ko'chma ma'noda qo'llangan so'z berilgan?

- A) Kishi dunyoda baxtli bo'lish uchun yashaydi.
- B) Mehmon va mezbon allamahalgacha Lutfiy g'azallarini zavq bilan o'qishdi.
- C) Barmog'imning tırnog'i etidan ajrab ketdi
- D) U soy yoqasidan pastga tomon qiyalib yurdi.

133. Tobe qismi ko'chma ma'noda qo'llangan bitishuvfi birikmalarini aniqlang.

- A) masala yechmoq, gap sotmoq
- B) uyg'ongan mehr, issiq suv
- C) yengil jarohat, siquv ostida
- D) og'ir xo'rsinmoq, o'ynoqi shabada

134. O'z ruhing bilan ziddiyatga bormaslikning yagona yo'li foydali mexnatdir.

Ushbu gapda imloviy jihatdan xato yozilgan so'z qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan?

- A) aniqlovchi
- B) hol
- C) to'ldiruvchi
- D) kesim

135. Qaysi javobdagи so'zlar imloviy jihatdan xato yozilgan?

- A) faxm, ihtiyyoriy
- B) rahnamo, rayhon

- C) tanbeh, tahmin
- D) timsoh, tuhmat

136. So‘zdan qudratliroq kuch yo‘q, o‘tkir dalillarning va yuksak fikrlarning ta’sirini inkor e’tib bo‘lmaydi. Ushbu gapda nechta so‘z birikmasi mavjud?

- A. 8 ta
- B. 7 ta
- C. 6 ta
- D. 9 ta

137. U o‘z yutuqlari va kelajakdagи rejalar haqida to‘lqinlanib gapirdi. Ushbu gapdagи so‘z birikmalari haqida berilgan to‘g‘ri ma’lumotni aniqlang.

- A)Ushbu gapda 4ta fe’lli so‘z birikmasi qatnashgan.
- B)Ushbu gapda 4ta otli so‘z birikmasi qatnashgan.
- C)Ushbu gapda 3ta aniqlovchili so‘z birikmasi qatnashgan.
- D)Ushbu gapda 2ta holli so‘z birikmasi qatnashgan.

138. Qaysi gapda sodda yasama holat ravishi ishtirok etgan?

- A)Dushman bilan tortishayotganingizda ham mardona fikr bildiring.
- B)Olmaxon yerdan ko‘ra daraxtda yanada tezroq yuguradi.
- C)Kemtik oy cho‘qqilar orasidan mo‘ralaydi, Jamila esa oyga termilib zavqlanardi.
- D)Ular asta-sekin ko‘zdan olislab borishardi, biz esa ularni kuzatib qoldik.

139. Men musavvirlikning sirlarini o‘rganishga va o‘zlashtirishga astoyil bel bog‘ladim, chunki menda unga havas uyg‘ongan. Ushbu gapda nechta tobe bog‘lanish mavjud?

- A) 7ta
- B) 6ta
- C) 8ta
- D) 9ta

140. Qaysi javobdagи birliklar nutqimizda so‘z birikmasi va ibora sifatida qo‘llana oladi?

- A)maslahat bermoq, ko‘ylagi keng
- B)bo‘yniga ilmoq, asar zerikarli
- C)ruxsat bermoq, ko‘zi ochilmoq
- D)qulog‘iga quymoq, ko‘zi ochilmoq

141. Charchamang, ko‘zlarim, boqay to‘yguncha, Bu zavq daryosidan shimir, ey ko‘ngil. Ushbu parchada qatnashgan fe’llar haqidagi qaysi fikr to‘g‘ri emas?

- A)Sifatdosh shaklidagi o‘timsiz fe’l qatnashgan.
- B)Ushbu gapda hokim qismga bitishuv usulida tobelangan fe’l qatnashgan.

C)Ushbu gapdag'i kesim vazifasida kelgan fe'llar buyruq-istak maylida qo'llangan.

D)Asosi o'z shakildoshiga ega bo'lган ravishdosh qatnashgan.

142. Buyruq-xitob undovи qatnashgan gapni aniqlang.

A)Iya, sen mehmonga kelasan-u, ovoragarchiligi bormi?

B)Oh, qanday go'zal bu olam!

C)Hoy, sen hali yalpiz nimaligini bilmaysanmi?

D) Luqmoni Hakim, sening dong'ing tutdi olamni.

143. Hilola Alijonning aql-idrokiga, chidamliligi, qanoatliligi va sadoqatiga tan berdi. Ushbu gapda gap bo'laklari nechta so'z birikmasini hosil qilgan?

A) 8ta B) 6ta C) 5ta D) 7ta

144.Qaysi gapda majhul nisbatdag'i va birgalik nisbatidagi fe'llar qatnashgan?

A) Ozoda gilamlar to'shalgan past-balando chorpojalar ustida odamlar choy ichishadi, ish yuzasidan maslahat qilishadi.

B) Bolalar uni yaxshi ko'rishib, unga yordam berishibdi.

C) Ko'zni quvnatadigan gulzor yonidagi yam-yashil daraxt tagiga qo'yilgan kattagina so'rida miriqib dam olish mumkin.

D) Botayotgan quyoshning horg'in nuri qorli tog' cho'qqisini, uning tepasida uvadaday osilib turgan bulutni bir lahma qizartirdi-da, so'ndi.

145. Biroz yurishgandan so'ng mulozimlar shoirning qabristonga yaqinlashganda otdan tushishi sababini so'rabdilar. Ushbu gapda qatnashgan fe'llar haqidagi to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

A) Gapdag'i barcha fe'llar tub fe'llar sanaladi.

B) Gapda fe'l nisbatlarining ikki turi qatnashgan.

C) Gapdag'i barcha fe'llar o'timsiz fe'llar sanaladi.

D) Gapda fe'l vazifa shakkllarining ikki turi qatnashgan.

146. Tobe qismi ko'chma ma'noda qo'llangan fe'lli birikmalarni aniqlang.

A)samolyotning dumi, rubobning qorni

B)yengil kuy, achchiq so'z

C)siqv ostida yashamoq, uyg'a bormoq

D)og'ir xo'rsinmoq, sayoz fikrlamoq

147. Qaysi gapda kesim vazifasida kelgan ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi qatnashgan?

- A) So'zga chiqqan Sodiqjon domla shogirdi haqida faxrlanib gapirardilar.
- B) Uyiga javob beraylik, o'n besh-yigirma kunga borib kelsin.
- C) El suygan xonanda o'zgacha qiyofada televideniyeda chiqar edi.
- D) O'yin-kulgi, askiya yarim kechagacha cho'zilib ketdi.

148. Qaysi javobdag'i so'zlar imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan? 1) mukofot;

2) tayziq; 3) taxlit; 4) dafatan; 5) favqulodda; 6) har chog'

- A) 1, 4, 5, 6 B) 1, 3, 5, 6 C) 2, 4, 5 D) 2, 3, 6

149. Millatning dahosi, aqli va ruhiyati maqollaridan bilinadi. Ushbu gapda nechta moslashuvli so'z birikmasi mavjud?

- A. 3 ta B. 4 ta C. 5 ta D. 6 ta

150. Qaysi gapda -ar qo'shimchasi bilan hosil qilingan orttirma nisbatdag'i fe'l qatnashgan?

- A) O'roq mahali o'roqchilarga go'ja, ayron olib chiqardik.
- B) Ko'klam. Butun mavjudot qaytadan yasharmoqda.
- C) Kampirning ko'zlari allanechuk olayib ketdi, yuzining suyakka yopishgan chandir terisi oqardi.
- D) Ey volida, duolaring sharofatidan Olloh o'g'lingga ko'rish ne'matini qaytardi!

151. O'z Vatanini himoya qilish uchun mardona kurashgan bu jasur o'g'lonlar haqida faxrlanib gapiramiz. Ushbu gapdag'i so'z birikmalari haqida berilgan qaysi ma'lumot to'g'ri?

- A) Boshqaruv usulida birikkan so'z birikmalari soni 2ta.
- B) Bitishuv usulida birikkan so'z birikmalari soni 4ta.
- C) 2ta so'z birikmasining hokim qismi hol vazifasini bajargan.
- D) 4ta so'z birikmasining tobe qismi aniqlovchi vazifasini bajargan.

152. Qaysi gapda asosi son turkumiga oid so'z bilan shakldosh bo'la oladigan sodda yasama so'z qatnashmagan?

- A) Uning o'ng yuzidagi kulgichi o'ziga juda yarashar edi.
- B) Qondoshlarim, qo'lni qo'lga berib mehnat qilmog'imiz kerak.
- C) Eshikning o'yma naqshlari juda chiroyli.
- D) Bo'lib o'tgan voqeа haqida yozma ma'lumot berildi.

153. Faqat hokim qismigina yasama so'z bilan ifodalangan bitishuvli so'z birikmasi qatnashgan gapni aniqlang.

- A)Lekin u bu haqda tırnoqcha ham qayg'urmayaptı.
- B)Mevasız daraxt faqat o'tinlikka yaraydı.
- C)Ko'ksim tog' etgan - Vatan sevgisi.
- D)U kuyovining bu qiliqlariga ichida g'ijinar edi.

Mundarija

O'zbek tilni sohada qo'llanishi fanining maqsad va vazifalari.....	4
O'zbek adabiy tili me'yorlari	9
O'zbek lotin alifbosining imlo qoidalari	12
Fonetik me'yorlar	18
Leksik me'yorlar	21
Grammatik me'yorlar	26
Nutq uslublari va ularning xususiyatlari	28
Ilmiy uslub. Sohaviy terminlarning leksik xususiyatlari	34
Ilmiy uslubning grammatic xususiyatlari	38
Rasmiy uslub va uning tuzilishi	43
Sohada davlat tilida ish yuritish masalalari. Ma'lumot axborot hujjatlari .	45
Sohaviy xizmat yozishmalari	54
Glossary	61
Test savollari	66

**Qog'oz bichimi A5, Offset qog'ozı.
“Times New Roman” garniturasi
Nashr bosma tabog'i 6.00
Buyurtma № 064A. Adadi 30 nusxa**

**Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.**

Guvochnoma № 18-2464 01.11.2019 yil

Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko’chasi 60-uy,
A. Temur ko’chasi 9-uy.